

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MAXSUS PEDAGOGIKA
KAFEDRASI**

ERTA TASHHIS VA ABILITATSIYA

**fanidan
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

(3 – kurs)

Ta’lim sohasi:

110000 – Pedagogika

Bakalavr yo‘nalishi:

**5111900 – Defektologiya
(Logopediya)**

QO‘QON-2023

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 20__-yil “____” _____dagi ____-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Erta tashhis va abilitatsiya” fanidan tuzilgan namunaviy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

M.Xoldorov – Qo‘qon DPI Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, t.f.n.,

Taqrizchi:

M.Maxmudova – Muqumiy nomidagi QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrası kata o‘qitvchisi, (PhD)

O‘quv-uslubiy majmua Qo‘qon Davlat Pedagogika instituti Kengashining 2023 yil _____dagi 1 - sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. O'QUV MATERIALLAR

- 1) **Ma'ruza mashg'ulotlari**
- 2) **Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari**

II. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

- 1) **Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**
- 2) **Kurs ishi yozish bo'yicha tavsiyalar**

III. GLOSSARIY

IV. ILOVALAR

- 1) **Fan dasturi**
 - 2) **Ishchi fan dastur**
 - 3) **Tarqatma materiallar**
 - 4) **Testlar**
 - 5) **Baholash mezonlari**
 - 6) **Boshqa ma'lumotlar (fan bo'yicha boshqa materiallar mavjud bo'lsa keltiriladi)**
 - 7) **O'UMning elektron variant (CD yoki DVD diskda)**
-

Mavzu: Alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari

Reja:

1. Yosh go'daklar rivojlanishining xususiyatlari
2. Alohida yordamga muhtoj, anomal bolalar.
3. Anomal bolalarning toifalarilari
4. Anomal bolalarga yordamni tashkil etish
5. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari

Tayanch tushunchalar:

✓ *Anomal* -- yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomal so'zidan olingan

✓ *Abilitatsiya*- moslashtirish

✓ *Reabilitatsiya*- (*lot.qayta tiklash*) kasal yoki rivojlanishlarida muammolari bo'lgan shaxslar organizmi buzilgan funksiyalarining va mehnatga bo'lgan layoqatlarining tiklanishi yoki kompensatsiyalanishi. Reabilitatsiya tibbiy, psixologik, pedagogic, ijtimoiy tadbirlar majmuasi asosida ta'minlanadi hamda shaxsning ruhiy va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy sharoitga moslashuvi, ijtimoiy hayot va mehnatga layoqatini nazarda tutadi.

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni xis etadi.

Tevarak atrofdagi borliqni bilish — sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi.

Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila b o s h la y d i, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar; ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan

Va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi — buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining o'z vaqtida va tug'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir.

Nutq ruxiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir kursatadi. Bolalar nutqi rivojlanishga boshlashi bilan kattalar suzlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga uz munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati — bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruxiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Korreksion pedagogika fanida aloxida yordamga muxtoj - anomal bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi; Ular quyidagilardir;

1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar', kech kar

Bo'lib qolgan bolalar);

2) ko'rish qobiliyati zaif (kur, zaif ko'ruvchi bolalar);

3) oligofren (debil, imbetsil, idiot bolalar);

4) og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;

5) harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bulgan bolalar;

6) ruxiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar.

7) kompleks nuqsonli kur-kar-soqov bolalar;

Anomal bolalar sog'lom tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsa-yu, bu nuqson uning har

Tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u umumiy maktab sog'lom tengdoshlari qatori uzlashtiradigan bulsa, u anomal bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas.

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratalishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida xamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular aloxida yordamga muhtojdirlar.

Har qanday anomal rivojlanish markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funktsional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bulishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa kupgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatib, uning dastur materiallarini yaxshi uzlashtira olmasligiga, ulgurmovchi uquvchilar orasiga qo'shilib qolishiga sabab buladi. Shunday bulsada, biz bunday bolani anomal bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bulmasin biror organik yoki funktsional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan.

Tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni anomal bolaiardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki Turmushda orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar ko'p jihatdan xomilador onaning sog'lig'i va y a s h a s h sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi xomilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning xomiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi o'zboshimchalik bilan turli dori darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi, bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan eshitish, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktoring mos kelmasligi va boshqalar).

Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan anomaliyalar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakuum-ekstraktor yoki ombur solinishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba'zan uning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasining oldini olish yuzasidan .ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan anomal bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolaing chechak, o'lat, tif, vabo, traxcma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida anomal bo'lib qoiish

Hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning anomal bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

Nazorat savollari:

1. Yosh go'daklar rivojlanishining xususiyatlarini ayting
2. Aloxida yordamga muxtoj, anomal bolalar to'g'risida tushuncha bering.
3. Anomal bolalarning toifalarilari to'g'risida tushuncha bering.
4. Anomal bolalarga yordamni tashkil etish ayting
5. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari to'g'risida tushuncha bering.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati", T.: 2007
2. Azizxo'jaeva N.N Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat – T., 2008.
3. Ayupova M.Y., Mo'minova L.R Logopediya – T., 1993
4. Axmedova Z.M, Ayupova M.Y., Xamidova M.P Logopedik o'yin "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" - T.: 2013

Mavzu: Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarga barvaqt majmuaviy yordam ko'rsatish

Tayanch so'zlar: ta'sir, shug'ullanish, ilk yosh, xarakat, tuyg'u, mashg'ulot, o'yin.

Xar qanday bola bilan mashg'ulot olib borish vaqt va bardosh, boshqalardan farqli bola bilan esa ikki barobar talab qiladi. Bolani shoshirmang, unga o'ziga qulay bo'lgan tezlikda xarakat kilishi uchun imkon bering. Rivojlanishida o'ziga xoslik bo'lgan bolada juda ko'p xollarda chaqiriqqa javob kilish uchun xiyla uzoqroq vaqt talab qilinadi, shuning uchun bola bilan gaplashib, o'ynaganda unga javob kaytarishi uchun o'zingiz yetarli deb xisoblaydigai ko'prok vakt bering.

Bolani diqqat bilan kuzating, uning qanday fikrlashi, nimalarni xis qilishi, nimalarni o'rganib olgani va yangi malakalardan qanday foydalanayotganini tushunishga xarakat qiling. Bolaning jismoniy va xissiy xolatiga e'tiborli bo'ling, u xar doim xam o'zini yomon xis kilayotganligi xakida bildira olmasligi mumkin. Bolaning qiziqishlaridan kelib chiqing va uning istaklarini inobatga oling. U yoktiradigan o'yinlarni o'ynang va u xozir nima qilishni xoxlasa, shu bilan shug'ullaning. Xamisha bolaning extiyojlariga javob kaytaring, uning xarakatlariga reaksiya kiling.

Bola bilan muntazam shug'ullaning: Agar bola bilan shug'ullanishdan oldin bitta malakani o'zlashtirishdan boshqasiga xarakatlanishingiz zarur bo'lgan mashg'ulotlar rejasini tuzib olsangiz, juda foydali bo'ladi.

Bola bilan muntazam shug'ullanish muxim, bu unga ilgarilab xarakatlanishda, bizga esa natijalarni kuzatish va keyingi kadamni rejalashtirishda yordamlashadi. Bola bilan xar kuni va bir vaqtda o'ynash kerakli xarakatlarni takrorlashga, uning o'yinchoklari va o'quv materiallari, kiyimlarini bir joyga qo'yishga intiling. Bolalarning rivojlanishida ularning dunyosi turg'un ekanligi va kattalar unga olg'a borishida ishonch bilan xamda xayrixox tarzda yordam berishlarini xis kilish va tushunishni ko'maklashadi. Boshqalardan farqli bola bilan mashg'ulotlarda takrorlash va qunt matonat chindan xam zarurdir. Bolaning tushunishi va javob qaytarishiga erishish uchun, extimol, sizga bir so'zni yoki bir xarakatni qayta, qaytq va yana qayta takrorlashga to'g'ri keladi, biroq ertami, kechmi siznin qat'iyatliligingiz o'z mevasini beradi.

Qadam baqadam xarakat qiling: Bolaga yangi malakalarni o'zlashtirish agar o'zlashtirish bosqichma- bosqich, katta bo'lmagan qadamlar bilan sodir etilsa oson bo'ladi. Bolani faoliyatning yangi turiga bir usulda o'rgatishga xarakat qilmaslik lozim. Masalan, agar siz bolani qoshiq bilan ovqat yeyishga o'rgatmoqchi bo'lsangiz, buni ovqatni qoshiqqa olishni o'rgatishdan boshlang. Keyin bola qoshiqni og'ziga olib borishni o'rganadi va u qachonki buni uddalasa, uni taomning yangi porsiyasi uchun qoshiqni tarelkaga tushirishni o'rgating. Yangi ko'nikmagan o'rgatishni boshlaganda oddiy va oson vazifalardan foydalaning, keyin esa sekin-astalik bilan ularning murakkablik darajasini oshiring.

Barcha tuyg'u organlarini ishga soling: Boshqalardan farqli bola bilan shug'ullanib, uni parvarishlagancha undagi barcha tuyg'u organlari - ko'rish, eshitish, sezish, xid bilishni eng yuqori darajada ishga solish juda muxim.

“Eshitaman, ko‘raman, bajara olaman” tamoyilidan kelib chiqing. Bolaga, masalan, mevalar xakida gapirib bera turib, unga xaqiqiy mevalarni ko‘rsating, ushlab ko‘rishi uchun qo‘liga tutqazing, xidlab ko‘rsin, ular bilan o‘ynasin va tatib ko‘rsin. Bolani yangi malakaga o‘rgata turib, uning xarakatlarini o‘z qo‘lingiz bilan yo‘naltiring. Bolani kundalik parvarishi davomida, ya‘ni uni ovqatlantirish, chumiltirish, sochlarini tarash, kiyintirish vaqtida nimalar qilayotganingizni bolaga so‘zlab bering, kundalik xayot predmetlarini ko‘rsating va ularni o‘zingizda xarakatlantirib namoyish qiling, shunda bolada ularni tashqaridan ko‘rish imkoniyati bo‘ladi. Bolani parvarishlash va u bilan mashg‘ulotlar olib borish vaqtida shunday joylashingki, bola sizning yuzingizni ko‘rib tursin.

Mashg‘ulotlarni o‘yin tarzida o‘tkazing:

Mashg‘ulotni bola va o‘zingiz lazzat oladigan o‘yinga aylantiring - bu ta‘limning eng yaxshi usulidir. Bolani nima qiziqtirishini, unga kanday faoliyat yokishini izlang. Murakkab o‘yinchoklardan foydalanishga intilmang, ular bolalarga ko‘p xam yoqavermaydi va rivojlanishni yomon rag‘batlantiradi. E‘tiborni tortish uchun bir joydan boshqa joyga ko‘chirish oson bo‘ladigan oddiy, biroq yorqin, ovoz chiqaruvchi o‘yinchoqlar va predmetlardan foydalangan ma‘qul. Mashg‘ulotlar davomida imkoni boricha, xarakatli o‘yinlar, she‘r va qo‘shiqdardan foydalaning va tez-tez emas, vaqti-vaqti bilan o‘yinchoklarni almashtiring, mashg‘ulot usullarini xilma - xil kiling.

Bolani maqtang va rag‘batlantiring:

Boshqalardan farqli bolaga boshqalarga qaraganda ko‘p narsalar qiyinchilik tug‘diradi, shuningdek, ular xar doim xam kattalarning maqtovi xamda ma‘qullashlarini anglash va tushunishga kodir bo‘lavermayilar. Shuning uchun o‘z ma‘qullashingiz va taxsiningizni tez-tez, aniq va dona-dona qilib ifodalang. Bolani ortiqcha maqtab yuborishdan cho‘chimang!

Maqtovnini shunday ifodalash zarurki, bola aynan u nimani uddalaganini tushunsin. Masalan: “Paxlavonim, sen o‘zing qoshiqni maxkam tutib turipsan!” Yoki “Doiralarni to‘ppa to‘g‘ri chizibsanki!” Agar xatto bola vazifaning bir qismini bajargan, keyin esa o‘zingiz yordamlashgan bo‘lsangiz- da, albatta, uning mustaqil xarakatlarini ta‘kidlang. Bolani nafaqat u nimanidir uddalaganida, balki xatto xarakat kilganida xam maqtash darkor. Agar bola xozircha xech nimani uddalay olmasada, uni koyish kerak emas. Og‘zaki ma‘qullash va maqtovdan tashqari, bolani erkalab quchoqlashingiz va o‘pishingiz (biroq bu untga yoksagina) mumkin. Mukofot sifatida, eng yaxshisi, bolaga sevimli o‘yini o‘ynash yoki sevimli ishi bilan shug‘ullanishga imkon bering.

Optimizmni saklang: Boshqalardan farqli bolalarning ota-onalariga taslim bo‘lmaslik, yaxshi bo‘lishiga umidini so‘ndirmaslik uchun bir talay chidam, ishonch va muxabbat kerak. Optimizmni saklang - bu siz va farzandingizga yordam beradi. Xar doim yodda tuting, xar qanday ta‘lim, agar u xatto tuo‘g‘idan- to‘g‘ri natija bermasada, bolani rivojlantiradi va uning imkoniyatlarini oshiradi. Siz sarflagan vaqt va kuch, albatta, o‘z natijasini berishiga ishonning. Mayli xatto ular siz kutganchalik bo‘lmasa-da, biroq asosiysi siz farzandingizga uddaburon, mustaqil yoki shunchaki kerak va sevimli ekanligida baxtli bo‘lishiga yordamlashdingiz.

Bola bilan shug'ullanganda nimalarni yodda tutish muximligi xaqida: Mashg'ulotlar samarali o'tishi va o'ta zerikarli bo'lmasligi uchun bola bilan shug'ullanishni boshlashdan avval buning uchun xamma shartlarga rioya qilinganiga ishonch xosil kiling. Bola bilan qachonki u sog'lom va kuvvatli bo'lganida, charchamagan, ochiqmaganida va sizda mashg'ulot uchun vaqt, kuch xamda istak bo'lganida shug'ullaning. Sizni tashqi ishlar chalg'itmaydigan va xech kim xalaqit qilmaydigan vaqtni tanlang.

Mashg'ulot uchun to'g'ri sharoit: Mashg'ulot boshlashdan oldin begona shovqinlarning barcha manbalarini o'chiring va chalg'ituvchi predmetlarni olib qo'ying.

Mashg'ulot paytida bolani qulay joylashtirish

Ko'pgina bolalar polda yoki oddiy stol ortida o'tirgancha diqqatni oson jamlaydilar va bajonidil o'ynaydilar. Biroq agar farzandingizda jismoniy muammolar bo'lsa, mashg'ulot vaqtida uning joylashuvini o'ylab ko'rish darkor. Bola turgan xolat qulay bo'lishi va bir vaqtning o'zida unga e'tiborini jamlashga yordamlashishi darkor. Bola pozitsiyasini vaqti-vaqti bilan o'zgartirish unga charchamasligi va turli guruxdagi muskullarni xarakatga keltirishda yordamlashishini yodda tutish muxim. Agar zarur bo'lsa, bolaning yaxshi joylashishi uchun maxsus moslamalardan, albatta, foydalaning.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ilk yoshdagi bolaning rivojlanishiga ta'sir etish yo'llarini ta'riflang?.
2. Bola bilan shug'ullanishda ruxiy va xissiyotning o'rni xaqida gapiring?.
3. Mashg'ulotlarni o'tkazishda o'yinning ahamiyatini yoritib bering.
4. Mashg'ulotni o'tkazishga qo'yiladigan talablar?

Asosiy adabiyotlar:

1. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil. 6-15 betlar.
2. Mo'minova L., Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey perviix let jizni. T.: RSSAD, 2007g.3-17 str.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Levchenko I.E., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika.-M.: "ASAMEDIA", 2005.127-138 str.

Mavzu: Abilitatsiya va reabilitatsiyaning mohiyati va ahamiyati

Reja:

1. Abilitatsiya xaqida tushuncha.
2. Reabilitatsiya xaqida tushuncha.
3. Yaqinlik tuygʻusining rivojlanishi xaqida Dj.Boulbining 4 ta fikrlari.

Tayanch soʻzlar: abilitatsiya, reabilitatsiya, fikr, goʻdaklik davri, Moro reflekslari.

Abilitatsiya

Bolada avval shakllanmagan yoki buzilgan, rivojlanishi sustlashgan funksiyalarni rivojlantirish, rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolaning hayot faoliyatidagi faollik, jamiyat hayotida ishtirok etishning cheklanishini oldini olish.

1936 yili ingliz psixologi Djon Boulbi bolalar uylarida tarbiyalanuvchi bolalardagi buzilishlar bilan qiziqdi. U bolalar uylari va yetimxonalarda oʻsayotgan bolalar koʻpincha atrofdagilar bilan yaqin va uzoq muddatli munosabat boʻla olmasliklari turli buzilishlardan azoblanishlarini taʼkidlaydi. Shunga oʻxshash simptomlar bir qancha muddat meʼyoriy oilada usayotgan, keyin uzoq muddatga ota-onasidan ajratilgan bolalarda xam kuzatilgan. Koʻrinadiki, bu bolalar shunchalik larzaga tushganlarki, qalin insoniy aloqalardan butunlay voz kechganlar. Bolaning rivojlanishini “ona - bola” aloqalariga jiddiy eʼtibor ajratmay turib tushunish mumkin emas. Bu aloqa qanday shakllanadi? Nima sababdan uning buzilishi bola rivojlanishi uchun jiddiy oqibatlariga olib keladi?

Rivojlanish uchun eng muxim shartlardan biri - bu uni sevgan yaqinlari muxitidir. Qachonki biz atrofimizdagi yaqin odamlarimiz istalgan daqiqada bizni qoʻllab-quvvatlashga, yordam koʻrsatishga tayyor ekanliklari va bizni qanday boʻlsak shundayligimizcha qabul qilishlarini bilsak oʻzimizni xavfsiz xis qilamiz, fakat shunday sharoitda biz tevarak-atrofnı bilishga va oʻz qobiliyatimizni rivojlantirishga diqqatni jamlaymiz. Agar inson oʻzini sevishlariga ishonch xosil qilmas ekan, oʻzining bor vaqtini oʻzi va boshqalarga sevishlariga munosib ekanini isbotlash uchun sarflaydi. Bu vaziyatda katʼiy axlok, ijod va oʻz-oʻzini yuzaga chiqarish, shubxasiz, uygʻunlashgan rivojlanish uchun vaqt oz qoladi. Yaqin odamlar oʻrtasidagi munosabatlar asosida yotadigan muxabbat tuygʻusi bola xayotining dastlabki daqiqalaridan boshlab shakllanadi. Mexr-muxabbatning ilk koʻrinishlari bola nimagadir muxtoj sezganida onaning daxldorligi xisoblanadi. Ota-ona bola extiyojlarini qondirgancha unga goʻdakka yordam zarur boʻlganida u bu yordamni yaqin odamlaridan olishi mumkinligini tushunishga koʻmaklashadi. Qachonki bola ota-onaning qoʻlida turganida uni ovqatlantirish ular oʻrtasidagi muloqotning muhim akti xisoblanadi. Bu bolaga shunchaki ozuqaga boʻlgan extiyojini qondirishni emas, balki uning rivojlanishida asos boʻluvchi qator ijobiy tuygʻular majmuini olish imkonini beradi. Djon Boulbi mexr-muxabbat tuygʻusi insoniyat tomonidan kichik bolalarga yashash va xavfsizlikni taʼminladi, deb xisoblaydi. Yirtqich xayvonlarga yem boʻlmaslik va ota-onasidan ortda qolmasli uchun) bolalar kattalar yakınida boʻlishlari zarur boʻlgan. Xar safar goʻdakka nimadir xavf solganda u bu xavdan ota-onasiga xabar bergan. Shunday kilib, odamlar axloqida dastlabki “bogʻlovchi” xarakatlar mustaxkamlangan: goʻdakning

yig'isi, jilmayishi, gu-gulashi, emishi, osilishi kattalar orasidan ergashish. Aynan shuning uchun bola rivojlanishi soxasidagi zamonaviy mutassislar bolaning yig'isini e'tiborsiz qoldirmaslikni va bola xamda kattalarning o'zaro xarakatidagi barcha shakllarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni qat'iy tavsiya etadilar, chunki ular yaqinlik tuyg'usining rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Yaqinlik tuyg'usining rivojlanishini Dj.Boulbi fikriga ko'ra 4 davrga ajratish mumkin:

1-davr (tug'ilgan laxzasidan boshlab 3 oylikkacha). Bu bosqich yaxshi-yomonning farqiga bormaydigan yaqinlik tuyg'usi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda go'dak faqat o'zining nigoxi tushgan predmetlarni farqlashga o'rganadi. Barcha ob'ektlar ichida go'dak uchun eng jozibalisi agar xatto u shunchaki tasvirlangan bo'lsa, inson ovozinig tovushi bo'lsa xam inson qiyofasi xisoblanadi. Go'dak taxminan uch xaftaligidayok odamlar ovozinig tovushiga jilmayishni boshlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, go'daklar tug'ilgan zaxotiy oq nasining ovozinig tanib oladilar. Go'dak tushida jilmayishi mumkin, biroq, bu jilmayish "ijtimoiy" jilmayish deb xisoblanmaydi, chunki u insonga yo'naltirilmagan bo'ladi. 5-6 xaftalik go'dak xar bir inson chexrasiga jilmayib qaray boshlaydi. Taxminan shu yoshida unda boshqa mexr qo'yadigan xarakat - gu-gulash rivojlanadi. Go'dakda tug'ilgan laxzadanoq ikkita muxim tugma refleksi yoki "tutib turuvchi reaksiyalar" namoyon bo'ladi- ushlab olish refleksi (agar bolaning kafti kanda ydir predmetga tegib ketsa, u refleksiv tarzda shu predmetni siqib oladi) va **Moro refleksi** (to'satdan yuz beradigan tovush yoki xarakatda, qachonki go'dak tayanchni yo'qotib qo'ysa, avval qo'llarini cho'zadi, keyin esa ularni ko'ksiga chalishtiradi, g uyoki o'z ko'kragini quchoqlagande! Dj.Boulbi uzoq o'tmishda bu reflekslar bolaga uni o'zida ko'tarib yurgan ota-onasiga yopishib turishiga yordamlashgan, deb xisoblaydi. Kattalaning tez odimlashi yoki yugurganida bola yiqilib tushmaslik uchun unga kuchliroq yopishib oladi. Bundan tashqari, go'daklarda surish va izlash refleksi mavjud.

2-davr (3 oylikdan 6 oylikkacha)

Bu davrda go'dak diqqatini yaqin odamlariga jamlashni boshlaydi, ba'zi reflekslar esa yo'qoladi: Moro refleksi, yopishib olish va izlash refleksi. Bola endi atrofdagi odamlardan ko'pincha u bilan vaqtini o'tkazilgan va parvarishlaydigan ikki-uchtasini ajrata boshlaydi. Shu odam (yo bir necha yaqin odamlar) ning paydo bo'lishiga u jilmayish bilan reaksiya qiladi. Notanish odam paydo bo'lganida esa go'dak uni diqqat bilan ko'zdan kechira boshlaydi. Bu davrda go'daklar, ayniqsa, yaqin odamlarni ko'rishlari bilan faol gu-gulaydilar va bijir lay boshlaydilar. Odatda, bunda istalgan ob'ekt ularning onalari bo'ladi. Biroq Dj. Boulbi ta'kidlaganidek, istisnalar xam bo'lib turadi. Go'daklar o'z atroflaridagi "ularning chaqiruviga katta tayyorgarlik bilan javob qiladigan" odamlarga faol reaksiya kiladilar.

3-davr (6 oylikdan 3 yoshgacha)

Bu davr Dj. Boulbi xisoblaganidek, yaqinlik tuyg'usining shakllanishi uchun eng axamiyatli xisoblanadi. U "jadal mexr-muxabbat va yaqinlikni faol izlash" bilan xarakterlanadi. Taxminan 6 oyligidan boshlab go'dakning muayyan odamga yaqinlik tuyg'usi xiyla jadal va istisnoviy bo'ladi. Bir muncha diqqatga sazovori shuki, go'daklar onasi xonani tark etayotganida ayrilik xavotirini namoyish

qilgancha qattiq yig'laydilar. Avval ular o'zlariga qaragan xar qanday odamning ketishiga qarshi e'tiroz bildirgan bo'lsalar, endilikda esa asosiy tarzda bu yagona insonning yo'qligi ularni ranjitadi. Kuzatuvchilar go'dakning onasini bir muncha vaqtdan keyin qaytishini olqishlashidagi jadallikni xam ta'kidlaydilar. Qachonki onasi qaytganida go'dak, odatda uni quchoqlaydi va quvonchli tovushlar chiqaradi. Ona xam birlashuvdan o'zining lazzatlanayotganini namoyish qiladi. Onasining yonida bo'lish istagi turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Bola ulg'aya borgan sari, undagi yaqinlik tuyg'usi yaxshiroq shakllana borgan sari uning axlokida atrof olamni tadqiq etishga intilish shuncha ko'prok yuzaga chiqadi. Biroq agar u charchasa yoki kasal bo'lsa, onasi bilan kolish extiyoji tadqiq etish extiyojidan ustunlik qiladi. Mana nima uchun biz nogironligi bo'lgan bola xaqida gapirganimizda yaqinlik tuyg'usining tushunchasi aloxida ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy ahamiyatlilik va sevuvchi doyra tomonidan qabul kilinish tuyg'usi bolaning kungildagidek rivojlanishi uchun muxim asos xisoblanadi.

4-davr 4 (3 yoshdan bolalikning oxirigacha): sherikchilik axloki.

2-3 yoshgacha bolalarni ularning vasiyga muayyan yaqinlikda bulish, shaxsiy extiyojlarigina tashvishga soladi, ular xali vasiyning rejalg va maksadlarini inobatga olmaydilar. 2 yoshli gudadak otasi yoki onasin] "kushninikiga sut surash uchun bir dakikaga chikishlari" xech nimani a latmaydi, bola shunchaki ular bilan birga borishni istaydi. Uch yoshli b< bunga uxshash rejalar xakida ba'zi tushunchaga ega va ota-onasi yuklip ularning axlokini xayolan tasavvur kilishi mumkin. Tegishli raviv bola ota-onasining ketishiga bajonidil imkon beradi. Bola munosas larda kuprok sherik sifatida xarakat kila boshlaydi. Dj.Boulbi yaqinlikning to'rtinchi davri xakida ko'p narsa muxim emasligini va yaqinlik tuyg'usi xaqida qolgan xayoti davomida kamroq fikr bildirganini tan oladi. Shu bilan birga, u aynan shu davr juda muxim rol uynashini anglaydi. O'smirlar ota-onalarining ustunligidan qutuladilar, biroq ular ota-onalari bilan o'zini bosuvchi shaxslarga mexr-muxabbat shakllanadi.

Pedagogik reabilitatsiya maxsus ta'lim va tarbiya jarayonida, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik qo'llab quvvatlash jarayonida amalga oshiriladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlar maxsus ta'limi tizimiga maktabgacha, umumiy va kasbiy ta'lim kiradi, bunda imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun maxsus sharoitlar yaratiladi.

Kompleks reabilitatsion tadbirlar pedagogik va ijtimoiy qarovsizlikni bartaraf etish, kasbga to'g'ri yo'naltirish rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarning intellektual, sensor, nutqiy, shaxsiy xususiyatlarni, imkoniyatlarini xisobga olib o'tkaziladi, bu ularning xayotga moslashishiga shart-sharoitlar yaratadi (**ijtimoiy reabilitatsiya**)

Ijtimoiy, tibbiy, psixologo-pedagogik reabilitatsiya faoliyati tizimli, doimiy va izchil bo'lishi kerak va reabilitatsion ishlarning asosiy prinsiplariga tayanishi kerak:

-ketma-ketlilik prinsipi reabilitatsiya ishini doimiy intensiv o'sishda olib borishni, bir reabilitatsiya turidan boshqasiga o'tish imkonini beradi;

-dialektika birligi prinsipi faqatgina izchillik uchun emas, balki bir vaqtning o'zida tibbiy, ijtimoiy, psixologo-pedagogik reabilitatsiyani birga olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

-Har tomonlamalik prinsipi reabilitatsiya jarayonining ko'p yo'nalishligini xisobga oladi, oilaviy-turmush, madaniy-oqartuv, kasbiy va reabilitatsion ishlarning boshqa soxalarini birga qo'shib olib borishni xisobga oladi;

-Hamkorlik prinsipi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola yoki o'smirni faol korreksion reabilitatsion jarayonga jalb qilishni, uning ijtimoiy psixologik xolatini tiklash va jamiyatga integratsiyalash maqsadida uni ob'ektdan reabilitatsiya sub'ektiga aylantirishni nazarda tutadi.

Korreksion pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri- bolalarda nuqsonni korreksiyalashdan, ularning tibbiy-psixologo-pedagogik reabilitatsiyaga o'tish va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni ularning ruxiy va jismoniy imkoniyatlari darajasini xisobga olib ijtimoiy xayotga moslashtirish xisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy adaptatsiya nuqtai nazaridan eng muammoli guruxlardan biri xisoblanadi. Ularning moslashish imkoniyatlari ruxiy va jismoniy sog'lig'idagi kamchiliklar natijasida, ijtimoiy tajribaning cheklanganligi, ba'zida esa yomon oilaviy-iqtisodiy vaziyat natijasida pasaygan bo'ladi.

Zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning insonparvarlik qadriyatlari rivojlanishida nuqsoni bo'lgan xar bir bolaga yaxshi xayot kechirishi imkoniyatini berishini talab qiladi. Bu yo'ldagi to'siqlardan biri ijtimoiy moslashishdagi qiyinchiliklar xisoblanadi, qaysiki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan xar bir bola buni boshidan kechiradi. Bolalarda nogironlik adaptatsiya mexanizmining shakllanishi va adaptatsiya jarayonining borishini qiyinlashtiradigan omil bo'lib xisoblanadi. N.I.Xvorost'yanovanning (2001) ta'kidlashicha, nogiron bolaning moslashish imkoniyatlari quyidagi xolatlarni susaytiradi:

1. Jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklar. Nogiron bolalar to'g'ridan-to'g'ri ularning nogironligiga bog'liq bo'lmagan kasalliklar bilan kasallanadi. Jismoniy sog'liqning kamchiligi (nutqning, eshitishning, umumiy motorikaning buzilishi) muloqot uchun jismoniy imkoniyatlarni cheklaydi.

2. Muloqot uchun psixologik imkoniyatlarning yetishmasligi. Yopiq muassasa sharoitida yoki yomon oilaviy sharoitda tarbiyalanadi, uyda o'qitish, tengdoshlarining extiyotkorona munosabati, kattalar tomonidan mulozamatlar bolalar shaxsiyatining ruxiy va ijtimoiy infantil bo'lib shakllanishiga imkon beradi.

3. Nogiron bolalarning maxsus extiyojlarini qondirish uchun kerakli moddiy vositalarning yetishmasligi (eshitish apparati, maxsus moslamalar) shuningdek jamiyatning arxitektura va psixologik bar'arlari nogiron bolaning ijtimoiy moslashish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Nogiron bolalarning o'zlarining yoshlariga mos faoliyatda (o'yin, o'qish, mexnat, kommunikativ) qatnashish imkoniyatlarining cheklanganligi bolani ijtimoiy adaptatsiya bazasidan maxrum qiladi. Ota-onalar va jamiyat bunday bolalarning adaptatsiya xolatlarida qatnashishlaridan saqlashga xarakat qiladi, bu

esa adaptatsiya mexanizmining shakllanishi va mustaxkamlanishiga imkon bermaydi va bola shaxsiyatining rivojlanishini to'xtatadi.

Turli xil psixologik nuqsonlar va buzilishlar-mustaqillikning cheklanganligi, o'zining yoshiga mos biron-bir faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatining buzilishi-bularning barchasi to'g'ridan-to'g'ri va bevosita nogiron bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasini va jamiyatga integratsiyalashuvini qiyinlashtiradi. Bunday kategoriyadagi bolalar ijtimoiy adaptatsiyasining o'ziga xosligi ularda ijtimoiy yetishmovchilikning mavjudligi bilan bog'liq. Ijtimoiy muxitga moslashishi uchun faoliyat turlarini egallash imkonining yo'qligi, ijtimoiy rol, xulq-atvor normalari va qoidalarini egallash imkonining yo'qligi kabi xolatlar ijtimoiy yetishmovchilik xolatini yuzaga keltiradi, bu esa nogiron bolaning ijtimoiy kamchiliklarining asosiy sabablaridan xisoblanadi.

Ijtimoiy yetishmovchilik tushunchasiga quyidagilar kiradi:

- o'z-o'ziga xizmat qilish qobiliyatining cheklanganligi;
- Jismoniy mustaqillikning cheklanganligi ;
- O'zini jamiyatda adekvat tutish qobiliyatining cheklanganligi ;
- Yoshiga mos faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatining cheklanganligi;
- Iqtisodiy mustaqillikni cheklanganligi;
- Kasbiy faoliyatga qobiliyatining cheklanganligi;
- Jamiyatda interatsiyalashish qobiliyatining cheklanganligi;

N.I.Xvorost'yanova insonning adaptiv potensialini ijtimoiy xayotning o'zgarib turadigan sharoitlarga moslashishga yordam beradigan jismoniy ruxiy imkoniyatlarining majmui sifatida, aqliy va kommunikativ qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar, ijtimoiy bilim va ko'nikmalarning majmui sifatida ajratib ko'rsatib beradi.

N.I.Xvorost'yanovanning fikricha, bolaning adaptiv potentsiali quyidagilarga bog'liq:

- bolaning jismoniy va ruxiy sog'lig'i;
- atrof-muhitga, boshqa odamlar va o'ziga adekvat munosabatda bo'lish qobiliyatining shakllanganligi;
- adaptatsiya tajribasi va muvaffaqiyati;
- bolada adaptatsiya xavfsizligi zonasining bo'lishiga, bola o'zi moslashgan kichik muhitning bo'lishiga bog'liq. Aniqlanishicha, o'zlarining oilaviy sharoitiga yaxshi moslashgan bolalar bog'chaga borishni yengil boshidan kechiradilar.

Adaptiv potentsial juda ham o'zgaruvchan, u biologik sabablar

(sog'liqning holati, yoshi), shuningdek ijtimoiy sabablar (oilaviy va ijtimoiy muxitning adaptatsiya tajribasi va muvaffaqiyati) tufayli o'zgarishi mumkin. Maxsus o'tkazilgan tadqiqod natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, adaptiv o'zgarishlar sog'lom va nogiron bolalar xulqida o'xshash, xar ikkala holatda ham ko'proq bolalarning faolligi buziladi, ikkinchi o'rinda muloqatga kirishish, keyin esa kayfiyat va o'zini his qilish ko'rsatkichlari buziladi. Shu tarzda nogiron bolalar adaptatsiyasi sog'lom bolalar adaptatsiyasidan kelib chiqadi, ya'ni umumiy adaptatsiya mexanizmi ramkasida bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Abilitatsiya xaqida tushuncha bering?
2. Reabilitatsiya xaqida tushuncha bering?

3. Yaqinlik tuygʻusining rivojlanishi xaqida Dj.Boulbi fikrining 1bosqichi xaqida gapiring?

4. Yaqinlik tuygʻusining rivojlanishi xaqida Dj.Boulbi fikrining 2 bosqichi xaqida gapiring?

5. Yaqinlik tuygʻusining rivojlanishi xaqida Dj.Boulbi fikrining 3 bosqichi xaqida gapiring?

6. Yaqinlik tuygʻusining rivojlanishi xaqida Dj.Boulbi fikrining 4 bosqichi xaqida gapiring?

Adabiyotlar:

1. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil. 6-15 betlar.

2. Moʻminova L., Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey perviix let jizni. T.: RSSAD, 2007g.3-17 str.

3. Levchenko I.E., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika.-M.: "ASAMEDIA", 2005.127-138 str.

Mavzu: Meyorida rivojlanayotgan bolalarning go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshida psixik va jismoniy, nutqiy rivojlanish qonuniyatlari

Reja:

1. Me'yorda rivojlangan bolaning go'daklik yoshida nutqiy rivojlanishning o'ziga xosligi.
2. Me'yorda rivojlangan bolaning go'daklik yoshida psixik rivojlanishning o'ziga xosligi.
3. Me'yorda rivojlangan bolaning go'daklik yoshida jismoniy rivojlanishning o'ziga xosligi.

Tayanch so'zlar: go'daklik davr, shaxs, nutq, ruhiyat, jismoniy rivojlanish.

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda ma'suliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgandir. Insonning ijtimoiy barkamolligi uning atrof dunyoga qanday moslashganligi, jamiyatda o'zini qanday his etishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Inson jamiyatda o'zini to'laqonli his etish uchun unda o'zining imkoniyatlarini anglashi va ularni qo'llay olish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi zarur. Ta'limning hozirgi vaqtdagi muhim vazifalaridan biri bo'lgan bolani har tomonlama rivojlantirish masalasi bu maqsadga erishishning samarali yo'llarini izlashni talab qiladi. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, bartaraf etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni erta koreksiyalash butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham maxsus pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtga kelib bolaning rivojlanishidagi keyingi bosqichlar- maktabgacha va maktab yoshlari pedagogik, psixologik jihatdan yaxshi o'rganilgan, turli xil nuqsonli bolalarni tarbiyalashning maktabgacha va maktab davri tizimi yaratilgan. Tug'ilgandan to 3 yoshgacha bo'lgan davr esa asosan shifokorlarning diqqatini qaratgan. Shifokorlarni esa eng avvalo bolalarning sog'lig'i, jismoniy rivojlanishi qiziqtirad.

Ilk maktabgacha yoshdagi nutqsiz bolalar bilan ishlar mazmuni va uni tashkil etish muammolari N.A.Rau, Ye.F.Rau, B.D.Korsunskaya, E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova, N.D.Shmatko ishlarida o'rganilgan. Bu tadqiqotlarda qator tavsiyalarni ko'rsatish mumkinki, ular bilan tanishish go'daklik va ilk maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlarni tashkil qilishda prinsipial ahamiyatga ega.

Mutaxassislar boladagi nutq kamchiliklarining kelib chiqish sabablari, oilada ota-onadagi kamchiliklar, boladagi nutq kamchiligini keltirib chiqishdagi sababalar, eshitishning me'yorda ekanligi xaqida fikr yuritdilar. Bu nazorat bola hayotining birinchi oylaridayoq tovushlarga reaksiyasiga diqqat bilan munosabatda bo'lish, nutqiy reaksiyalarga, g'o'ldirash, pichirlash xarakteriga e'tiborni jalb qilishni ko'zda

tutadi. Go‘dakning eshitishi pasayganiga shubha uyg‘onsa, vrach — surdologga murojaat etish zarur.

Nutq malakalarining rivojlanishi

1-oylik davri 1-ovozli reaksiya – yig‘i va chinqirish chaqaloqlarda tug‘ilgandan paydo bo‘ladi. Albatta, bu xali nutq emas, yani turli tovushlarni chiqarish bilan chaqaloq o‘zining tili, lablari va ovoz boylamlarini mashq qildiradi. Gapirish vaqti kelganda (miya rivojlanganda, koordinatsiyasi yaxshilanganda) butun nutq apparati ishga tayyor bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, u inson nutqini eshitish va tushunishni o‘rganib borar ekan. Chaqaloqlar nafaqat tovushlarni eshitibgina qolmasdan, balki butun tovushlar ichidan inson ovozin ajratib oladi, bu esa nutq rivojlanshining ilk belgilaridir.

2 oylikka yaqinlashgach chaqaloq gugulashni boshlaydi. Chaqaloq ilk tovushlarni talaffuz etishni boshlaydi: g-k, k-x. Sog‘lom chaqaloq gugulash davrida ko‘p tovushlarni talaffuz qilishi kerak. Masalan: a-a-a, a-gu, bu, bum, ma, am, bf. Agar chaqaloqda tinch holat kuzatilsa, u holda chaqaloqda birinchi tovushlarning chiqishi sekinlashadi va nutqning rivojlanishi kechikadi. Bu davrda chaqaloq ovozli o‘yinchoqlardan zavqlanadi. Ba‘zan chaqaloqlar o‘zlarining nutqlarini musiqaga mos ravishda balanda, past qilib o‘zgartirishlari mumkin. Nutqdagi har bir unli va undosh tovushlarni seza olish bola uchun alohida ahamiyatga egadir.

3 oylik chaqaloq tovush kelayotgan tomonni to‘la ishonch bilan izlanishni boshlaydi. Endilikda u nafaqat unga murojaat qilingan ota-onasi nigohini topa oladi, balki o‘zaro gaplashayotgan kattalarning tomoniga boshi bilan qayrilib kuladi. Mana shu paytdan boshlab chaqaloqning atrof-olam bilan aloqasi sezilarli darajada kengayar ekan. Uyg‘ok xolatdagi chakalok kizikish bilan tashki olamning turli ovoz va shovkinlarini tinglab, unga turli xil reagirovat‘ kiladi. Baland yokimsiz tovushlar odatda chakalokni kurkitib, uni chuchitadi, ba‘zan esa iyg‘lashni boshlaydi. Xushchakchak musikali instrumentlarning ovoziga, odam ovoziga, chakalok juda katta kizikish, diqqatlik bilan tinglaydi va kuvonadi.

4 oylik chaqaloq uzoq davomli gugulaydi. Gugulashning gallagan davri bu xayotning 4 6 oyligidir. Ana shu davrda chaqaloq to‘liq o‘z ona tilisining emotsional ifodali vokalizmi spesifikasining tuzilishini egallaydi. (unli tovushlarga pozitsion allofonlar) (undosh tovushlarga kombinator allofonlar) . Unli tovushlarning tembri pozitsion allofonlar tariqasida ona tilini o‘rganish uchun moslashgan bo‘ladi. Ona tilisining unli allofonlarining fomat oblastlarini bioishga o‘rganish, chaqaloq artikulyator xarakatli tomonlari bilan differensatsiyalashga ajratishga o‘tadi. 4 o‘ylikdan boshlab eng katta yangiligi bu uning kattalar bilan ona tilisida muloqot o‘rnatishidadir. Odatda 4 o‘ylik chaqaloqda g‘udurlash boshlanadi . Oddiy tushunarsiz bo‘g‘inlar takrorlanaveradi. Chaqaloq joni bilan “ ma”, “xa”, va boshqa bo‘g‘inlarni takrorlaydilar.

5-7 oylikda Oldingi malakalariga asoslangan holda chaqaloq insonlarni, predmetlarni tanlaydi, va ularga turli xil munosabatda bo‘ladi. Undan tashqari kattalarning mimikasini ovozini va ba‘zi bir harakat amallarini farqlashni boshlaydi. Bularning hammasi nutqni tushunish uchun poydevor bo‘la oladi. 5 oylikka kelib unda turli xil intonatsiyalardagi musiqali gugulash namoyon bo‘ladi. U endi tez-tez va uzoq gugulaydi: u bilan emotsional muloqotga javoban, erkin yotgan holatda:

o'yinchoqlarni ko'zdan kechiraytgan va boshqalar. Agarda chaqaloq kattalarni ovozini yoki o'zini ovozini eshitsa u holda uning gugulashi uzayadi, cho'ziladi, har xil bo'lib qoladi. Gugulashning rivojlanishi uchun chaqaloq o'zini yaxshi his qila olishi va uning holati ijobiy emotsional bo'lishi lozim.

8-9 oy nutqning rivojlanishi muhim hisoblanadi. 9 oydagi bolaga qarab gapiralganda uning tushunish qobiliyati kengayadi. Buuning xulqini, faoliyat xarakterini o'zgartiradi.

10-12 oylik bolada faol nutq shakllana boshlaydi, bola birinchi so'zlarini gapiradi. Nutqni tushuna boshlanishi predmetlar bilan harakat qilish murakkablashadi. 10-12 oyda bola kattalarning gapiga qarab harakatlarni bajarishga o'rganadi. Harakatlar turlicha bo'ladi va maqsadli xarakterga ega. Bolaning o'yinchoqlari soni ko'payadi; o'yin o'ynashga bo'lgan harakatlar seziladi. Bu davrning oxirida bola mustaqil ravishda vertikal xolatga turib yuradi.

Psixik malakalarning rivojlanishi:

1-2 oylik davri: Eshitish: Bu davrda chaqaloq tovushlarning kuchi va tembrini oson farqlay oladi. Masalan, 9-11 kunlik chaqaloq baland tovushlarga javoban yig'laydi lekin anglamaydi. Eshitish va anglashni 3-5 oyligidan boshlaydi. Baland tovush ta'sirida bola tinchlanadi (eshitish diqqatining reaksiyasi) 10-15 sekundga, undan tashqari o'yinchoq va kattalarning ovozini tinglaydi.

Ko'ruv idroki: Chaqaloq tug'ilgandan uzoqni ko'ra oladi. Chaqaloqning ko'ruv maydoni g'ira-shira tog'dek bo'ladi, lekin bu jarayon uzoq davom etmaydi, emizikli chaqaloq uni tiniqlashtirishga harakat qilar ekan. 10 kunlik yorug'likka uzoq tikilishi mumkin. Lekin bu yorug'lik uni bezovtalashni boshlaydi. Yangi tug'ilgan chaqaloq 20-25 sm uzoqlikda joylashgan predmetlarni, yaqinroq turgan predmetlarga qaraganda yaxshiroq anglaydi, chaqaloqqa predmetlarni 0,5 m masofagacha yaqin ko'rsatmaslik kerak, bo'lmasa chaqaloq predmetlarni yaxshiroq ko'raman deb g'ilaklashni boshlaydi. Bu davrdagi chaqaloq murakkab turdagi suratlarni ko'rishni afzalroq ko'radi. U juda ham inson yuz ifodalariga va kattalarning ko'zlariga diqqat, qiziqish bilan qaraydi. Chaqaloqlar insonlarning mukammal hissiy yuz ifodalarini ajrata olish qobiliyatlariga ega. Bir oylik davr davomida u o'ziga yaqin bo'lgan ob'ektlarga qarashni boshlar ekan. Miya faoliyatining tuzilishi tobora murakkablashib boradi. 3-4 haftalik chaqaloq yon atrofdagi harakatli va harakatsiz predmetlarga qiziqishi ortib uzoq tikiladi, biroq ko'ruv maydoni xali tor bo'ladi. Bu davrda chaqaloq ko'ruv diqqatini jamlash qobiliyatiga ega, shuning uchun harakatsiz predmetlarga diqqatini qarata oladi. Umumiy harakatlar tormoz holatda bo'ladi. Chaqaloq ilk davrda chalqancha yotgan holda bo'ladi, bu holatda u ko'zi bilan harakatlangan predmetlarga boshini burgan holda kuzatar ekan. Agar unga uzoq bo'lmagan masofadagi predmetlar sekinlik bilan harakatlantirilsa, u holda chaqaloq uni ko'zi bilan kuzata olish qobiliyatiga ega. Harakatlanayotgan predmet to'xtatilsa, chaqaloqdagi qiziqish yoqoladi.

Sezgi: Ilk yoshdagi bolalar uchun sezgi muhim ahamiyatga ega. Agar chafaloqqa tegilsa, u o'sha tarafga intiladi. Bu instinkt ona ko'kragini yoki shisha idishini topishga yordam beradi. Kaftiga tegilsa, u kattalarning barmog'ini yoki biror bir predmetni barmoqlari bilan siqib oladi. Asosan ularga tegizilgan joy

anglanmaydi, lekin uni his qila olishadi. Chaqaloq issiq-sovuqni sezish qobiliyatiga ega.

Eshitish: 3-4-oyligidan boshlab chaqaloqlar past tovushlarni tinglashni boshlar ekan, masalan, chaqaloq bilan past ovozda gaplashish yoki o'yinchoqni sekin qimirlatish natijasida chaqaloq yig'lashdan, qo'l-oyoqlarini harakatlantirib chinqirishdan to'xtashar ekan. Undan tashqari bu davrda chaqaloqlar ovoz chiqayotgan tomonga izlanish bilan boshini buradi.

Ko'ruv idroki: 4-haftalik chaqaloq 90o gorizontal holatdagi harakatlarini kuzatishni boshlar ekan. Vertikal holatdagi predmetlarni kuzatish esa qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. 6 haftaligidan boshlab ko'z olmalarining harakatlari kuzatuvchan bo'lib, ba'zan boshni burish bilan birga sodir bo'ladi. Ko'ruv reaksiyalari asosan chaqaloqning muloqotga kirishayotgan kattalarning nigohiga qarash jarayonida rivojlanar ekan. 2oyligining oxiriga kelib "predmetni kuzatish" kabi reaksiyasi to'liq rivojlanar ekan. O'yinchoqlarni kuzatish mobaynida u diqqatni jamlaydi, uning harakatlari tormozlanadi. 15-30 sekundgacha nigohini qarata olishi mumkin. Chaqaloqning nigohi turg'un, u diqqat bilan qaraydi. Nimaniki ko'rmasin, barcha narsalar uni hayron lol qoldiradi. Chaqaloq erkin holatda bo'lganida uni o'rab turgan atrofdagi odamlarga, qiziqarli predmetlarga qiziqish nigohi bilan faol kuzatar ekan. (chaqaloq ba'zi bir ranglarga e'tibor bermas ekan).

Sezgi: Bu davrda sezgi faol rivojlanar ekan: chaqaloq butun xohishi bilan o'zining oyoq-qo'llarini ushlab ko'rar ekan. Endilikda u bemalol nigohini o'z qo'llariga qarata olishi mumkin.

Eshitish: 5-6oylik chaqaloq tovush kelayotgan tomonni to'la ishonch bilan izlanishni boshlaydi. Endilikda u nafaqat unga murojaat qilingan ota-onasi nigohini topa oladi, balki o'zaro gaplashayotgan kattalarning tomoniga boshi bilan qayrilib kuladi. Mana shu paytdan boshlab chaqaloqning atrof-olam bilan aloqasi sezilarli darajada kengayar ekan. Uyg'ok xolatdagi chakalok kizikish bilan tashki olamning turli ovoz va shovkinlarini tinglab, unga turli xil reagirovat' kiladi. Baland yokimsiz tovushlar odatda chakalokni kurkitib, uni chuchitadi, ba'zan esa iyg'lashni boshlaydi. Xushchakchak musikali instrumentlarning ovozig, odam ovozig, chakalok juda katta kizikish, diqqatlik bilan tinglaydi va kuvonadi.

Ko'ruv idroki: Chaqaloq kattalar qulida, vertikal xolatda boshini 180o burgan xolda uyinchoqni 30-40 sekund davomida kuzata olishi mumkin. U xarakatsiz, xarakatli uyinchoq va predmetlarni faol kuzatishni boshdaydi. Lekin kuz koordinatsiyalarining xarakati xali sustdir. Ayniqsa xavoda oson, yengil xarakatlanayotgan predmetlar uni qiziqтира oladi. Muximi shundaki, o'yinchoq o'zida bir necha aniq, tushunarli detallarning bo'lishidadir. O'yinchoq orasidagi ideal masofa bu 30-50 sm dir. Ko'pincha ularga yumaloq predmetlar, ranglardan esa qizil rang yoqadi chunki xali ichki rivojlanish davridanoq bu rang ularga tanishdir. Bu yoshda ko'zning g'ilaylashuvi chaqaloqlarga xos bo'lgan holatdir. 3 oyligidan boshlab chaqaloq kattalar bilan muloqot o'rnatish uchun o'zi nigoxi bilan izlashni boshlaydi. U insonga uzoq, davomli diqqat bilan qaraydi va jilmayadi. Bu yoshda chaqaloqlar xech qanaqa qiyinchiliklarsiz oila azolarini taniy oladi.

Sezgi: Bu davrda qo'llarning harakati asosiy hisoblanadi. Bu davrda chaqaloq turli xil kattalikdagi predmetlarni o'rganishni boshlaydi. Ilgari ular predmetlarni nigohi bilan kuzatishgan bo'lsa endilikda esa, ular bu predmetlarni amaliy ravishda sezgilar orqali ularning og'irligi, ko'rinishi, formasini sensor tasavvurlari orqali yig'ar ekan. Ayniqsa mana shu tasavvur taassurotlar ularning atrof-olamni to'laqonli anglashga zamin yaratadi ekan.

Eshitish: 4 oylikka kelib chaqaloqning eshituv idroki kattalar bilan o'zaro munosabatiga kirishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U uzoq masofadan turib ham kattalarning ovozigina har xil tovushlar bilan javob beradi. Kattalarni bir vaqtning o'zida ham eshitib ham ko'rganida esa, kattalar ovozini diqqat bilan tinglashni, ovoz qaerdan chiqayotganini qidirishni, ko'zi bilan unga to'qnash kelganda esa, baland ovoz, va quvonchli qiyqiriqlar bilan javob bershni boshlaydi. 4 oylikda chaqaloq inson ovozini tinglashni boshlaydi, nutqiy tovushlar asosida muloqot yuzaga kela boshlaydi. Shu bilan birgalikda, kattalar bilan muloqot chaqaloq hoxishi bilan yuzaga keladi.

Ko'ruv idroki: Ko'pgina chaqaloqlarda 3-oylikkacha ko'z g'ilyaligi kuzatiladi, lekin 4 oylikka kelib u to'liq yo'qoladi. Mana shu vaqtda ko'z olmasining birlamchi rivojlanishi yakunlanadi. 4 oylik chaqaloq endilikda nafaqat ko'radi, balki ko'rgan narsalarga faol ta'sirini ko'rsatib, harakatlanadi. Predmetlarning formalarini, uning konturlarini va boshqa elementlarini qabul qila oladi. Ko'pgina ob'ektlarga mo'ljal olish uchun (harakat, aniqlik va boshqalar). Rang ajratishni boshlaydi. Chaqaloqda fazoviy mo'ljal olish rivojlanib boradi. Uni rivojlantirish uchun esa, uning atrofida doimo uni qiziqtiruvchi hayratlantiruvchi narsa va predmetlar bo'lishi kerak. Iloji boricha sharoitning bir xilligi, qiziqarsizlikdan xoli bo'lishi kerak. Chaqaloq dunyoni bir butunligi haqida to'liq tasavvurga ega. U insonlarni tovushi orqali ajratishi mumkin. Oldinga, orqaga, va yelkasidan yoniga qaray boshlaydi. Predmetlarga mana shunday uzoq davomli, xilma-xil ko'ruv diqqati bularning xammasi sog'lom psixofiziologik rivojlanishdan dalolat beradi. Ko'ruvning rivojlanishi chaqaloqga predmet va insonlarni sinchkovlik bilan o'rganishga va yodlab olishga yordam beradi. Bu davrda u ba'zi ranglarni ajratishni boshlaydi, o'zi yaxshi bilgan inson ko'rinishini o'zgarishiga reaksiya qila boshlaydi.

7-12 oylik-Eshitish: Chaqaloq o'ziga yaxshi bo'lgan insonlar – ovozini taniydi, gapirayotgan inson tomonga boshini burishi mumkin. Qachonki ona karavotda yotgan chaqaloq'iga shirin so'z aytsa u xali ko'zi ochilmasdan turib javoban jilmayadi. Musiqa tovushiga yig'idan to'xtar ekan.

Ko'ruv idroki: 5 oylik chaqaloq endilikda nafaqat yaqin insonlarini tanibgina qolmay, balki begona shaxslarga qiziqish bilan qaraydi. Shu davrdan boshlab chaqaloq inson yuzini to'liq butunligicha qabul qiladi. U yaqin insonlarni begonalardan ajratishni boshlaydi. Yangi chehrani ko'rishi bilan u qotib qoladi, yuzni qiziqish va diqqat bilan ko'zdan kechiradi. Undan tashqari u o'zining o'yinchoqlariga ko'proq vaqt ajratadi: u ularni juda yaxshi bir-biridan ajratib oladi, avval birinchisini, so'ngra ikkinchisini ko'zdan kechiradi. Bu davrdan boshlab chaqaloq predmetga ko'zini uzmasdan 10-15 minut qarab turishi mumkin. Agar,

oldin u ularni qiziqtirgan predmetlarga qaragan bo'lsa, endi esa o'zini diqqatini qaratish uchun o'ziga o'zi ob'ekt tanlaydi.

Jismoniy rivojlanishi

1 oylikda: Harakat malakalari: Chaqaloq quyidagi harakatlarni sezadi. Masalan, ularning holati to'satdan o'zgartirilsa, ular albatta qo'l-oyoqlarini cho'zish bilan reaksiya javobini beradi. Tebratish orqali chaqaloq tinchlanadi. Bir oylik davrda chaqaloq tanasini mustaqil harakatlantira olmaydi, ya'ni tana og'irligini kqtara olmaydi. Shuning uchun bir holatdan ikkinchi holatga harakatlantira olmaydi. Qachonki chaqaloqning eshituv idroki rivojlansa, o'shandagina u o'zining tanasini va qanday harakatlanishini anglar ekan. Endi tug'ilgan chaqaloqning kafti yopiq turadi, uni ochishga harakat qilganimizda u yana yopib oladi. Bu ushlov refleksidir.

Chaqaloqning **2 oyligiga** kelib uning uyg'oqlik paytining davomiyligi kun davomida 6-7 minutga uzayar ekan. Uyquga esa bir sutka davomida 16 soat ketadi. Chaqaloq uyg'oq paytida tinimsiz harakatda bo'lib, bu jarayonda uning harakatlari kuchga to'lib, jismonan mustahkamlanadi. U tobora erkin harakatlana boshlaydi. U tez-tez ko'kragi ustida qo'llarini ochib, keriladi. Qorinda yotgan holatida boshini ko'tarib tura olishi mumkin, lekin qisqa vaqt ichida charchaydi, chunki boshi tanasiga nisbatan og'irroq va uni ko'tarish bola uchun og'irlik qiladi. Agarda siz chaqaloqni qo'lingizga olsangiz, unda chaqaloq boshini bir necha minut ko'targanini guvohi bo'lasiz. Lekin biror bir ovoz-tovushni eshitishi bilan yorqin rangni ko'rishi bilan boshi pastga tushar ekan. 6 haftalik davrida chaqaloqda motor qobiliyatlarning tez rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. U xali karavotchasidan boshini ko'tarolmasa ham, oyoq-qo'llarini ko'taradi. Agarda uni qoringa yotqizib qo'ysangiz, uholda chaqaloq boshini yon tomonga bemalol nafas olish uchun buradi.

3-4-5 oylikka kelib ilgari qo'llari mushtum holatda bo'lgan bo'lsa, endilikda esa qo'llarini bemalol ochib, yopa olishi mumkin: u endi uni qiziqtirgan predmetni qo'llari bilan ushlay olishi mumkin; 1 ta qo'li bilan ikkinchi qo'lini topa olishi, ikkala qo'lini birlashtirish mumkin, barmoqlari bilan o'zini topishi qo'llarini, mushtini ochib yopa oladi. Uning qo'llari tobora quloq soluvchi bo'ladi. 3 oylikning oxiriga kelib chaqaloq o'zining tanasini yaxshiroq seza boshlaydi. O'yinchoqlarni ushlab olgisi, qo'llari bilan predmetlarni olgisi keladi. Qorinda yotgan holda chaqaloq chalqancha o'girila oladi va boshini 2-2,5 minutga ko'tara olishi mumkin. U boshini qat'iy ushlaydi va har xil tomonga bura oladi, ya'ni qaray oladi. Huddi mana shu holat uning rivoji uchun katta ahamiyatga ega. U qiziqish bilan uni o'rab turgan atrof-olamni kuzatadi. 12 haftalik chaqaloq tekis holatdan yon tomonga o'girila oladi. Qo'l va oyoqlar harakatlari koordinatsiyalashgan. Undan tashqari qo'l va oyoqlarini bukishni boshlaydi. Ko'pincha chaqaloqlarning oyoqlari yuqori ko'tarilgan bo'ladi. Agar oyoqlari tagiga biror-bir to'siq qo'lsa, u oyoqlari bilan itarishni boshlaydi. U buni juda katta qiziqish, hoxish bilan bajaradi.

6-7-8 oylikda: Mana shu davr mobaynida chaqaloqning rivojlanishida ba'zi bir o'zgarishlar kuzatiladi. Chaqaloq yelkasiga suyanib ko'krak qafasini ko'tara olishi mumkin. 6-7 oylikga kelib esa balkim cho'zilgan qo'llariga suyanib yanyada baladroq ko'tara olishi mumkin. Kattalarning qo'lini ushlab o'zi mustaqil xarakatlarni qila boshlaydi, bu davrda chaqaloq endi o'rgangan bilim va malakalarini qayta qayta takrorlashi mumkin. Endilikda u kun davomida 30

minutdan uygʻoq xolatida boʻladi. Va bu davrda oʻzining xarakat malakalari qobiliyatlarini amalga oshirishi mumkin. Qorinda yotgan xolda boshini uzoq mudatga koʻtara olishi mumkin. 6 oylikga kelib chaqaloq oʻz tanasini, oʻzini oʻzi boshqarish qobiliyatini nomoyon qiladi. Avvaliga noqulay yon xolatdan yelkaga orqasiga qayrilishni oʻrganadi, soʻngra esa orqadan yonga, va orqadan qoringa kabi malakalarni oʻranib olar ekan. Bularning barchasi emaklash uchun tayyorgarlik boʻlib xisoblanadi. 6 oylikdan boshlab chaqaloq yotogʻining teppasiga bir necha kichik oʻyinchoqlarni osib qoʻyish tavsiya etiladi. Chunki chaqaloqlar ularni olaman deb oʻzining xarakatlarini shakllantirib rivojlantirib borar ekan.

9-12 oylikda bu davrda bir tashkillashtirilgan, yoʻnaltirilgan harakat-ushlov akti namoyon boʻlar ekan. 9-10 oylik chaqaloq qoʻllaringizda sakraydi, qornida yotgan holatda oyoqlari bilan navbatma-navbat harakatlar qiladi. (va osonlik bilan ustidagi koʻrpani ochib tashlaydi).

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Meʼyorda rivojlangan bolaning goʻdaklik yoshida nutqiy rivojlanishning oʻziga xosligi xaqida gapiring.
2. Meʼyorda rivojlangan bolaning goʻdaklik yoshida psixik rivojlanishning oʻziga xosligi xaqida gapiring.
3. Meʼyorda rivojlangan bolaning goʻdaklik yoshida jismoniy rivojlanishning oʻziga xosligi xaqida gapiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil. 6-15 betlar.
2. Moʻminova L., Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey perviix let jizni. T.: RSSAD, 2007g.3-17 str.
3. Levchenko I.E., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika.-M.: "ASAMEDIA", 2005.127-138 str.

Mavzu. Eshitish, ko'rish idroki, harakat malakalari, nutq malakalarining rivojlanishi, hislar, kognitiv rivojlanishi.

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish davrlari.
2. Ko'rish idroki, harakat malakalari
3. Nutq malakalarining rivojlanishi, hislar, kognitiv rivojlanishi

Tayanch tushunchalar: Idrok, fonetik, muloqot, nutq, intellektual, ko'nikma, daktil nutqi, surdopedagogika, xarakter

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishni erta boshlashning ahamiyati juda katta. Maktabgacha yosh davri – inson hayotida muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi davr. Bu davrda asosiy odatlar, ko'nikmalar shakllanadi, xarakter belgilanadi, ya'ni butun keyingi hayot asoslari quriladi. Shu bilan birga, surdopedagogika tarixida tug'ma eshitishda nuqsoni bo'lgan kishilar rivojlanishning juda yuqori darajasiga erishgan, eshitadiganlar bilan erkin muloqot qilgan va hatto chet tillarni o'rganganiga misollar ko'plab topiladi. bu mo'jiza emas edi. Har kunlik, har soatlik mehnat, iroda, muvaffaqiyatga ishonch hamda ot-onalar, pedagoglar namoyon qilgan chidam, muloyimlik, ko'p marta ortiq mas'uliyat hissi va muhabbat bu kishilarga shunchalik ko'p narsaga erishish imkonini berdi. Tug'ma eshitishda nuqsoni bo'lgan kishilar hatto maxsus ta'lim olmasdan ham, savodsiz yoki ma'lumoti past bo'la turib ham, turli mehnat ko'nikmalarini egallaganlariga ham misollar ko'plab topiladi. Ularning ko'pchiligi turli korxonalarda mehnat qilib, el-yurt hurmatini qozongan, davlat mukofotlariga loyiq topilgan. Oliy ma'lumot olgan eshitishda nuqsoni bo'lgan kishilar: muhandislar, o'qituvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar bor. Eshitishda nuqsoni bo'lgan kishilarning yuqori darajada aqliy rivojlanishi holatlari tahlili ko'rsatadiki, deyarli hamma vaqt bu ta'limni erta boshlashning natijasidir. Eshitadigan va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari mos kelsa-da, kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabda tarbiyalash talab qilinadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar qator xususiyatlarga ega. Ularda:

- ko'rish idroki nuqtai nazaridan yetarlicha rivojlanmaganlik, jumladan, predmetlarni idrok etish va tanib olish tezligi past ekani;
- taqlidning sekin rivojlanishi, shuningdek namuna bo'yicha tanlashda qiyinchiliklar;
- nutqning mavjud emasligi va nutqqacha muloqot defitsiti kuzatiladi.

Yuqorida sanab o'tilganlar bilish faoliyati va so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanishida orqada qolishga sabab bo'ladi. Aynan shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy tarbiyasiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasining bir qator vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Atrof olam haqida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish.
2. Bilish psixologik jarayonlarini rivojlantirish.
3. Intellektual faoliyatning birlamchi usullarini shakllantirish.
4. Og'zaki nutqni shakllantirish.

Sanab o'tilgan vazifalarning barchasi o'yin, maxsus o'qitish va mehnat jarayonida amalga oshirilishi kerak.

Tarbiyani erta boshlashning ahamiyati haqida ko'plab faylasuf va olimlar fikr bildirgan. Psixologlar tadqiqotlari ham hayotining ilk kunlaridan maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maxsus tashkil etilgan tarbiya insonning rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etishini isbotlamoqda.

Mana shuning uchun ham maktabgacha tarbiya xalq ta'lim umumiy tizimining, jumladan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining ham birinchi bo'g'ini sanaladi. Kar va zaif eshituvchi bola uchun maktabgacha tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ilk davrida, taxminan bir yoshgacha, hali bolaning tili chiqquniga qadar eshitadigan va kar bolalar o'rtasidagi tafovut u qadar ko'zga tashlanmaydi. Astasekinlik bilan, eshitadigan bola nutqni egallagani sari bu farq ortib boradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola gapirishni boshlamaydi, uning rivojlanishi esa, tilsiz kechar ekan, nutqi cheklangan bo'ladi, bolaga biror narsani aytib yo tushuntirib bo'lmaydi. Uni gapirish va nutqni tushunishga maxsus o'rgatish kerak. Shunday ekan, bolani nutqqa o'rgatishni qanchalik erta boshlansa, uning rivojlanishida eshitadigan bola bilan farq shunchalik kam va keyingi ta'lim imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Bolalar bog'chasida surdopedagog va tarbiyachilar uni shu yoshdagi eshitadigan bolani o'rgatishgan hamma narsaga: rasm solish, yopishtirish, qurish, sanash va hatto raqs tushishga o'rgatishadi. Hamma bolalar kabi uni ham mehnat qilishga, ozodalikka, muloyimlikka o'rgatishadi. Bunda meniki-bizniki, mumkin-mumkin emas, rost-yolg'on kabi ko'plab hayotiy muhim, ilk yoshda shakllantiriladigan va bevosita tarbiya natijasi sanalmish tushuncha va ko'nikmalar shakllantirila boshlaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani gapirishga o'rgatish uni tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatishgina emas, garchi bu kar bola tarbiyasida o'ziga xos sanaladi va alohida malakalarni talab qiladi, biroq asosiysi nutq mazmunini tushunishga o'rgatish va muloqotda og'zaki nutqdan foydalanishga, so'zlovchining lab harakatlariga ko'ra tushunishga va o'zi tushunarli qilib gapirishga o'rgatish sanaladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni uy sharoitida tarbiyalash mumkin bo'lsada, biroq bu mutaxassisning qo'shimcha ishtirokini talab etadi va ota-onalardan, farzandi maxsus muassasaga joylashtirilgan holda ham, eshitmaydigan yoki zaif eshitadigan bolaning rivojlanishi va tarbiyasining asosiy xususiyatlarini bilishni talab etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning ota-onalari bolani maxsus maktabgacha ta'lim muassasasiga tayyorlash uchun ta'lim-tarbiyaga oid elementar bilimlarni egallashi zarur. Masalan, tashhis qo'yilgan, bolalar bog'chasigacha besh oy muddat bor. Bola kasal bo'lib qolsa-chi? Oila kar bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lmagan olis joyda bo'lsa-chi?

Ta'limni kechiktirib bo'lmaydi. Chunki, bu davr ichida eshitadigan bola eshitib va eslab qolgan har bir so'z bilan eshitishida nuqsoni bo'lgan bola hamda eshitadigan bola o'rtasidagi farq ortib boraveradi.

Bola ta'limi va tarbiyasiga to'g'ri yondashish uchun mutaxassislar tavsiyalari asosini tashkil qiladigan tarbiya tamoyillarini bilib olish kerak. Ularni

o'zlashtirgach, bolaning individual xususiyatlari va yashash sharoitlariga mos tarzda ongli ravishda shu tavsiyalarga amal qilish mumkin bo'ladi.

Ota-onalar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabgacha tarbiyasidagi uchta muhim dastlabki qoidani bilishlari kerak.

Birinchisi. Sog'lom eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning aqliy rivojlanish imkoniyatlari eshitadigan bolanikidan aslo kam emas. Yuqori darajada talabchanlik va malakali ta'lim bilan uyg'unlashgan muhabbat - shu imkoniyatlarni realizatsiyalash imkonini beradigan shart-sharoit shundan iborat. Muvaffaqiyatga ishonish, shu ishonchni bolada tarbiyalash olish – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani baxtli qilish va o'z nuqsonini his qilmaslik, hech bo'lmaganda undan aziyat chekmaslikka yordam berishning muhim omili.

Ikkinchisi. Tarbiyaning umumiy masalalari, uning hissiyoti, xulqini tarbiyalash maxsus tarbiyaga qaraganda ikkinchi darajali emas, balki maxsus tarbiyaning asosini tashkil qiladi. Zero farzand, avvalo farzand, keyin esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bola. Buni unutmazlik lozim. uning ma'naviy qiyofasi, uning shaxsini tarbiyalash – maxsus o'qitishning har bir vaziyatini belgilaydigan asosiy jihat shu. Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola xulqini tarbiyalashga uning eshitadigan tengdoshining xulqini tarbiyalashga kabi yondashish zarur.

Uchinchisi. Bolani soqovlikdan asrab qolish, atrofdagilar bilan muloqotga o'rgatish uchun barcha vositalardan foydalanish kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'qitishning (ota-onalar uchun) tobora samarali va qulay vositalardan biri daktil (barmoqlar) nutqi sanaladi. kichik yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda undan keng foydalaniladi.

Daktil nutq nima va uning ta'limdagi roli nimadan iborat? Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqning bu noodatiy shaklidan o'qitishda foydalanish zarurati ko'pincha ota-onalarning e'tirozi va qarshiligiga sabab bo'ladi.

Daktil nutq – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning qudratli vositasi, u lug'at boyligi va nutqni o'zlashtirish sifatini, shuningdek eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanish darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar va boshqa kishilar uni bola bilan muloqotda to'g'ri qo'llash uchungina emas, balki fikrlari, aniqrog'i, bilibilmay chiqaradigan hukmlari bolaning to'la qonli tarbiyasiga halal beradigan kishilarga uning ahamiyatini tushuntirib berish uchun ham daktil nutqning ahamiyatini tushunib yetishlari kerak.

Nutqni shakllantirish ko'p qirrali jarayon sanaladi. Uning turli shakllarini, avvalo muloqot asosini tashkil etadigan og'zaki nutqni rivojlantirish zarur. Kar va zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish avvalo katta odamga taqlid shaklida, eshitish apparatlaridan foydalanilgani holda amalga oshiriladi. Go'dakning ovoz reaksiyalarini faollashtirish bu reaksiyalarni qo'llab-quvvatlash va yangi tovushlar hosil qilishga qaratilgan mashqlarni o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Bu mashqlar muloqot jarayonida, katta odam bola bilan turli tovush va tovush birikmalaridan foydalanib, ularni gimnastika elementlari bilan birga qo'llab "gaplashganida" amalga oshiriladi. Bir yarim -ikki yoshli bolaning og'zaki nutqi ustida ishlashning muhim vazifasi bolada og'zaki nutq ehtiyojini shakllantirish sanaladi. Shu sababli o'yin va maishiy harakatlar paytida katta yoshli odam predmet,

hodisa, o'yinchoq, harakatlar nomini ataydi, bolalar ularni uddalagani darajada ularning nomini taqlidan aytishga (atashga) undaydi. Eng muhimi - bolaning katta odamga ergashib tovush, bo'g'in, so'zlarni talaffuz qilishga urinishi. Nutqqa taqlid harakatlarga taqlid bilan uzviy bog'liq. Shu sababli gavda harakatlariga taqlidga o'rgatishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Kattalarga bu kabi taqlidni o'zlashtirgani sari bola harakatlarni tovushlar, bo'g'inlar, so'zlarni go'ldirab talaffuz qilish bilan to'ldirib boradi. Shu davrdan fonetik ritmika mashg'ulotlari boshlanadi. Fonetik ritmika maktabgacha yosh oldidan va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ularning talaffuzi ustida olib boriladigan ishlarning asosiy usullaridan biri.

Eshitish idrokini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar bilan bir paytda bolalarni reaksiya qilish va turli maishiy shovqinlar, tabiiy tovushlar, transport signallarini tushunishga o'rgatishadi. Audioyozuvlarni eshitish ham eshitish idrokining rivojlanishiga ko'maklashadi. Katta yoshli kishi bola bilan birga musiqa taktiga mos harakat qiladi, bolaning o'zini raqs harakatlarini bajarishga undaydi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish davrlari haqida nimalar bilasiz?
2. Ko'rish idroki deganda nimani tushunasiz?
3. Nutq malakalarining rivojlanishi nimalarga bog'liq?
4. Nutq malakalarining rivojlanishiga hislarning qanday bog'liqligi bor?
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasiga qaysi vazifalarni kiritish mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Корсунская .Б.Д. Развитие речи глухих дошкольников –М.: 2000.
2. Корсунская.Б.Д. Читаю сам Книга для чтения глухих дошкольников.- М. 2009
3. Боскис. Р.М Глухие и слабослышающие дети. М., 2003 г.
4. Шматко Н.Д., Пелимская Т.В. Если малыш не слышит. – М.: Просвещение, 2003. – 255 с.

Mavzu. Go'daklik va ilk yoshdagi bolalarni psixologik -pedagogik tekshirish metodlari

Reja:

1. İlk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish
2. Psixologik-pedagogik tekshirish tamoyillari, metodlari va vazifalari
3. Psixologik-pedagogik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablar

Tayanch tushunchalar

✓ *Eskperiment*-(lotin. *Experimentum-sinab ko'rish, tajriba*)-ma'nosini bildiradi.

✓ *Anamnestik ma'lumot*-bemorda kasallikning kelib chiqishi, rivojlanish tarixi, hayoti davomida qanda tibbiy operatsiyalar, travmalar hamda surunkali patologiyalari haqida ma'lumot beradigan kitob yoki daftar ko'rinishidagi ma'lumotnoma

Bolani psixologik-pedagogik tekshirish psixologik-tibbiy-pedagogik tekshirishning bir tomoni bo'lib, uning rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga imkon beradi.

Go'dak va ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maqsadi: bolaning psixik rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funksiyalarini shakllanish xususiyatlarini o'rganish, psixik rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir.

Psixologo-pedagogik tekshirish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Bolaning hissiy va kommunikativ doirasini rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;
- Sensor va harakat funksiyalarini rivojlanish darajalarini aniqlash va tavsiflash;
- Manipulyativ, predmetli va o'yin faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlash tavsiflash;
- Aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini aniqlash;
- Ijtimoiy-maishiy faoliyatni rivojlanish darajasini aniqlash;
- Bola va ota-ona munosabatlarini yoshiga moslik darajasini aniqlash;
- Bolaning psixik rivojlanish saviyasini aniqlash, potensial imkoniyatlari asosida korreksion ishlarni belgilash;
- Ota-onalar va mutaxassislar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

- ✓ Bolaning o'zi va ota-onasi bilan suhbat;
- ✓ Anamnestik va katamnestik o'rganish;
- ✓ Kuzatish;
- ✓ Eksperiment.

➤ **Psixologik tekshirish (o'rganish) tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:**

➤ Bola psixikasini **kompleks** o'rganish tamoyili, ya'ni turli mutaxassislar Tomonidan o'rganish. Bu tamoyil bolani barcha mutaxassislarning (vrach, defektolog, psixolog, pedagog) tekshirishidan olingan ma'lumotlarni e'tiborga olishni nazarda tutadi.

➤ **Analitiko-sintetik** o'rganish tamoyili, ya'ni bolaning faqatgina bilish jarayonlarinigina emas, balki hissiy-irodaviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlarning shakllanishiga ta'sir etadigan jismoniy rivojlanishi ham e'tiborga olinadi.

➤ **Sistemali va to'liq o'rganish** tamoyili bolaning psixik rivojlanishidagi alohida buzilishlarning namoyon bo'lishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va bir-biridan kelib chiqishini, ularning iyerarxiyasi, birlamchi va ular asosida kelib chiqadigan ikkilamchi buzilishlarining o'zaro munosabatini nazarda tutadi.

➤ Bolaning psixikasini o'rganishdagi yana bir tamoyil **dinamik** o'rganish tamoyilidir. Bu tamoyil bo'yicha, bolani o'rganishda, tekshirish vaqtida u biladigan va bajara oladiganlami emas, balki ularning ta'limdagi imkoniyatlarini ham e'tiborga olish lozimdir. Dinamik tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarni «yaqin rivojlanish zonasini», ta'limda ularning potensial imkoniyatlarini o'rganish haqidagi fikrlari yotadi.

➤ Bola psixikasini **obyektiv** o'rganish tamoyili, ya'ni tekshirishda bola uchun tabiiy holatni yuzaga keltirish;

➤ Tekshirish sharoitini va metodlarini tanlashda bolaning **yosh xususiyatlarini e'tiborga olish** tamoyili;

➤ Bolaning psixikasini, ayniqsa bilish jarayonlarini o'rganishda uning faoliyatini, vazifalarni bajarish uslubini e'tiborga olish tamoyili.

Bolaning onasi bilan suhbat o'tkazayotganda asosan quyidagi savollarga javob olish o'rganilayotgan bola haqida mutaxassisga zarur bo'lgan ma'lumotlar beradi:

— Homiladorlikning kechishi, homiladorlik davrida onaning boshidan kechirgan (agar bo'lsa) og'ir yuqumli kasalliklar, og'ir kechgan toksikozlar, mtoksikatsiyalar, mexanik jarohatlar, zararli ishlab chiqarishda mehnat faoliyati va hokazolar;

— Tug'ruq jarayoni qanday kechgani, tug'ruq vaqtidagi turli patologik holatlarning mavjudligi;

— Chaqaloqlik davrida bolaning rivojlanishidagi og'ishishlar (agar mavjud bo'lsa), ota-onaning shikoyati va xavotirlik sabablari;

■ Go'dakning boshini ushlashi, emaklashi, o'yinchoqlarni bilishi, ularni o'ynashi, yaqinlarini tanishi, tik tura olishi, qachondan boshlab yurishi, birinchi so'zlari, jumlati nutqining rivojlanishi va boshqalar.

Ona go'dak bilan har kuni aloqada bo'lib, bolaning rivojlanishi haqida katta amalga ega bo'ladi va bu materialdan mutaxassislar tekshirish natijalarini tahlil qilib foydalanishlari mumkin. Onaga berilayotgan savollar bolaning rivojlanishini davolashga emas, balki bola hayotidagi aniq dalillarni olishga qaratilishi lozim. Ona bilan suhbat o'tkazish uning bolaga bo'lgan munosabati, onaning bola bilan aloqasi taeida ma'lumot olishga imkon beradi.

Bolani kuzatish bevosita maslahat qabulida, tekshirish vaqtida amalga oshiriladi. So'zlash vaqtida psixolog bolaning psixik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini takrorlaydigan ba'zi bir tomonlarini, masalan, yangi sharoitga, notanish odamlarga reaksiyasini, aloqaga kirishish xususiyatlarini, aloqa qilishda verba foydalanishi, atrofga bo'lgan qiziqishining namoyon bo'lishi, onaning bolasiga bo'lgan munosabati; hissiy o'zaro ta'sir xarakteri, xulqiy reaksiyalar: gipo va giperfaollik, qo'zg'aluvchanlikning kuchliligi, tez charchash vahokazolarni e'tiborga oladi.

Bolaning psixik rivojlanishining xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, psixikadagi buzilishlarning darajasi va o'ziga xos tomonlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash zarur. Bu metod ko'p hollarda ta'limiy eksperiment ko'rinishida o'tkaziladi. Ta'limiy eksperiment metodi bolaning o'rgatilishini aniqlash maqsadida metodning tuzilishiga turli yordam choralarini kiritilishini nazarda tutadi. Tekshirish jarayonida quyidagi yordam turlaridan foydalaniladi: harakatni taqlid asosida bajarish, harakatni taqlid asosida imo-ishoradan foydalanib, nutqiy ko'rsatma yordamida bajarish. O'rganish, ya'ni bolaning noadekvat harakatlardan adekvat harakatlarga o'tishi uning saqlangan potensial (ichki) imkoniyatlari mavjudligidan darak beradi.

Psixologik-pedagogik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablar

Psixologik-pedagogik va logopedik tekshirishni tibbiy tekshirishdan so'ng o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki psixik rivojlanishdagi buzilishlarni tashxis qilishda anamnestik ma'lumotlar, statik, nevrologik va psixik holatlar, ko'rish, eshitish funksiyalarining saqlanganligi, shuningdek harakat buzilishlarining xarakteri va darajasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni tahlil qilish psixolog va logopedga tekshirishda kerakli yo'nalishni, tekshirish metodikalarini to'g'ri tanlashga imkon beradi.

Tekshirish metodi va metodikalarini tanlash bolaning yoshi, uning motor, sensor, aqliy imkoniyatlari, nutqning mavjudligi yoki yo'qligiga bog'liq bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish bir qator xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar eksperimentator bilan doimo ham oson aloqaga kirishmaydilar, topshiriqlarni bajarishga intilmaydilar. Bular 8-9 oylikdan 2 yoshgacha bolalarda kuzatiladigan notanish odamlar, notanish vaziyatga

nisbatan qo'rquv, uyalishga, tortinishga; ikkinchidan, o'ziga xos qo'rquvlar (oq xalatdan, bolaga tegishdan, o'rmini o'zgartirishdan va hokazolardan), depressiv kayfiyat, o'jarlik, negativizm bilan bog'liqdir. Bola o'jarlik qilganda, charchaganda, toliqqanda tekshirishni to'xtatish zarur. Dastlabki qabulda bolaga uning yoshidan kelib chiqib 3-4 topshiriq taklif etiladi.

Tekshirishni ona yoki ota bilan suhbatdan boshlash lozim. Suhbat vaqtida bolani ota-onasidan ajratmasdan, unga yangi vaziyatga, notanish odamlarga ko'nikishga vaqt beriladi. 1 yoshdagi bolani, shuningdek, harakatlarida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishga ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar, erkalatib gapirish kabi ta'sirlar yordamida jalb etiladi. Yoshi kattaroq bolalar esa turli topshiriqlarning syujetini bitta umumiy o'yinga o'tkazish orqali tekshirish vaziyatiga kiritiladi. Tekshirishni bolaning mustaqil faoliyatini kuzatib, uning faolligi, o'yin, predmetli harakatlarining turliligiga e'tibor berishdan boshlash maqsadga muvofiq. Agarda bola o'yinchoqlarni o'ynamasa, katta odam o'yinchoqlarni bolaga taklif etib, ular bilan harakat usullarini ko'rsatadi. Tekshirishni o'tkazish uchun bir qancha predmetlar va o'yinchoqlar to'plami zarur bo'ladi.

Eksperimental tekshirish bola uchun qiziqarli bo'lgan sodda, oson topshiriqlar berishdan boshlanadi. So'ngra bolaga bir qator ancha murakkab bo'lgan topshiriqlar beriladi. Ammo, bola toliqishining dastlabki ko'rinishidayoq uning diqqatini ancha oson bo'lgan topshiriqqa yo'naltirish yoki dam berish tavsiya etiladi. Bilish faoliyatini tadqiq etishda topshiriqni bajarish usullarini ko'rsatish 3 martadan oshmasligi lozim. Kattalarning nutqi bola harakatlarini tashkil etadi, yo'naltiradi, rag'batlantiradi, natijalarini baholaydi. Tekshirish vaqtida doimo bolani hissiy qo'llab-quvvatlash, nutq yordamida, imo-ishora, mimika orqali ijobiy baholab borish zarur.

Bola umuman harakatsiz bo'lganda, nutqi shakllanmagan hollarda u faqat kattalarning o'yin harakatlarini kuzatadi. Eksperimentator bolani kattaning harakatlarga bolgan diqqatini, qiziqishining faolligi va turg'unligini, hodisaga bo'lgan hissiy munosabatini, espressiv-mimik reaksiyasini e'tiborga oladi.

Eksperimental sinov (tajriba) larni tanlashda tekshirish metodikalari bolalarning yoshiga mos bo'lishi; u yoki bu funksiyani o'rganish birgina emas, balki yo'nalishi bo'yicha yaqin bo'lgan bir necha metodikalar qo'llanilishi zarur.

Adabiyotlar

1. Mo'minova L.R., Nurkeldieva D.A va boshq. Ilk yordam xizmati. RBIMM, 2018 yil.
2. Jukova O.. Kak pomoch rebenku. S.- Peterburg, "Shkola", 2004g
3. Kojevnikova Ye.V., Baranova N.Yu., Klochkova Ye.V. Kak uchit i razvivat detey s narusheniyami razvitiya. S.- Peterburg, «Shkola», 2000g.

Mavzu: Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxis qilish bosqichlari.

Reja:

1. Bola hayotining birinchi yilida nutqning rivojlanish dinamikasi.
2. Nutqni rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlar.

Tayanch so'zlar: dinamika, massa, xarakat, malakalar.

Ya.A.Komenskiy tabiiy qobiliyatni har tomonlama rivojlantirish g'oyasidan kelib chiqqan holda ilk yoshdan boshlab bolalarga bilishni, so'zlashni o'rgatish kabi vazifalarni qo'ygan. U «aql va nutq»ni rivojlantirish haqida bir xil qayg'urish darkor, deb hisoblagan. Chunki, bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifodalaydi va atrofdagi kishilar bilan muloqotga kirishadi, nutqni egallab olish orqali u atrofdalarni anglaydi, boshqa bolalar bilan muloqot qilish natijasida esa bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

Ye.I.Tixeeva K.D.Ushinskiyning izdoshlari ichida birinchi bo'lib maktabgacha yoshga nisbatan «tilni o'qitish» atamasini qo'llagan. Uning fikriga ko'ra, bolalar bog'chasida tarbiyalash ishlari tizimining asosini birinchi yoshdan boshlab ona tilini muntazam o'rgatib borish tashkil qilmog'i lozim, bu o'quvni u maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan.

- Go'daklik yoshida (0-1) bolaning kattalar bilan muloqot shakllari turlicha bo'lishi mumkin, ammo bu eng avvalo kichkintoyning jonlanishini, uning quvnoq kayfiyatini ifodalaydigan o'yin muloqotidir.

- 3-oydan boshlab bola bilan muloqotda ovoz «kuylari»ni (xalq cholg'u asboblari taqlid qilish) o'z ichiga olgan, axborot jihatidan boy bo'lgan asarlardan foydalanish zarur.

- 9 oydan boshlab bolada nutqiy taqlid va ovozlarni ifodaliligi rivojlanadi, 12 oydan boshlab kichkintoyning kichik folklor janri asarlari elementlari asosida nutqiy muloqotga kirishishga undash darkor.

- Bolani parvarish qilishda kattalar u bilan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar haqida bolaga aytib turishlari zarur.

Nutq malakalarining rivojlanishi: yig'i va chinqirish chaqaloqlarda tug'ilgandan paydo bo'ladi. Albatta, bu xali nutq emas, ya'ni turli tovushlarni chiqarish bilan chaqaloq o'zining tili, lablari va ovoz boylamlari – mashq qildiradi. Gapirish vaqti kelganda (miya rivojlanganda, koordinatsiyasi yaxshilanganda) butun nutq apparati ishga tayyor bo'ladi. Shu bilan birgalikda, u inson nutqini eshitish va tushunishni o'rganib borar ekan. Chaqaloqlar nafaqat tovushlarni eshitibgina qolmasdan, balki butun tovushlar ichidan inson ovozini ajratib oladi, bu esa nutq rivojlanishining ilk belgilaridir. Chaqaloq ilk tovushlarni talaffuz etishni boshlaydi: g-k, k-x. Sog'lom chaqaloq gugulash davrida ko'p tovushlarni talaffuz qilishi kerak. Masalan: a-a-a, a-gu, bu, bum, ma, am, bf. Agar chaqaloqda tinch holat kuzatilsa, u holda chaqaloqda birinchi tovushlarning chiqishi sekinlashadi va nutqning rivojlanishi kechikadi. Bu davrda chaqaloq ovozli o'yinchoqlardan zavqlanadi. Ba'zan chaqaloqlar o'zlarining nutqlarini musiqaga mos ravishda balanda, past qilib o'zgartirishlari mumkin. Nutqdagi har bir unli va undosh tovushlarni seza olish bola

uchun alohida ahamiyatga egadir. Chaqaloq nutqidagi lugʻat boyligi sezilarli oʻtadi: unli (a, e, u, i), undosh tovushlar (r), baʼzi chaqaloqlarda esa murakkab kompleksi tovushlar “agu”, “tilya”, “bf” koʻrinishida namoyon boʻladi, undan tashqari baʼzi chaqaloqlar muloqot jarayonida talaffuz etishda kuch talab etadigan tovushlardan foydalanishadi. Chaqaloqlar talaffuz qiladigan barcha tovushlarning xarakteri ham oʻzgarib boradi. Qisqacha tovushlar oʻrniga choʻziluvchan, jarangli tovushlarga (a-a-a, r-r-r). N.L.Figurin va M.P.Denisovlar oʻz tadqiqotlarida taʼkidlashlaricha qisqacha davomli tovushlardan jarangli tovushlarga (gugulashga) oʻtish chaqaloq harakatlarining oʻzgarishi bilan bir vaqtda sodir boʻlar ekan. Bu esa ularning fikricha alohida muskullar guruhining qisqarishi bilan bogʻliq. Undan tashqari ularning taʼkidlashlaricha chaqaloqlar tovush talaffuzining 2-muhim jihati aniqlashgan: tovushlarning talaffuz harakatlarini bajarishlari kabi yuqori hissiy nazorat organlari orqali amalga oshirilib, tovushlar eshitish nazorati ostida talaffuz etiladi, harakatlar koʻruv nazorati ostida amalga oshirilgan ekan. Tovushlarga taqlid asosan chaqaloqlardan kattalarning maʼnosini eshitishni, tinglashni talab etib, bu esa eshituv idroki nazorati ostida talaffuz etishni talab etadi. Ilk yosh davrida tovushlarga taqlid mavzusi xususida psixolog tadqiqotchilar orasida koʻp mulohazalarni, tushunmovchiliklarni keltirib chiqargan. Ularning taʼkidlashlaricha bu davrdagi chaqaloqlar tovushlarga taqlid qilishlari mumkin. Baʼzilar esa bu fikrni inkor qilishgan. Oldingi malakalariga asoslangan holda chaqaloq insonlarni, predmetlarni tanlaydi, va ularga turli xil munosabatda boʻladi. Undan tashqari kattalarning mimikasini ovozi va baʼzi bir harakat amallarini farqlashni boshlaydi. Bularning hammasi nutqni tushunish uchun poydevor boʻla oladi. 5 oylikka kelib unda turli xil intonatsiyalardagi musiqali gugulash namoyon boʻladi. U endi tez-tez va uzoq gugulaydi: u bilan emotsional muloqotga javoban, erkin yotgan holatda: oʻyinchoqlarni koʻzdan kechiraytgan va boshqalar. Agarda chaqaloq kattalarni ovozi yoki oʻzini ovozi eshitsa u holda uning gugulashi uzayadi, choʻziladi, har xil boʻlib qoladi. Gugulashning rivojlanishi uchun chaqaloq oʻzini yaxshi his qila olishi va uning holati ijobiy emotsional boʻlishi lozim.

Tugʻilganidan bola rivojlanishida yana bitta muxim xodisa – uning gapirishga oʻrganishidir. Bu tovushlarni oʻzlashtirishdan boshlanadi. Bola, ayniqsa, inson tovushlariga ularni barcha tovushlar qatoridan ajratgancha kuchli reaksiya qiladi. Keyin insonga taqlid imkoniyati namoyon boʻladi. Keyinroq shu asosda murakkab modellarni faol oʻzlashtirib boradi. Baʼzida nutqning rivojlanishi qandaydir bosqichda tormozlanganga oʻxshash tasavvur paydo boʻladi. Bu faqat soʻz boyligi passiv yigʻilgan davr xisoblanib, keyinroq nutq rivojlanishning oʻziga xos “portlash”iga olib keladi. Montessori taʼkidlaganidek, shuni unutmaslik lozimki, “tilga bunday odatiy taʼsirchanlik bolada xayotining dastlabki uch yilida saqlanib qoladi va keyin kaytmaydigan boʻlib ketadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Goʻdaklik davrida bolaning nutqiy rivojlanishiga taʼrif bering?
2. Nutqiy rivojlanishning oʻziga xosligi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil. 6-15 betlar.

2. Mo'minova L., Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey perviix let jizni. T.: RSSAD, 2007g.3-17 str.

Qo'shimcha adabiyotlar:

Levchenko I.E., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika.- M.: "ASAMEDIA", 2005.127-138str.

Mavzu: Ilk yordamning hozirgi zamon dasturlari

Reja

1. Rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari
2. Rivojlanish davrlari
2. Bolaning muayyan ehtiyojlarini qanday aniqlash va uning rivojlanishi hamda ta'lim olishi bo'yicha vazifalari

Tayanch so'zlar

1. Go'daklik davri-bola tug'ilgandan to 1-yoshgacha bo'lgan davr
2. Profilaktika- yunoncha "prophylaktikos"-oldini olish ma'nosini bildiradi. Maxsus ta'lim tizimida aqliy va jismoniy muammolar va ular oqibatlarining oldini olish chora-tadbirlari majmui
3. Stimulyatsiya-(lat. Stimulus)-kuchaytirmoq, tezlashtirmoq, faollashtirmoq.
4. Ekspressiv nutq-(lat. Expressio-ifodalash) og'zaki va yozma nutq orqali fikrni faol ifodalash.

BOLANING rivojlanishi

Bola rivojlanishi deganda biz nimani tushunamiz

Bizning davlatda bolalarning asosiy huquqlari O'zbekistonda 1992 yilning dekabrda ratifikatsiya qilingan Xalqaro hujjat "Bola huquqlari bo'yicha Konvensiya" va O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlangan. Unda aytilishicha, har bir bolaning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, jinsi, yoshi, salomatlik xususiyatidan qat'i nazar o'sish va rivojlanishga daxlsiz huquqi bor.

BMT ning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi. Bmtning Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan. O'zbekistonda 1992 yili ratifikatsiya qilingan.

5-modda. Ota-onalar va oilaning huquqlari hamda majburiyatlarini bola rivojlanishining to'g'ri yo'nalishini ta'minlashning ancha keng tushunchasida hurmat qilishi kerak.

6-modda. Har bir bola hayotga nisbatan hech kim daxl qilolmaydigan huquqqa ega va Davlat bolaning yashashi hamda rivojlanishini ta'minlashga majbur.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 23 noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2007 yil 1 dekabrda ma'qullangan.

8-modda. Bolaning hayotga huquqini kafolatlash

Hayotga bo'lgan huquq har bir bolaning daxl qilib bo'lmaydigan huquqidir. Bolaning hayotiga qasd qilish og'ir jinoyat hisoblanadi.

Davlat sog'lom bola tuzilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

Bola rivojlanishi o'zida uzluksiz jarayonni aks ettiradi, natijada bola o'sadi, o'qiydi, yangi tajribani egallaydi, faoliyatning yangi turlarini o'zlashtiradi. Bu mustaqillik va o'z qobiliyatlarini eng yuqori darajada namoyon etishga erishish yo'lidir.

Bu yo'lda bolaning asosiy yordamchisi kattalar hisoblanadi!

Alohida funksiyalar rivojlanishining qanday sodir bo'layotganini, haqiqatan ham murakkab kompleksga birlashganini tekshirish uchun ularni shartli ravishda quyidagicha bo'lamiz:

Jismoniy rivojlanish – organizmning o'sishi va rivojlanishi, tana, harakat og'irligining o'zgarishi;

Hissiy rivojlanish – tuyg'u va muhabbatning rivojlanishi, temperament xarakterli chiziqlarining namoyon bo'lishi, stressga reaksiya qilishning xususiyatlari va o'z shaxsiy tuyg'ulari hamda holatini nazorat qilish imkoniyati;

Kognitiv rivojlanish – tashvishlanish, tushunish, o'rganish, eslab qolish, o'ylash qobiliyatlarining rivojlanishi;

Nutqning rivojlanishi – til (so'z orqali muloqot), yordamchi nutqiy vositalar (daktil nutq, imo-ishoralar nutqi, piktogrammadan foydalaniladigan nutq) yordamida amalga oshiriladigan muloqot shaklining rivojlanishi;

Ijtimoiy rivojlanish – atrofdagi odamlar bilan muloqot, atrofdagilar va jamiyat tomonidan qabul qilinish hamda ma'qullanish, muayyan gururhga mansublik, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, erkinlik va mustaqillik (o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, muloqot qilish malakalari va h.k.) Ni ta'minlovchi hayotiy malakalarning rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi 1.

Bolalar bilan ishlashda shuni yodda tutish muhimki, har bir bolada doimo saqlanadigan rivojlanish qobiliyati bor!

O'sish va rivojlanish jarayonida barcha bu sohalar bir biri bilan zich o'zaro bog'langan: jismoniy rivojlanish va harakatlanish aqliy rivojlanish uchun yaxshi sharoitni ta'minlaydi; sevguvchi va qabul qiluvchi muhit bolada xavfsizlik, shaxsiy ahamiyatlilik tuyg'usini shakllantiradi va yanada yuqori mustaqillik hamda o'ziga ishonchni namoyish qilishga imkon beradi; nutqning rivojlanishi aqliy rivojlanishga yangi turtki beradi. Endi biz qanday yosh davrlari bolaning jismoniy, aqliy, hissiy, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun, ayniqsa, muhim hisoblanishini ko'rib chiqamiz. Buning uchun rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch nimada ekanini aniqlash zarur. Aynan shuning uchun biz bu masalani o'rganishni "Ehtiyoj" kabi tushunchaga ta'rif berishdan boshlaymiz.

Bolaning ehtiyojlari

Ehtiyoj – bu talabning ichki holati, inson hayotiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun nimaningdir yetishmasligi. Ehtiyoj insonni harakatga undaydi va rivojlanishning asosi hisoblanadi. Qachonki odamning ancha oddiy ehtiyojlari,

masalan, ovqat, suv, havo, himoyaga bo'lgan ehtiyoj qondirilganda hiyla murakkab tartibdagi ehtiyojlar – atrofdegilar tomonidan qabul qilinish va hurmatlash, o'z-o'zini hurmat qilish, muhabbat va o'zining ijodiy imkoniyatlarini namoyish qilishga bo'lgan ehtiyojlar rivojlanishni boshlaydi.

Bolaning muayyan ehtiyojlarini qanday aniqlash va uning rivojlanishi hamda ta'lim olishi bo'yicha vazifalarni qay tarzda qo'yish kerak.

Bolani to'g'ri o'qitish uchun uning ehtiyojlarini aniqlash zarur. Masalan, agar bola tengdoshlaridan harakatlanish doirasida ortda qolmasa ham, uning nutq tizimida muammolari bor bo'lsa, biz butun e'tiborni xuddi shu narsaga qaratishimiz, zo'r berishimiz kerak bo'ladi.

Nima uchun bolani iloji boricha avvalroq ko'rikdan o'tkazish zarur?

- Bola tug'ilishidan to uch yoshigacha uning psixikasi ancha egiluvchan, ta'sirlarni sezuvchan va o'rnini to'ldirish qobiliyatiga ega bo'ladi.
- Psixik va motor funksiyalarining birlamchi buzilishini barvaqt korreksiyalash rivojlanishidagi ikkilamchi og'ishishlarning profilaktikasi bo'lib xizmat qiladi.
- Shunday qilib, biz bolalar nogironligi rivojlanishi mumkinligini ogohlantiramiz.
- Bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish uning rivojlanishini optimallashtiradi.
- Bolani umumiy ta'limga jalb etish uchun sharoitlar yaratiladi.
- Biz ota-onalarning boladan voz kechishlari va uni yopiq muassasalarga topshirib yuborishlarining oldini olish uchun bolaning oilasiga yordam ko'rsatishimiz mumkin.

Nimadan boshlash kerak?

- Ko'rikni o'tkazishdan avval bolaning sog'lig'i nisbatan yaxshiligi, qorni to'qligi va uyqusi kelmayotganligiga ishonch hosil qiling.
- Ko'rik o'tkaziladigan vaziyat bola o'zi ko'nikkan sharoitda bo'lishi yoki hech bo'lmaganda qo'rquv va ishonchsizlikni sezmasligi maqsadga muvofiqdir.
- Diagnostikani olib borayotgan mutaxassis bola bilan yaxshi hissiy aloqa o'rnatishi juda muhim. Buning uchun ko'rikni o'tkazish protsedurasiga o'yin shaklini berish, bolani diagnostik maqsadlarda foydalaniladigan predmetlar bilan qiziqtirish mumkin.
- Yaxshisi, bolani mutaxassis ko'rsatmasini olgan onasi ko'rikdan o'tkazgani ma'qul.

Uch yoshgacha bo'lgan bolaning o'sishi qanchalik beshikast ekanligini aniqlash uchun **Bolaning psixoiijtimoiy rivojlanishi xaritasidan** foydalaniladi. RBIMM xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan usuliyot bola hayotining turli bosqichlaridagi axloq ko'rinishlari tavsifini ifodalaydi.

Bola egallagan har bir yangi xulq uning rivojlanishida yuksalish darajasi sifatida ko'rib chiqiladi. Sog'lom bola xulqining repertuari yoshi katta bo'lishi bilan kengayadi, xulqning turli shakllarini egallash tartibi esa ancha mustahkam bo'ladi. So'rovnomaning yuqori sifati shu bilan belgilanadiki, uning bandlari bola xulqining kuzatilishini yengil tavsiflaydi, ehtimolga yaqin javoblar esa "ha" va "yo'q" qa olib kelinadi. Ota-onalarning afzalliklari shundan iboratki, ular bolani har turli vaziyatlarda doimo kuzatadilar, mutaxassis esa qisqa vaqt ichida, ko'pincha o'rganilmagan sharoitda baholashi kerak va b. Bundan tashqari, javoblar jarayonida savolnomaning bandlari asosida ona o'z bolasini yaxshiroq bilib oladi, uning bola rivojlanishi haqidagi savollarga qiziqishlari kuchayadi.

Bu usuliyot qanday yaratilgan va unga qanchalik ishonish mumkin?

Hozirgi paytda xorijiy va rossiyalik mualliflarning bola rivojlanishi darajasini baholashga imkon beradigan ko'plab usuliyotlari mavjud. Biroq bizning sharoitda ularning hammasidan ham foydalanib bo'lmaydi. Bu, albatta, "bizning" bolalar rivojlanishida orqada qolayotganliklari bilan bog'liq emas. Bu shuning uchun sodir bo'layaptiki, turli millatlar madaniyati ta'siridan ozod bo'lgan axloqning hamma uchun umumiy, universal shakllarini belgilash o'ta murakkab. Bolaning psixoiqtimoiy rivojlanishi xaritasi mualliflari xalqaro tajribani umumlashtirib savolnoma uchun faqat bola xulqining bizning sharoitda "ishlaydigan" shakllarini tanlab oldilar. Bu homiladorlik davri tabiiy, mo'tadil o'tgan, bolani ko'krak suti bilan ovqatlantirayotgan, o'rta darajadagi daromadli oilalarda o'sayotgan 2 mingdan ziyod sog'lom bolani ko'rikdan o'tkazilganidan keyin bajarildi. Xaritaga o'ziga xos bunday bolalarning aksariyat xususiyatlari kiritilgan.

Bola o'sayatpi va uning imkoniyatlari ham kengayayapti. Albatta, bolalar bir-birlariga o'xshamaydilar, lekin muayyan yoshdagi ko'pchilik bolalar uddasidan chiqadigan ba'zi faoliyat turlari mavjud. Xuddi shu faoliyat turlari Bolaning psixoiqtimoiy rivojlanishi xaritasiga kiritilgan. Ularning soni yoshi kattalashishi bilan o'zgaradi – eng kichik bolalar uchun beshdan, 19-24 oylik bolalar uchun o'n birgacha; ularning mazmuni ham o'zgaradi – avval bu oddiy (harakatli va hissiy) reaksiyalar, keyin esa bolaning murakkab harakatlari, uning bir joydan boshqa joyga ko'chishi, nutq xususiyatlari yanada ko'proq og'irlikka ega bo'ladi.

Xaritaning alohida bandlari asosida bolaning psixoiqtimoiy rivojlanishi darajasining umumiy ko'rsatkichi, ya'ni uning ko'pchilik tengdoshlarida ko'rinadigan biror bir narsani eplay olishi darajasi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich nutqiy, motor (harakatli) va bolaning iqtimoiy rivojlanishi parametrlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Мемьерякова С.В., Авдеева Н.Н. Особенности психической активности ребенка первого года жизни /Под ред. О.С. Андрианова. М., 1993
2. Муминова Л.Р., Чичерина Я.Я., Нуркельдиева Д.А., Назарова Е.Н., Хисамутдинова В.И., Сакыева Л.Е. Диагностика психологического развития детей первых трех лет жизни / Методическое пособие. Ташкент, 2008

3. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalar diagnostikasi” Toshkent-2016

Mavzu: 1 yoshdagi bolalarning psixik rivojlanish shkalasi

Reja

1. Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish
2. Logopedik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablar
3. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish
4. Ikki yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish
5. 2 yoshu 7oylikdan 3 yoshgacha

Tayanch tushunchalar:

- ✓ *Impressiv nutq*-ichki nutq
- ✓ *Ekspressiv nutq*-tashqi nutq
- ✓ *Amorf*-(yun. *Amorphos-shaklsiz*)-amorf gaplar-tushunarsiz va shaklsiz gaplar

Ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish

Ilk yoshdagi bolalami logopedik tekshirishning maqsadi - bolaning nutqini rivojlanishini uning yoshiga, intellektual rivojlanishiga mosligini, nutqidagi buzilishlarni aniqlash va nutqining xususiyatlarini o'rganishdir.

Ilk yoshdagi bolalami logopedik tekshirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Bolaning nutqini paydo bo'lgunicha davrining xususiyatlarini va ilk nutqiy rivojlanishini aniqlash va tavsiflash;
- ✓ Impressiv (nutqni tushunishni) nutqning rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;
- ✓ Ekspressiv nutqning (faol nutqni) rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;
- ✓ Nutq buzilishlarini differensial tashxis qilish;
- ✓ Nutq paydo bo'lgunga qadar va nutqning yuzaga kelgandan keyin rivojlanish darajasining bolani umumiy psixik rivojlanishiga mosligini, muvofiqligini aniqlash;
- ✓ Logopedik korreksiyaning mos sharoitlarini aniqlash;
- ✓ Ota-onalarga nutqida nuqsoni bo'lgan bolalami o'qitish yuzasidan maslahatlar;

Logopedik tekshirish o'ziga nutqiy anamnezni yig'ishni, boshqa anamnezlar bilan tanishish, artikulyatsiya a'zolarining tuzilishi va harakatchanligini tekshirish, nutqning ohangi, su'ratini (prosodik tomonlarini), tovushlar talaffuzi va fonematik idrokni, nutqning impressiv va ekspressiv tomonlarini (lug'ati, grammatik qurilishi, jumlati va bog'langan nutq) o'rganishni o'z ichiga oladi. Bir yoshgacha bo'lgan harakatning qo'pol buzilishlari kuzatilgan bolalarni tekshirishda reflektor harakatlarning, bolalarning qichqirishi hamda ovoz reaksiyalarini o'rganish zarur.

Ilk yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishini tekshirishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: anamnetik ma'lumotlarni yig'ish, ota-onalar bilan

suhat, bolaning o'yin faoliyatida barcha nutq jarayonlarini bevosita kuzatish, bolaning faoliyati jarayonida hamda eksperimental sharoitda o'rganish.

Shuni e'tiborga olish zarurki, ilk yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish o'ziga xususiyatlarga ega. Bir yoshgacha bo'lgan bolaning nutqini paydo bo'lguniga qadar davrini o'rganish murakkab bo'lib, u nerv sistemasining yetilmaganligi, nutq sensor, motor, kognitiv funksiyalarning va hislarning me'yorda va patologiyada o'zaro chambarchas bog'liqligidan kelib chiqadi. Bolaning nutq paydo bo'lgunigacha va nutqiy imkoniyatlarini baholash uning barcha nerv-psixik rivojlanishi va harakat doirasining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'tkaziladi.

Ilk yoshdagi bolalar doimo ham eksperimentator bilan oson aloqaga vatopshiriqlarni bajarish faoliyatiga kirishmaydilar. Shuning uchun ilk yoshdagi bolaning nutqini tekshirishda logoped bola bilan ijobiy hissiy aloqani o'rnatib olishi logoped ilk yoshdagi bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini, turli yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish metodlarini bilishi muhim, logopedik tekshirishni esa bolaning ushbu yoshi uchun yetakchi bo'lgan faoliyat turini e'tiborga olgan holda o'tkazishi kerak. Bu metodlarni qo'llash orqali logoped nutq nuqsonlarining turli formalarini differentsiatsiya qila olishi va ularni intellektning yetishmovchiligida, hissiy-irodaviy kuzatiladigan nutq nuqsonlaridan ajrata olishi mumkin.

Logoped nutq buzilishlarining nevrologik asoslarini bilishi va bolalar patopsixologiyasi bo'yicha, ularda ko'p kuzatiladigan psixik buzilishlar formalari haqida ham ba'zi tushunchalarga ega bolishi lozim. Bu bilimlar nutq buzilishlarining tuzilishini to'g'ri aniqlashga, korreksiyalash, o'qitish va tarbiyalash ishlarining eng maqbul yo'llarini tanlashga imkon beradi.

Logopedik tekshirishni o'tkazishga qo'yiladigan talablar

Logopedik tekshirishni anamnezni to'liq o'rganib bo'lingandan va tibbiy tekshiruvdan so'ng o'tkazish maqsadga muvofiq. Bola haqida olingan ma'lumotlar logopedga nutq nuqsonining kelib chiqishi, kechishini aniqlashga, tekshirishda to'g'ri yo'nalishga, bolaning yoshiga, uning motor, sensor va intellektual imkoniyatlariga mos metodlarni tanlashga yordam beradi.

Ilk yoshdagi bolaning hissiy-kommunikativ doirasining xususiyatlariga bog'liq holda logopedik tekshirishni psixologik tekshirishdan so'ng yoki u bilan parallel ravishda logopedik usullarni qo'llab o'yin tarzida, bolani qiziqtirib o'tkazish, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarni onasining yonida, ba'zi hollarda bola onasining tizzasida o'tirgan holda tekshirish tavsiya etiladi, chunki bu yoshdagi bolalarda yuzaga keladigan qo'rquv, xavotirlanish nutqiy negativizmni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikki yoshdan katta bo'lgan bolalar odatda berilgan yangi o'yinchoqlarga qiziqadilar. Bu yoshdagi bolalarni tekshirish vaziyatiga ularni maxsus tashkil etilgan o'yin faoliyatiga jalb etish orqali oson kechadi. Nutqiy materialning barchasi nutqiy ontogenezni e'tiborga olgan holda tanlanishi zarur. 1 yoshu 3 oylikda 3-5ta yaxshi

tanish bo'lgan predmetlarning rasmlari, ko'rib chiqish uchun - lta predmet rasmi qo'shimcha qismlarsiz, statik (tik turgan) holatda beriladi.

1 yoshu 6 oylikda 5-7ta rasmlar orasidan kerakli predmetni topish taklif etiladi. Taklif etilgan rasmlarda predmet bola uchun tushunarli bo'lgan qismlardan tashkil topgan bo'lishi kerak.

1 yoshu 9 oylik bolalarga sodda mazmundagi voqeaband rasm (qo'g'irchoq stulda o'tiripti, mushuk koptok o'ynayapti va hokazo) mos bo'ladi. Ikki yoshda sodda ikki pog'onali ko'rsatmalarni, masalan "Kubikni ol va onangga ber" berish mumkin.

Ikki yoshdan so'ng bolalar ancha chuqur mazmundagi syujetni tushunishga qodir bo'ladilar.

Fonematik idrokning shakllanganligini o'rganish uchun 2 yoshu 6 oylikdan turlicha ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar qo'llaniladi, 3 yoshdan esa rasm-simvollar va paronim so'zlamini ifodalaydigan predmetlarning yassi, tekis rasmlaridan foydalaniladi.

Jumlali nutqning shakllanganlik darajasini tekshirish uchun bola bilan ko'rgazmaga tayangan holda (ertak personajlari) tanish bo'lgan ertakdan bir parchani eslab bevosita suhbat metodi qo'llaniladi.

Eksperssiv (tashqi) nutqga ega bo'lmagan bolalarni tekshirishda nutqiy diqqatning ifodalanganligiga, bola ovozga diqqatini qaratishiga, intonatsiyaga mos reaksiyasiga; ovoz faolligining mavjudligiga va artikulyatsiya a'zolari harakatlarining ixtiyoriy yoki reflektoriliga e'tibor beriladi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish

Bir oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: u bilan gaplashilganda javob sifatida alohida tovushlar chiqaradi.

Tekshirish metodikasi: katta odam chalgancha yotgan bolaga uning ko'zidan 23- 30 sm masofada engashadi. O'zining yuziga nisbatan bolaning diqqatini tortadi, uni erkalatib gaplashadi, ba'zi tovushlarni cho'zib (5 martagacha) talaffuz etadi.

Bola uchun yordam: agarda bola tovushlarni talaffuz etmasa, u bilan gaplashish 1-2 minutgacha cho'ziladi. Agarda shunda ham javob tovushlari bo'lmasa, bolani alab-siypalash, rag'batlantirish lozim.

Bolaning o'zini tutishi: katta odamning bir necha marta unga qarab murojaat qilishiga bola alohida tovushlar bilan javob beradi. Bir qancha vaqtdan (bir necha daqiqadan 1 minutgacha) so'ng javob berishiga ham yo'l qo'yiladi. Agarda bu vaqt oraliq'ida istalayotgan xulq yuzaga keltirilmasa, unda bolaning beixtiyoriy vokalizatsiyasiga (ovoz chiqarishiga) diqqat qaratiladi va ularni boshqa topshiriqlarni rajanshida hisobga olinadi. Bir oylikda barcha shartli reflekslar namoyon bo'lishi lozim.

Ikki-uch oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: Gugulash tovushlarini talaffuz etadi.

Tekshirish metodikasi: bolaning bo'g'iz tovushlarini aytishi uchun uni orqasi bilan yotqiziladi, bolani erkalatib murojaat qilinadi yoki bolaning onasidan u bilan hissiy "gaplashish" so'raladi. Agarda go'dak tekshirish davomida hech qanday bo'g'iz tovushlarini talaffuz etmagan bo'lsa, unda onasidan: "Sizning farzandingiz qorni to'q, dam olgan vaqtlarida qandaydir tovushlarni aytadimi? "Bu tovushlar qanday eshitiladi?"-, deb so'raladi. Go'dakning onasi bola talaffuz etadigan tovushlarni bayon qilishga qiynalsa, unga logoped yordam berishi mumkin. Namuna sifatida logoped go'dakning onasiga gugulash tovushiga o'xshash tovushlarni misol tariqasida talaffuz etadi.

Bola uchun yordam: agarda taktil-hissiy aloqada tovushlarni aytirishning iloji bo'lmasa, logoped bolaning nafas chiqarishini nafas gimnastikasi yordamida vokalizatsiya qilishga urinishi mumkin: dastlabki holat - orqasi bilan yotqizish. Ko'krak qafasini, uning yon va oldi tomonlarini ritmik ravishda asta bosish. Nafas chiqarishda logoped gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Bu metod 2 xaftalikdan 3 oylikkacha boigan bolalarda qo'llanilishi mumkin. 3 oylikda dastlabki holat - bola orqasi bilan yotqiziladi. Bolaning bukilgan qo'llarini biroz yon tomonlarga stolning ustida yengilgina sirpantirib ochish (nafas olish), so'ngra ularni bukilgan holatda asta ko'krak qafasining yon tomonlarining ustiga bosish (nafas chiqarish). Nafas chiqarishda logoped gugulash tovushlarini talaffuz qiladi.

Bolaning o'zini tutishi: kattalarning bir necha murojaatidan so'ng go'dak alohida tovushlar bilan javob beradi: a) go'dak birin-ketin unilarga o'xshash tovushlar (ayniqsa, "ye" va "i"ga) chiqara boshlaydi. Asta-sekin undoshlar qo'shila boradi. Bu so'zlarning artikulyatsiyasi qisman noaniq, ba'zan esa umuman tushunarsiz bo'ladi; Ba'zan 3 oylikda bola ko'pincha orqasi bilan yotib velyar "r" tovushini talaffuz etishi mumkin.

To'rt oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: Faol turli gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Gugulashda o'ziga-o'zi taqlid qiladi; bola bilan hissiy nutqiy aloqa qilinganda unga javoban qattiq kuladi; sokin va ritmik musiqaga turlicha munosabat bildiradi.

Tekshirish metodikasi: bola tomon engashib, uni erkalatib, bir necha marta unga qarab gaplashiladi. Agarda bola ovoz reaksiyalari bilan javob bermasa, onasiga savol beriladi: "Farzandingiz qanday tovushlarni talaffuz qiladi?", "Uxlab turganidan so'ng, kayfiyati yaxshiligida o'z-o'zi bilan gaplashadimi?", "Bolangiz qanday xursand bo'ladi, kulishni biladimi?,, "Sokin va ritmik musiqaga qanday munosabat bildiradi?"

Besh oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: guvrashni (bo'g'inlarni talaffuz etish) paydo bo'lishi.

Tekshirish metodikasi: odatda bolaning kayfiyati yaxshi vaqtlarda guvrashning dastlabki tovushlari paydo bo'la boshlaydi. Agarda bu tovushlarni spontan eshitishning iloji bo'lmasa, go'dakning onasi yoki tekshiruvchi bolani ushbu bo'g'in zanjirlarini aytishga undaydi. Agarda tekshirish vaqtida buning ham uddasidan chiqilmasa, bolaning onasidan: "Farzandingiz kayfiyati yaxshi vaqtlarda qanday tovushlarni talaffuz etadi?", deb so'raladi.

Onasi tomonidan bayon etilayotganda logoped bola bo'g'inlarning ketma-ket zanjirini talaffuz etishiga ahamiyat beradi. Agarda bunday bo'lmasa, logoped namuna keltiradi va onasidan bunga o'xshash tovushlarni bola qanday talaffuz qilishini eshitganligi so'raladi.

Olti-yetti oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqotpredmeti: bo'g'inlarni talaffuz etadi.

Tekshirish metodikasi: bo'g'inlarni talaffuz etishga undaydigan omil sifatida katta odamning bola bilan gaplashishi zarur emas, ammo unga murojaat qilinganda bola quvonadi. Tekshirish vaqtida bola tomonidan beixtiyoriy (spontan) talaffuz stilgan barcha tovushlar e'tiborga olinadi (belgilab boriladi).

Agarda tekshirish vaqtida tegishli tovushlarning, quvonch qichqiriqlarini eshitishning iloji bo'lmasa, bolaning onasi yoki logoped bola bilan taktil-hissiy aloqa o'rnatishga urinib ko'radi. Bola bilan bunday "gaplashish" vaqtida biroz to'xtalish qilish lozim, bu vaqtda bola artikulyatsiya a'zolarining tegishli harakatlarini "topib" olishi mumkin. Agarda tekshirishning nihoyasigacha bola birorta ham bo'g'inlarni talaffuz qilmasa, uning onasidan "Farzandingiz qichqiriqdan boshqa qandaydir tovushlarni talaffuz etadimi?", "Ular qanday aytiladi?" Va "Farzandingizning kayfiyati yaxshi vaqtlarda quvonchli qattiq qichqiriqlar chiqaradimi?", deb so'raladi. Agarda bolaning onasi farzandining qanday tovushlar chiqarishini ko'rsatishga qiynalsa, logoped namuna keltiradi.

Agarda taktil-hissiy aloqada tovushlar chiqarishning uddasidan chiqilmasa, logoped bolaning nafas chiqarishini nafas gimnastikasi yordamida vokalizatsiyalashga urinib ko'radi:

Katta odam bolaning qo'llarini ushlab ularni yon tomonga va yuqoriga ko'taradi (nafas olish) va galma-galdan o'ng qo'lini chap qo'lga va chap qo'lini o'ng qo'lini holda ko'kraging ustiga qo'yadi (nafas chiqarish). Bolaning nafas chiqarishida logoped gugulash tovushlarini talaffuz etadi. Bu usul 6-12 oylik bolalarda qo'llaniladi.

Ko'rishida, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda guvrashning (bo'g'inlarni talaffuz etishning) shakllanishini orqada qolishi natijasida tovush va artikulyatsiya mimikasi o'rtasida bog'lanishlar yuzaga kelmaydi.

Sakkiz oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

Tadqiqot predmeti: so'z-belgilarni tushunadi

Tekshirish metodikasi: tekshirish bolaning ota-onasining yordamida o'tkaziladi, chunki bu davrda bola nutqni tushuna boshlaydi, vaziyatga munosabatini bildirishga qodir bo'ladi. Bunda bolaga gapirayotgan odamning gavdasini holati, uning ko'rinishi, sharoit, intonatsiyasi, ovozinin tembri ahamiyatli bo'ladi.

Tekshirishni o'tkazishda predmet, uning joyi, gapirayotgan odamning ovoz tembri va intonatsiyasi bolaga yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Bolaning onasi logopedning savollariga javob berishga qiynalgan vaqtlarda undan uyida bola agarda o'yinchoq uning ko'ziga ko'rinmaydigan joyda bo'lsa nigohi bilan uni izlashga harakat qilishiga e'tiborini qaratish so'raladi.

Bola uchun yordam: agarda bola o'yinchoqqa qaramasa, katta odam bolani qo'lga olib o'yinchoq yoniga olib keladi, uning nomini aytadi va ".....qani?",

Deb so'raydi va darhol uni ko'rsatadi. O'yinchoqni o'miga shunday tarzda qo'yadiki, bola uni kuzatsin va uana boladan uni so'raydi.

20-30 sek. To'xtalishdan so'ng bolaning o'yinchoqni nomini tushunganligi tekshiriladi, ammo bunda o'yinchoq bolaning oldiga ko'rsatmasdan qo'yiladi.

To'qqiz va o'n oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

O'rganish predmeti: turli tovushlardan iborat bo'g'inlar zanjirini (3-5ta bo'g'indan iborat) talaffuz etadi; 2-4 so'z ko'rsatmasini 9 oylikda, va 4-7 ko'rsatmani 10 oylikda tushunadi.

Tekshirish metodikasi. Bu yoshdagi bola tekshirish vaziyatida doimo ham ovoz faolligini ko'rsatmaydi, chunki notanish vaziyatdan qo'rqishi mumkin. Shu sababli tekshiruvchi bolaning malakalarini baholash uchun onasidan: «Farzandingiz 3-4ta bir xil bo'g'inlarni, masalan, «ma-ma-ma», «ta-ta-ta», «ba-ba-ba» va boshqalarni talaffuz etadimi?» deb so'rashi kerak. Agarda bola aloqaga yaxshi kirishsa unga 3-4ta o'yinchoq ko'rsatiladi, ularni bola topishi kerak. So'ngra ularning joylari

O'zgartiriladi va so'raladi: ".....qani?" Savol 2-3 marta takrorlanadi. Bola uchta

O'yinchoqdan ikkitasini topganidan so'ng ular joylari bilan almashtiriladi va yana bir marta o'yinchoqlar haqida savol beriladi.

Bolaga yordam. Agarda bola aytilgan o'yinchoqlarni ".....qani?" Savollari bo'yicha qidirmasa, tekshiruvchi o'rgatuvchi yordam ko'rsatadi: «ayiqcha qani?» Qara: mana ayiqcha!». So'ngra ayiqchani yashiradi: «Ayiqcha yo'q». «Mana ayiqcha». Shundan so'ng u ana boladan so'raladi.

Agarda tekshirish vaqtida bolada istalayotgan javob reaksiyasini yuzaga keltirishning iloji bo'lmasa, unda bolaning onasi farzandining uy sharoitidagi berilgan topshiriqqa tegishli o'zini tutishini aniq misollar orqali ko'rsatadi.

O'n bir oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

O'rganish predmeti: bo'g'inlarni va ba'zi so'zlarni (dada, oyi, opa va h-zo) talaffuz qiladi; 6-10 ta so'z ko'rsatmalarini tushunadi.

Tekshirish metodikasi: bu yoshdagi bolani tekshirishni o'yin vaziyatida o'tkazish iozim. Kuchukni ovqatlantirish, qo'g'irchoqni uxlatish (ko'rsatib bermasdan) va h-zolar so'raladi. Ko'rsatma 2 marta takrorlanadi va bolaning harakatlari 5 minut kuzatiladi.

Bolaga yordam. Agarda bola ko'rsatmani bajarmasa, logoped uning oldiga o'yinchoqni qo'yadi va yana bir marta topshiriq takrorlanadi. So'ngra bolaga talab etilayotgan harakat ko'rsatib beriladi. Bola bilan o'ynayotib, undan sodda, bola uchun tanish bo'lgan, masalan: «ol, qo'y, ber, ko'rsat, tashla, buyoqqa kel, itar, kiydir, mumkin emas» kabi harakatlarni bajarish so'raladi. Agarda bola aytilayotganlarga e'tibor bermasa, so'zlar tushuntiruvchi imo-ishoralar bilan birgalikda aytiladi.

Tushunilayotgan nutqda dastlabki umumlashtirishlarni aniqlash uchun boladan ikkita bir xil predmetni ko'rsatish so'raladi.

O'n ikki oylik bolani tekshirish metodlari va yo'llari

O'rganish predmeti: bir necha predmetlarning nomini, harakatlarni, ismlarni tushunadi (ko'rsatilmasa ham), ba'zi topshiriqlarni (top, ber, qo'y, ber, mumkin emas a h-zo) bajaradi; 5-10ta bo'g'in-so'zlarni, tovushlarga o'xshatishlarni talaffuz qiladi.

Jihoz: o'yinchoqlar, bola doimo kiyadigan kiyimlar, foydalanadigan predmetlar.

Tekshirish metodikasi: avval xonaga bolaga tanish bo'lgan bir necha predmetlar qo'yiladi. So'ngra tekshiruvchi onasiga ko'rsatmali ishoradan foydalanmasdan predmetlardan birini, masalan :«menga koptokni olib kel!» yoki ; qo'g'irchoqni stol ustiga qo'y»va h-zo'larni so'rashi iltimos qilinadi.

Bolaga tanish bo'lgan o'yinchoqlar, predmetlar beriladi. «Bu nima?», «Bu kim?» «Kuchukcha qanday gapiradi?», «Mushuk qanday miyovlaydi?»

Ikki yoshdagi bolalarni logopedik tekshirish

1 yoshu 1 oylikdan 1 yoshu 3 oylikkacha

Impressiv nutq

1. Atrofidagi predmetlarning nomini tushunadi.

Jihoz: hayvonlarni, transportni, maishiy jihozlarni tasvirlovchi 3-4ta o'yinchoq.

Tekshirish metodikasi: a) bola oldiga 4ta nazorat predmetlari (qo'g'irchoq, mashinacha, kuchuk, koptok) qo'yiladi. Tekshiruvchining: «qani?» savoliga

Javoban bola barcha predmetlarni ko'rsatishi kerak. So'ngra predmetlarning o'rnilari o'zgartiriladi va boladan yana so'ralgan predmetni topish ko'rsatmasi beriladi. Agarda bola yanglishsa yoki nomi aytilgan o'yinchoqni nigohi bilan qidirmasa, tekshiruvchi unga faqat ikkitasini ko'rsatadi va: «.....qani?», deb so'raydi Javob

Bo'lmaganda bitta o'yinchoqni ko'rsatadi va uni nomini aytadi. Ikkita o'yinchoqning nomini aytish, so'ngra ularni boshqa nazoratlilar orasida ular haqida so'rash mumkin. Agarda bola uchtdan kam bo'lmagan predmetlarni topsa,

ko'rsatsa topshiriq 1 bajarilgan hisoblanadi; b) bolaning diqqati kiyimlarga, poyafzallarga (ishtonlar, shapka, tufla, ko'ylak) qaratiladi va « qani?», deb ulami ko'rsatish so'raladi. Agarda bola predmetlarni izlamasa yoki yanglishsa, tekshiruvchi ulami birgalikda qidirishni taklif etadi. Bolani biror predmetning oldiga olib boradi va: «, qani?» deb so'raydi. Bola bilan birgalikda to'rtta predmetdan ikkitasini topish mumkin. So'ngra o'yinchoqlarni yana ko'zga ko'rinadigan joyga qo'yiladi va ularni topish, ko'rsatish so'raladi.

2. Harakatlarning nomini tushunadi.

Jihoz: voqeaband o'yin uchun o'yinchoqlar.

Tekshirish metodikasi: bolaga «qo'g'irchoqni ovqatlantir», «Qo'g'irchoqni krovatga yotqiz», «kuchukka suv ber», «qo'g'irchoqqa qalpog'ini kiydir» va shunga o'xshash harakatlarni bajarish taklif etiladi. Agarda bola harakatlarni bajarmasa, tekshiruvchi uni o'rgatadi, so'ngra yana topshiriqni bajarishni so'raydi.

Ekspressiv nutq: bola turli bo'g'in-so'zlarni, tovushga taqlid qilishni, undov so'zlarni qo'llay oladi. A, i, p, b, m, u tovushlarini talaffuz etadi.

Faol lug'atning rivojlanish darajasi so'rash, bolaning o'yin faoliyatini kuzatish metodi orqali aniqlanadi

1 yoshu 4 oylikdan 1 yoshu 6 oylikkacha

Impressiv nutq

L.Muhim belgilari bo'yicha dastlabki umumlashtirishlar.

Jihoz: ba'zi bir belgilar bo'yicha farqlanadigan ikkita o'xshash predmetlar.

Tekshirish metodikasi: bir necha predmetlar, masalan, yumshoq matodan yasalgan kuchukcha, rezinadan qilingan kuchukcha, yumshoq matodan yasalgan mushukcha, qo'g'irchoq taklif etiladi, va kuchukchani va yana kuchukchani ko'rsatish so'aladi.

Ustida, ichida ko'makchi otlarni tushunishi.

Jihoz. Kubik, mashina, koptok, quticha.

Tekshirish metodikasi: boladan kubikni mashina ichiga, mashinani stul ustiga qo'yish, mashinani quti ichiga solish sotaladi.

3. Gavdaning 1-4ta qismini ko'rsata oladi.

Dastlab bolaning onasidan farzandining gavdaning qaysi qismlarini bilishi aniqlanadi.

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: nutqiy boimagan tovushlarni ajratadi (1 yoshu 6 oylik).

Jihoz. Childirma, qo'ng'iroqcha, yog'och qoshiqlar.

Tekshirish metodikasi: bolaga nima ovoz chiqarganini topish taklif etiladi.

Ekspressiv nutq: tovushlarga taqlid qilish, bo'g'in-so'zlar, predmetlarni va harakatlarni anglatuvchi so'zlar. A, u, o, i, m, p, k, g, d, b, n tovushlari.

Tekshirish metodikasi: bolaga o'yin vaziyatida turli o'yinchoqlar, maishiy ihozlar ko'rsatiladi va: «Bu nima?», «Bu kim?», deb so'raladi.

1 yoshu 7 oylikdan 1 yoshu 9 oylikkacha

Lmpressiv nutq:

1. Sodda hikoyalarni va kattalarning voqayeband rasm bo'yicha bergan savollarini tushunadi.

Jihoz: mazmuni tushunarli, bolaning yoshiga mos bo'lgan turli voqeaband

Rasmlar: qizcha uxlayapti, ovqat yeyapti, cho'milyapti, kiyinyapti va x-zo taklif siladi.

Tekshirish metodikasi: tekshiruvchi bolaning oldiga rasmlarni qo'yadi va "qizchaning uxlayotganini ko'rsat", «Qizchaning cho'milayotganini ko'rsat», deb "topshiriq beradi. Agarda bola berilayotgan savollarga tegishli rasmlarni ko'rsatishga qiynalsa, u bilan birgalikda rasmlar ko'rib chiqiladi va alohida personajlarga tegishli savollar beriladi.

1. «tagida» ko'makchi otining ma'nosini tushunadi.

Jihoz. Stul tagida yotgan predmet.

Tekshirish metodikasi: bolaga stul ustidagi ruchkani, stul tagidagi ruchkani olish va hokazo ko'rsatmalari beriladi.

2. Otlarning birlik va ko'p!Ik shakllarni ajratadi (1 yoshu 9 oylik)

Jihoz: bu yoshda haqiqiy predmetlardan, shuningdek rasmlardan foydalanish mumkin: qalam-qalamlar, mashina-mashinalar va hokazo.

Tekshirish metodikasi: bolaga ko'rsatish taklif etiladi (mashina qani, mashinalar esa qani, mashinani ber, mashinalarni ber).

3. Fe'llarning o'zlik nisbatida ifodalangan so'z-harakatlarni tushunadi.

Jihoz: rasmlar (qo'g'irchoq qolini yuvyapti, qo'g'irchoq yuvinyapti, bola mashinani g'ildiratyapti, bola mashinada uchyapti, qiz kiyiyapti, qiz kiyinyapti).

Tekshirish metodikasi: boladan qayerda kiyayayotganini, qayerda kiyinayotganini ko'rsatish so'raladi va hokazo.

Uch juft rasmdan 2-3 tasini ko'rsatadi.

4. Kichraytirish qo'shimchalari mavjud so'zlarni tushunadi (1 yoshu 9 oylik).

Jihoz: haqiqiy predmetlar yoki rasmlar: katta mashina, kichkina mashina, katta stul, kichkina stul va hokazo.

Tekshirish metodikasi: bolaga katta mashinani, mashinachani, stulni va stulchani ko'rsatish taklif etiladi.

5. Yuz va gavdaning 3-5 qismlarini ko'rsatadi.

Tekshirish metodikasi. Bola bilan hissiy aloqa o'rnatib, ko'zini, bumini, og'zini ko'rsatish so'raladi.

Fonematik eshitish: nutq tovushlarini farqlash.

Jihoz: kuchuk, mushuk, xo'roz, sigir.

Tekshirish metodikasi. Bolaga nima ovoz chiqarganini anikqlash taklif etiladi. Bola tovushlarga taqlid bo'yicha tanish o'yinchoqlarni topadi.

Ekspressiv nutq:

1. Fe'llarni qo'llaydi, ikki so'zdan iborat jumladan foydalanadi.

Tekshirish metodikasi. Bolaning o'yin faoliyatini kuzatayotib uning barcha nutqiy imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

2. So'zning bo'lg'in tuzilishi.

1 yoshu 9 oylikda bola ikki ochiq bo'lg'inli (oyi, opa, dada), bir bo'lg'inli (non, choy, uy, gul) so'zlarini ayta oladi.

3. A, u, o, i, m, p, b, k, g, d, n, t, l, s tovushlarini talaffuz qiladi.

So'zlarda ko'pincha bosh dastlabki tovush yoki oxirgi undosh tashlab ketiladi.

1 yoshu 10 oylikdan 2 yoshgacha

Impressiv nutq

1. Bolaning tajribasida bo'lgan voqealar haqida ko'rsatilmasdan aytib berilganlarni tushunadi.

Tekshirish metodikasi. Katta odam bolaning xotirasidagi avval yuz bergan hodisalarni eslatib savollar beradi.

Jihoz: koptok, stol.

Tekshirish metodikasi: bolaga koptokni o'ynash taklif etiladi. "Kel, koptok o'ynaymiz. Endi koptok stol ustidan sakrasin. Koptokni stolning yoniga qo'y".

Jihoz: voqeaband rasmlar: kuchuk yog'ochni o'ynayapti., bola esa uning yonida

Yonida turibdi?"

3. Fe'llarning birlik va ko'plik shakllarini ajratadi (2 yosh).

Jihoz: voqeaband rasmlar: qizcha qo'shiq aytyapti, qizlar qo'shiq aytyaptilar; bola rasm chizyapti, bolalar rasm chizyaptilar.

Tekshirish metodikasi: so'raladi: Top-chi, men qaysi rasm haqida gapiraman: Qo'shiq aytyaptilar". "Rasm chizayotganlari haqidagisini ko'rsat" Ucha rasmlar juftdan bola ikkitasini ko'rsatishi kerak.

Jihoz: o'yinchoqlar: katta va kichik kuchuklar, katta va kichik mushuklar va hokazo.

Tekshirish metodikasi: boladan "Qaragin, mening qo'limda katta va kichik "ayvonlar bor. Kichiklari sekin ovoz chiqaradi, kattalari esa qattiq ovoz chiqaradi" Hozir nima ovoz chiqarganini topasan".

Ekspressiv nutq

✓ Ikkinchi shaxsda birlik va ko'plikda buyruq-istak maylidagi fe'llarni, infinitiv diarakat nomini) nutqda qodlaydi;

✓ Bosh kelishikda otlarning ko'plik shakllarini qo'llaydi;

✓ Ravish, olmoshlarni: mana, ana, qayerda, yaxshi, kerak, kerak emas qo'llaydi;

✓ Ba'zan kishilik olmoshlarini aralashtirib yuboradi (o'zi haqida 3 shaxsda gapiradi);

✓ So'zning bo'lg'in tuzilishi; uch bo'lg'inli so'zlarni (mashina, do'lana) nutqda qo'llaydi, ba'zan bo'lg'inlarni tashlab ketishi mumkin;

✓ Sifat va olmoshlarni qo'llab uchta so'zlardan iborat gaplardan foydalanadi. Qo'shimchalarni qo'shish orqali so'z yasash malakalariga ega bo'ladi. (erkalatish, kichraytirish qo'shimchalarini)

Tekshirish metodikasi: bolani o'yin faoliyatida kuzatayotib, rasmlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishni taklif etib uning barcha nutqiy imkoniyatlari belgilab boriladi.

2 yoshu 1 oylikdan 2 yoshu 6 oylikkacha

Impressiv nutq:

1. Asosiy leksik mavzular bo'yicha predmetlarning, harakatlarning ma'nosini anglatuvchi so'zlarni tushunadi:

- O'yinchoqlar: qo'g'irchoq, ayiqcha, koptok, kubik, quyoncha;
- Idish-tovoqlar: piyola, choynak, qoshiq;
- Kiyimlar: shapka, palto, tufli, ko'ylak, ishton, mayka;
- Mebel: stol, stul, shkaf, krovat;
- Gavda qismlari: bosh, qo'llar, oyoqlar, bo'yin;
- Yuzning qismlari: ko'zlar, og'iz, burun, peshona, lab;
- Uy hayvonlari: it, mushuk, xo'roz, ot, sigir;
- Transport: mashina, avtobus, poyezd, samolyot;
- Mevalar: olma, apelsin, olxo'ri;
- Sabzavotlar: sabzi, bodring, pomidor;
- Hayvonlar gavdasining qismlari: boshi, oyog'i, dumi, ko'zi, mo'ylovi;
- Harakatlar: kiyinish, ovqatlanish, ichish, kulish, o'ynash, qurish, uchish, yuvish, silash, dazmollash, davolash;
- Sifatlar: katta, kichik, uzun, qisqa, qizil, ko'k, sariq, yashil, shirin, achchiq;
- Narechiya (ravishlar): uzoq, yaqin, past, baland, tez, sekin, qorong'i, yorug';
- Lug'at boyligini tekshirish uchun ***jihoz***: predmetlarning rasmlari, voqeaband rasmlar.

2. "orqasida", "oldida", "ustida" ko'makchi otlaming qo'llanilishini tushunadi (2 yoshu 6 oylik).

Tekshirish metodikasi: bolaga quyidagi ko'rsatmalarni bajarish taklif etiladi: "Stulning ustiga chiq", "Gilamning ustida yur", "Oynaning oldiga bor", "Qo'lingni boshing ustiga ko'tar".

3. Fe'llarning hozirgi va o'tgan zamonlarini ajratadi (2 yoshu 6 oylik).

Tekshirish metodikasi: bolaning nima qilganligi va nima qilishi haqida suhbat orqali aniqlanadi.

4. Uch pog'onali ko'rsatmani tushunadi.

Tekshirish metodikasi: boladan quyidagicha ko'rsatmalarni bajarish so'raladi: "Stulning ustidagi koptokni ol va stol ustiga qo'y" yoki "Stolning ustidagi mashinachani va koptokni ol, oyingga mashinachani ber, menga esa koptokni ber"

Eshitish diqqati va fonematik eshitish: paronim-so'zlarni farqlaydi (2 yoshu 6 oylik)

Jihoz: rasmlar (shim-cim, bosh-tosh, stol-stul va xokazo).

Tekshirish metodikasi: bolaga so'ralayotgan rasmni ko'rsatish taklif etiladi.

Ekspressiv nutq:

- Otlarni bosh, jo'nalish, o'rin-payt kelishiklarda qo'llay oladi;
- Otlarni birlik va ko'plikda qo'llay oladi;
- Fe'llarni birlik va ko'plikda qo'ilaydi, shaxslarda o'zgartira oladi (2 shaxs ko'plikdan boshqasida). Fe'llarning hozirgi va o'tgan zamonlarini farqlaydi.

So'zning bo'g'in tuzilishi: ikki bo'g'inli so'zlarni (limon, shamol) talaffuz etadi.

Tovushlar talaffuzida artikulyatsiya jihatidan bir-biriga yaqin tovushlarni almashtiradi.

2 yoshu 7oylikdan 3 yoshgacha

Impressiv nutq

Ochish, yopish, olib ketish, olib kelish, o'rash, taxlash, yoyin).

Fonematik eshitish: omonim so'zlarni farqlaydi.

Ekspressiv nutq:

- Otlarni, fe'llarni ko'plikda qo'ilaydi.

Jihoz: bitta va bir necha predmetlar tasvirlangan rasmlar;

- O'zlik nisbatidagi fe'llarning barcha shakllari paydo bo'ladi;
- Nutqida sifatdoshlar paydo bo'ladi (borgan, kelgan, ketgan).

Tekshirish metodikasi: bola bilan rasmlarni qo'llab ushbat o'tkazish orqali aniqlanadi.

So'zning bo'g'in tuzilishi: undosh tovushlar ketma-ket kelgan so'zlarni qo'llay boshlaydi, masalan, tarvuz, sholg'om, taksi.

Tovushlar talaffuzi: sh, j, ch, q, g'

Adabiyotlar

1. Jukova O. Kak pomoch rebenku. S.- P.: "Shkola", 2004g
2. Kojevnikova yye.V., Baranova N.Y., Klochkova yye.V. Kak uchit i razvivat detey s narusheniyami razvitiy. S.- P.: «Shkola», 2000g.
3. Obuxova L.F.. Vozrastnaya psixologiy. M.: «Nauka», 2004g

Mavzu: Tug'ilgandan to 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni psixik rivojlanishini tashxis qilish

Reja

1. Maktabgacha Yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti.
2. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari.
3. Maktabgacha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: Ontogenez, yosh davri, asosiy faoliyat ketma-ketligi, o'yinlarning psixologik xususiyatlari.

1. Maktabgacha Yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti

Ontogenezda 3 dan 7 Yoshgacha bo'lgan davr bog'cha Yoshi davri yoki maktabgacha Yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha Yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 Yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha Yoshi), (4-5 Yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha Yoshi), (6-7 Yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha Yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta Yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Bog'cha Yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha Yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha Yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, Shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha Yoshdagi bola endi o'z gavgdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha Yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 Yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhli ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha Yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha Yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha Yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3-7 Yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar.

2. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari

Ma'lumki, bolaning Yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi. **Maktabgacha Yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati o'yindir.** Bu Yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1)predmetli o'yinlar(15-20 minut o'ynaladi);
- 2)syujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi);
- 3) qoidali o'yinlar (1soatdan -2kungacha davom etishi mumkin).

Bog'cha Yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha Yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham etmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- ***birinchidan***, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ***ikkinchidan***, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. SHunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. SHuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik karakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

Bu Yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 Yoshdan 6-7 Yoshgacha o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi: predmetli-boshqaruv va ramziy o'yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o'yinlarga. Bu Yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin.

Bu Yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, qonstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhij irod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha Yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o'yinchoqlar bilan yolg'iz o'zlari o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, Shuningdek o'z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik Yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida qonkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha Yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik karakteriga ega bo'la boshlaydi. Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin jamoaviy bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. CHunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalariga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. CHunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar asosida quriladigan rollarni

va qoidalarini ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar –oilaviy (ona, ota, buvi, buva, o'g'il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi,) yoki ertak qahramonlari (bo'ri, ayiq, tulki, quyon, echki,) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularni o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

Ushbu Yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog'langan: mehnat va o'qish. Bu Yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishlarini ketma-ketligi bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha Yosh davri tahlil maqsadida shartli ravishda 3 ta davrga bo'linadi: kichik maktabgacha Yosh davri (3-4 Yosh), o'rta maktabgacha Yosh davri (4-5 Yosh) va katta maktabgacha Yosh davri (5-6 Yosh). Ushbu bo'lish Yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi jadal va sifatiiy o'zgarishlarni qayd etish uchun o'tkaziladi.

Kichik maktabgacha Yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va qonstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu Yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarida odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin birgalikda bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollilariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlarda quriladigan rollarni va qoidalarini ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Syujetli-rolli bolalar o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar – bu qoidaga muvofiq, oilaviy rollar (ona, ota, buvi, buva, o'g'il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi) yoki ertaknamo (echkicha, bo'ri, quyon, ilon) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar odamlar, kattalar yoki bolalar, yoki ularni o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

O'rta va katta maktabgacha Yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha Yosh davridan o'yinlarga kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzulari, rollari, o'yin harakatlarining qoidalari bilan katta turli-tumanligi bilan farqlanadi. Tabiiy xarakterdagi ko'pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va ramzli o'yin boshlanadi. Masalan, oddiy kubik o'yindan va unga ajratilgan roldan qat'iy nazar ramziy ma'noda mebellar va mashinalarni, odamlar va hayvonlarni namoyish etadi.

O'yinlarda asosiy rol qoidalarga rioya qilishga va munosabatlarga, masalan, subordinatsiyaga ajratiladi. Bunda birinchi marotaba liderlik paydo bo'ladi, bolalarda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Shu bilan bir qatorda o'yinli individual faoliyatning ramziy shakllaridan yana biri rasm chizishdir. Unga sekin-asta ko'proq tasavvur, xayol va tafakkur qo'shib boradi. Bola ko'rganlarini tasvirlashdan vaqti bilan bilganlarini, xotirasidagi va o'zi o'ylab topganlarini chiza boshlaydi. O'yin-musobaqalar alohida sinfga ajratiladi, unda yutuq va g'oliblik bolalarni juda jalb qiladi. Taxmin qilinishicha, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta maktabgacha Yosh davrida qonstruktorlik o'yini mehnat faoliyatiga aylana boshlaydi, o'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimanidir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi. Bola o'yinda ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi, ko'p harakatlari va aqliy operatsiyalari, tasavvur va xayoli takomillashadi.

Bu Yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san'at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o'ziga xosligi haqida mushohaza qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan tassurotlari va bilimlarini etkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. (kasallik, kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog'lomlarnikidan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi.

Maktabgacha Yosh davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag'ishlaydi. Bu Yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qiziqish paydo bo'ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o'rganadilar. Qo'shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hech bir Yosh davri ushbu Yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarni rivojlanishi zarurati bilan bog'liq. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, o'yinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatdir. Bu Yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, qonstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhij ijdod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga o'quv faoliyati qo'shiladi va 5-6 Yoshli bola eng kamida faoliyatning 7-8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani o'ziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlantiradi.

Bog'cha Yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham etmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi,

xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- **birinchidan**, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- **ikkinchidan**, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda katgalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. SHunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-

harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks etgiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik Yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida qonkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar holos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha Yoshdagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha Yoshdagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega, o'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakteri, kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha Yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va qonstruktorli o'yinlar orqali bu Yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 Yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo'lib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. CHunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. CHunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha Yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha Yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish

xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha Yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bu Yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha Yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu Yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o'yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha Yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta bog'cha Yoshida konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o'yinda bola sodda mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3-7 Yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 Yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhli ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Maktabgacha Yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlarini aytib bering?
3. Maktabgacha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
4. Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yinlarini nechaga bo'lish mumkin
5. 3-7 Yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati qanday ketma-ketlikda kechadi?

Mavzu: Mutaxassislarning rivojlanishida muammolari bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaga psixologik-pedagogik hamrohlik bo'yicha ishlari

Reja:

1. Nogironligi bo'lgan bola rivojlanishining asosiy tamoyillari
2. Ota-ona va mutaxassislar bilishi zarur bo'lgan qoidalar.
3. Nogironligi bo'lgan bolalar ehtiyojlari

Tayanch tushunchalar

✓ *Amorf*-(yun. *Amorphos-shaklsiz*)-amorf gaplar-tushunarsiz va shaklsiz gaplar

✓ *Diagnostika*-(yunoncha-“*diagnoziz*”-aniqlash) so'zidan olingan bo'lib kasallikning tavsifi va mohiyati haqidagi qisqacha tibbiy hulosasi ma'nosini anglatadi.

Nogironligi bo'lgan bola rivojlanishining asosiy tamoyillari

Oilada farzand tug'ilishi kutilmoqda. U onasi yoki otasiga o'xshash bo'ladimi? Balki u buvisiga o'xshar? Odatda, ota-ona o'z farzandining kelajagini homila vaqtidayoq rejalashtiradilar. Bola qaysi maktabgacha ta'lim muassasasiga, maktabga borishini, katta bo'lganda kim bo'lishini tasavvur qiladilar.

Mutaxassislar onaga bolaning nogironligi haqidagi ma'lumotni yetkazganlarida, bu rejalarga nima bo'ladi? Ko'pchilik tadqiqotchilar onaga bolaning tashxisi xaqida ma'lumot yetkazgan vaqtdagi tashvishli holatini ramziy ma'noda yo'qotish kechinmalari bilan taqqoslaydilar. Ota-ona kutgan farzand tug'ilmadi. Uning o'rniga boshqa farzand tug'ildi. Ota-onani birinchi larzaga solgan holat bir muncha orqaga chekingach, bola kelgusida qanday yashashi kerak, degan savol tug'iladi. Bolaga nima kerak? Kelgusida bola o'z oilasini qurishi uchun uni jamiyatning mustaqil, to'liq va teng xuquqli a'zosi sifatida voyaga yetkazish mumkinmi? Bu bolani qanday qilib voyaga yetkazish mumkin?

Ota-ona va mutaxassislar quyidagi qoidalarni bilishlari zarurdir.

1. Nogironligi bo'lgan bola boshqa bolalar kabi bir xil ehtiyojlarga ega.

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarni “alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bola” deb atash to'g'ri hisoblanadi. Qanchalik g'alati bo'lib tuyulmasin unda “alohida ehtiyojlar” yo'q. Shunchaki u muhabbat, xavfsizlikka, jismoniy ehtiyojlarining kondirilishiga, yangi taassurotlar va uni o'rab turgan atrof-muhitni bilishga ehtiyoj sezadi. U boshqalar bilan muloqot qilishi, o'yin o'ynashi va o'qishi kerak. Ya'ni boshqa bolalarga kerak bo'lgan hamma narsa unga ham kerak.

3.1-surat: Ona farzandini qo'liga olib unga quvonch bilan jilmayib qaramokda, bola esa onasiga.

Ushbu ehtiyojlarni qondiruvchi vositalar, haqiqatan ham alohida bo'lishi mumkin. Masalan, harakatida buzilishga ega bo'lgan bolaga harakat qilishi va atrof-muhitni o'rganishi uchun maxsus moslashuvi yoki yaqinlarining yordami kerak bo'lishi mumkin. Atrof-muhitni bilish uchun faqat vosita kerak, xolos. Nutqqa ega bo'lmagan bola qaysi yo'l bilan muloqot qilishi muhim emas – imo-ishoralar, maxsus suratlar – eng asosiysi uning muloqotga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi lozim.

2. Nogironlikka ega bo'lgan bola ham boshqa bolalar o'tishi kerak bo'lgan rivojlanish bosqichidan o'tadi.

Yuqoridagi bo'limlarda ko'rsatilgan sensitiv davr nogironligi bo'lgan bolalarda ham o'tadi. Agarda sensitiv davrni bola rivojlanishidagi u yoki funksiyaga

yaxshi va qulay sharoit yaratuvchi bosqich sifatida o'tkazib yuborilsa, kelgusida ularni rivojlantirish yanada murakkab, ba'zida butunlay imkoniyatsiz bo'lishi mumkin.

Masalan, bolalarda nutq rivojlanishining sensitiv davri 3 yoshgacha o'tadi. Eshitish qobiliyati va nutqqa ega bo'lmagan bola ota-onasi nima qilishi kerak? Imo-ishoralar tili – eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan kishilar uchun to'liq til hisoblanadi. Imo-ishoralar tilini egallagan bola o'z rivojlanishida eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bola kabi nutq rivojlanish bosqichidan o'tadi (yarim yoshida so'zlarni “yasaydi”, bir yoshida so'z – imo-ishoralarni, bir yarim yoshida to'liq gaplar tuzadi va «lug'at boyligi» yaratiladi).

Shunday qilib, ota-ona bola bilan imo-ishoralar tilida muomila qilish jarayonida, bir tomondan bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirsa, boshqa tomondan esa sensitiv davrda bola nutqining samarali rivojlanishini ta'minlaydilar.

3.2-surat. Ota-ona xursand holatda ko'chadagi “itni” imo-ishora orqali bolaga ko'rsatmoqda.

Sensitiv davrga e'tibor bermaslik, ushbu davrda nafaqat rivojlanishning u yoki bu tomonlarini faol rivojlanish imkoniyatini boy berish, balki quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

3. Yaxshi va qulay sharoitning yo'qligi, sensitiv davrga e'tibor bermaslik tufayli bolada ikkilamchi buzilish yuzaga keladi.

Ikkilamchi buzilish bu – bolaning birlamchi tashxisi bilan bevosita bog'liq bo'lmasdan, to'g'ri sharoit yaratish bilan bu holatdan xoli bo'lish mumkin. Misol keltiramiz. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bola xuddi o'zi kabi eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan ota-ona oilasida voyaga yetayotgan bo'lishiga qaramay, psixik rivojlanish darajasiga ko'ra o'z tengdoshlaridan qolishmaydi. Ayni paytda esa deyarli barcha eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar eshitishda nuqsoni yo'q ota-ona oilasida yashab, ikkilamchi buzilish sifatida psixik rivojlanishdan ortda qoladilar. Nima uchun? Chunki birinchi vaziyatda nutqning rivojlanishi uchun sensitiv davr boy berilmagan bo'lib, bola atrof-muhitni bilish va muloqot uchun kerak bo'lgan vosita – nutqni egallagan. Uning tengdoshi esa eshitish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona oilasida yashasa-da, bu imkoniyatga ega bo'lolmadi va rivojlanishi uchun tavsif etilgan bolaga nisbatan noteng sharoitda qoldi.

Nima uchun ko'rish qobiliyatida jiddiy buzilishga ega bo'lgan bola harakat rivojlanishidan orqada qoladi. Bu holat bolaning ko'rish imkoniyati cheklanganligi tufayli emas, balki harakat qilishi uchun qulay sharoit yaratilmaganligi uchun yuz berdi. Demak, rivojlanishida buzilishga ega bo'lgan bolalarni boshqa bolalar o'rganishi kerak bo'lgan hamma narsaga o'rgatish lozim.

Aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar bilan nima qilish mumkin? Haqiqatan xam, bu bolalar sekin rivojlanadilar, lekin ular kechikib bo'lsada, oddiy bolalar o'tadigan bosqichdan o'tadilar.

4. Bola faqat o'z tengdoshlari kabi, ularning oldida turgan vaziyatlarni hal etish va qiyinchiliklarni yengib o'tibgina muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Psixologiyada “bevosita rivojlantirish doirasi” tushunchasini kiritgan rus olimi L.S.Viigotskiy “rivojlantirish ta’limni emas, balki ta’lim rivojlantirishni yetaklaydi”, – deb ta’kidlaydi. Bevosita rivojlantirish doirasi nimani anglatadi?

Agarda bola bilan o‘zi yaxshi bajara oladigan faoliyat va o‘yin orqali mashg‘ulot olib borilsa, bola qiyinchiliklarni yengib o‘tish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, demak rivojlanishida ham orqada qolish yuzaga keladi.

Boshqa tomondan esa, vazifa bola bajarishi uchun o‘ta qiyin yoki bajarib bo‘lmas darajada bo‘lsa, bolada qiyinchiliklarni yengib o‘tish istagi umuman yo‘qoladi, o‘z-o‘zini baholash quyi darajaga tushadi hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qoladi. Ma’lumki, shtangani joyidan siljitmasdan turib, mushaklarni chiniqtirish mumkin emas, xuddi shunday vaziyat bolada turli ko‘nikmalarni shakllantirish masalasiga ham tegishlidir.

Yuzlari ovqat bilan bo‘yalgan bir yoshli bola fartukchada xursand holatda o‘tiripti, ona unga qo‘llab-quvvatlovchi jilmayish bilan qaramokda.

Ko‘pchilik ota-onalar o‘z kichkintoylariga nisbatan o‘ta g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga moyillar. Odatda, ular bolaga mustaqil kiyinishiga, ovqatlanishiga, cho‘milishiga imkoniyat bermaydilar, chunki ular nogironlikka ega bo‘lgan bola doimo boshqalarning yordamiga muhtoj deb o‘ylaydilar va bu bilan o‘zlari bolaning rivojlanishini cheklab qo‘yadilar! Nutqida va intellektida buzilishga ega bo‘lgan ba’zi bolalarda nutqni egallash motivi yo‘q, chunki ona bola xohishini darhol uning “ko‘zlaridan” o‘qib oladi va tezda bu xohishni bajarishga harakat qiladi. Albatta, nogironlikka ega bo‘lgan bolalar har qanday farzand kabi kattalarning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadi.

Bevosita rivojlantirish doirasi – bu faoliyatni bola mustaqil amalga oshira olmaydi, lekin kattalarning yordami bilan bu doiraga kirish imkoniyatiga ega. Bola bilan mashg‘ulotni shunday tashkil etish kerak-ki, hozirgacha ota-onasi bilan birgalikda bajaradigan harakatlarni asta-sekinlik bilan o‘zi mustaqil bajarishni boshlasin. Nogironligi bo‘lgan bolaning ilk rivojlanish davrida nima ro‘y beradi, turli yosh davrlarida qanday muammolarga duch keladi?

Adabiyotlar

1. V.S.Raxmonova Defektologik faoliyat va logopediya asoslari. – T.: «O‘qituvchi», 1991 y.
2. L.Mo‘minova., M.Qahramonova Logopediya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: «O‘qituvchi», 1988 y

Mavzu: Go'daklik va ilk yoshdagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaga psixologik-pedagogik hamrohlik qilish.

Reja:

1. Bola shaxsining rivojlanishida oilaning o'rni.
2. Bolaning har tomonlama rivojlanishida nutqning ahamiyati.
3. Psixologik-pedagogik rivojlanishga oid tavsiyalar.

MUTAXASSISLAR VA OTA-ONALAR NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNING rivojlanishi **XAKIDA NIMALARNI bilishlari ZARUR:** Ko'p xolatlarda bolalarni ularni ovutish, tinchlantirish, taqiqlangan narsadan e'tiborini olish va x yaxshi ovqatlantirish mumkin. Bola tug'ilgan zaxotiyoq yaxshi qofiyali she'r o'qib bering yoki qo'shiq kuylang. Ilk yoshdagi kichkintoylarni rivojlantirish usullaridan biri uning tana qismlari bilan tanishtirishdir. Bu bolaga o'zini shaxs sifatida anglashini rivojlantiradi, uning diqqatini shakllantiradi va muloqot qilishga o'rgatadi. Qiziqarli tomoni shundaki, bola tana qismlaridan aynan yuz qiyofasiga katta qiziqish bilan qaraydi, u o'z qiyofasini qolgan barcha taassurotlar ichidan ajratib oladi. Bajarayotgan ishlaringiz xaqida bolaga og'zaki tushuntirish berish juda muximdir. "Biz xozir ishtonchani kiyamiz, oldin chap oyokni, keyin o'ng oyoqni. Endi botinkachani kiyamiz va sayr qilishga boramiz" kabi tushuntirishlarni bola doimo zshitishi lozim. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ona va bola artikulyasion xarakat

Tovushlarni qaytarish bilan o'ynashi qabul qilingan. Masalan, ona lablarni

Trubka shaklida oldinga chiqaradi va bola uning orqasidan takrorlaydi. Yoki bola tovush chiqaradi, ona esa takrorlaydi. Bu kabi mashg'ulotlar bolada muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda foydali. O'yinlarni bola xayotining birinchi xaftasidayok boshlash kerak, bola ovoz chiqarish va "gu-gulash" vaqtidayok tovushlarni bir biriga bog'lay boshlaydi "o-yy-ii", "o-t-a-a", "b-b-u-v-i" o'zi, turli tovushlarni ishlatgan xolda chaqirishni o'rganadi. Bolaga o'z yaqinlarining ismlarini aytishni o'rgating. Bola o'z tana a'zolariga qaragan vaqtda ularni "o'rganadi" yoki ular muloqotga kirishadi. Unga qarab "ota - bu ota", - deb takrorlang so'ngra, boladan: "ota qaerda?", "Obid qaerda?"- deb so'rang. Kichkintoy bilan "suhbat vaqtida" uni navbat bilan gapirish qoidasiga o'rgating. Bola biron bir so'z aytib, javob uchun pauzani ushlang va so'ngra javobni ayting, shunday qilib bolada muloqotdagi muxim ko'nikmalardan birini shakllantirasiz. Barmoqlar bilan o'yin xam muxim va foydali xisoblanadi, "zag'izg'on- zag'izg'on, qaerda yashading - o'zoqda". Nutq va mayda motorikaning (barmoq va bilak xarakatlari) rivojlanishi o'rtasida bevosita boglanish mavjud. Bola bilan barmoq mashqlarini o'ynang. Bu o'yinda eng asosiysi sizning aktyorlik maxoratingiz va xissiy xolatni yorqin ko'rsata olishingizdadir. Shunda bu o'yin kichkintoyingiz va siz uchun xaqiqiy quvonchli xamda roxatli faoliyatga aylanadi. Zag'izg'on - zag'izg'on, qaerda yashading - o'zoqda, bo'tqa pishirding, bolalarni ovqatlantirding. Unga bo'tqa berding, bunga bo'tqa berding (barmoqlar bukiladi), bunisiga esa yo'q (bosh barmoq orkaga tortiladi) - Sen bo'tqa pishirmading, suv olib kelmading, o'tin yormading - ket bu yerdan! (Barmoqni "tortib olishga" va bolani kuldirishga xarakat kiling).

“Qovurilgan qo‘ziqorin”: Bu barmoq o‘rmonga bordi, bu barmoq qo‘ziqorin topdi, biri qo‘ziqorinni tozaladi, buni esa qo‘ziqorinni qovurdi, mana buni bo‘lsa (bosh barmoq) qo‘ziqorinni yeb qo‘ydi va semirib ketdi.

Bolaga o‘z yaqinlarining ismlarini aytishni o‘rgating. Bola o‘z oila a‘zolariga qaragan vaqtda ularni “o‘rganadi” yoki ular muloqatga kirishadi. Unga qarab “ota - bu ota”, - deb takrorlang so‘ngra, boladan: “ota qaerda?”, “Obid qaerda?”- deb so‘rang. Kichkintoy bilan “suxbat vaqtida” uni navbat bilan gapirish qoidasiga o‘rgating. Bola biron bir so‘z aytib, javob uchun pao‘huzani ushlang va so‘ngra uning o‘rniga javobni ayting, shunday qilib bolada muloqatdagi muxim ko‘nikmalardan birini shakllantirasiz. Barmoqdar bilan o‘yin xam muxim va foydali xisoblanadi. Nutq va mayda motorikaning (barmoq bilak xarakatlari) rivojlanishi o‘rtasida bevosita bog‘lanish mavjud.

Bola bilan barmoq o‘yinlarini o‘ynang. Bu o‘yinda eng asosiysi sizning akterlik maxoratingiz va xissiy xolatni yorqin ko‘rsata olishingizdadir. Shunda bu o‘yin kichkintoyingiz va siz uchun xakikiy kuvonchli xamda roxatli faoliyatga aylanadi.

“Oila”:

Bu barmoq buvijon, bu barmoq bobojon, bu barmoq otajon, bu Barmoq oyijon, bu barmoq esa o‘g‘limiz yoki qizimiz, uning ismi...
She‘rni o‘qib turib, barmoqlarni birin-ketin musht qiling
Yoki aksincha bolaning barmoqlarini birin-ketin oching.

So‘z va gaplarni belgilangan imo-ishoralar bilan boshlang. Masalan, bolaga “ber” yoki “bu yoqqa kel” deb aytib, unga moq imo-ishoralarni xam bajaring. Ikkinchi yilning yarmidan esa so‘zlarini imo-ishoralarsiz talaffuz qilib ko‘ring. Kichkintoy sizni tushunadimi? Imo-ishoralar ni ko‘llashni davom ettiring va yana takrorlang. Vaqt o‘tishi bilan bola nafaqat imo-ishoralarni tushunib oladi, balki ularni sizning ortingizdan takrorlaydi. qnutq faqat barcha extiyojlari qondirilgan bolada yaxshi rivojlanishini yana bir bor ta’kidlab o‘tamiz. Bola o‘z onasiga yoki o‘z yaqinlariga ruxan qanchalik yaqin bo‘lsa, uning nutqi shunchalik yaxshi rivojlanadi. Ona bolaga nutqning rivojlanishiqquchun barcha materiallarni berib, muloqatga chiqishi uchun motivlarni yuzaga keltiradi va rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Bola bilan tez-tez muloqatda bo‘ling. O‘z xissiyotlaringizni tabiiy ravishda ifodalashga va bolaning xis-tuyg‘ulariga moe ravishda javob qaytarishga xarakat qiling. Masalan, agarda bola sizni tishlasa (bola qo‘liga tushgan barcha narsani tishlab ko‘rishga xarakat kiladi) qovog‘ingizni solib, kat’iyan “yo‘q, qo‘lim og‘riydi!” — deb ayting. Agarda bola injiqlik qilsa, biron bir narsani iste‘mol qilishdan bosh tortsa, “U-uu, qanday bemaza!” - deb yoqimsiz ekanligini bo‘rttrib ko‘rsating.

Nogironlikka ega bo‘lgan bolalarning deyarli barchasi muloqat jarayonida qiyinchiliklarni xis kiladilar. Ularga yordam berish uchun yuz ifodasiga aloxida urg‘u bering, yorqin xissiy xolatda gapiring. O‘zingiz oynaga qarang. Agarda bola bilan muloqat jarayonida yetarli- xissiyotli bo‘lmasangiz, o‘zingizda bu ko‘nikma-sifatlarni shakllantirishga xarakat qiling. Ovoz va yuz ifodasiga aloxida e’tibor bering. Bola xayotining ikkinchi va uchinchi yilida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi? Agarda bola xayotining birinchi yilida o‘z-o‘zi, atrof-muxitga nisbatan muxabbat

uygʻotish va shakllantirish muxim boʻlsa, ikkinchi va uchinchi yilida bola oʻzini aloxida shaxs deb anglaydi va muvaffaqiyat xamda muvaffaqiyatsizliklar uchun qaygurishni oʻrganadi. Bola oʻz kechinmalari va xoxishlarini namoyon etishni qanday oʻrgansa, u bolaning butun umri davomida saqlanib qoladi va kelgusida oʻz maqsadiga erishishi uchun motivlari qanchalik kuchli namoyon boʻlishini belgilaydi. Bolani har tomonlama rivojlantirgan xolda quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha bolaga imkoniyatlar bering: nutqning rivojlanishi, oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish koʻnikmalarini rivojlantirish, predmetli faoliyatni rivojlantirish. Quyida bularni qanday amalga oshirish mumkinligi xakida soʻz yuritamiz.

Bu yoshdagi bola oldida turgan yana bir muxim vazifalardan biri xatti -xarakat me'yorlari va qoidalarini oʻzlashtirishidir. Bu yoshda bola “mumkin emas” tushunchasini oʻzlashtirishi lozim. Bolaga nima mumkin emasligini oʻzingiz uchun aniq belgilab oling va bunga katʻiyan amal qiling.

Yana bir marta zslatib oʻtamiz, eng asosiysi, toʻgʻri nutq emas, balki bola

Boshqalar bilan muloqatda boʻlishni oʻrganishi va muloqat extiyojlarini

Qondira olishidir. Agarda intellektual orqada qolish yoki xarakat apparatining ogʻir shakldagi buzilishi boʻlsa, bola nutqqa ega boʻlmasa, uning rivojlanishi uchun sa'y-xarakat qilish kerak emas. Maxsus pedagog yoki logoped bilan maslaxatining, kommunikasiyaning qaysi turidan foydalangan

Maqkul: imo-ishora, mimika nutqi, piktogramma, bliss-ramzlar yoki

Soʻz birikmalari yozilgan maxsus moslama uskunadan, qaysiki bolaga toʻgʻri kelsa ushbu metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Eshitishida muammosi bor bolani imo-ishora-mimika nutqiga iloji boricha vaqtlitroq oʻrgating (buni nafaqat bola, balki ota-ona xam oʻrganishi kerak boʻladi).

Esda tuting, yillar davomida buzilishlarni toʻgʻrilash, nutqni shakllantirish uchun sa'y-xarakat kilib, bola rivojlanishi uchun qulay boʻlgan senzitiv davrni oʻtkazib yuborasiz.

Oʻz faoliyatida oʻz-oʻzini nazorat kilishi va oʻz-oʻzining boshqaruvi rivojlanishi, uning maqsadga yoʻnalganligi va erkinligini rivojlanipb mustaqil xarakatlarning yanada rivojlanishi va oʻyin qoidalariga rioya qilishni xam rivojlantirib borish lozim. Shunday qilib, bola xayotida oʻzini xurmat va e'tiboga loyqk, belgilangan xuquqqa ega boʻlgan shaxs deb bilishi, u olamda yashayotganligini xis kilishi, qiyinchiliklarni yenga oladigan inson sifatida boʻlib yetishishida avvalam bot ota-ona va yaqinlarning bolani qoʻllab-quvvatlashi eng muxim omillardan biri xisoblanadi.

Boladagi xar bir oʻzgarishga diqqatlitroq boʻling. Va nixoyat, rivojlanishida aloxida xususiyatga ega boʻlgan bolalarning ota-onalari uning tarbiyasi va rivojlanishi boʻyicha ekspert boʻlib shakllanadilar. Axir, xech bir mutaxassis bolani oʻz ota-onasi kabi tushuna olmaydi, ona bolani tartib-intizomga, oʻz-oʻziga xizmat kilish koʻnikmalarini rivojlantirishga oʻrgatish jarayonining muxim tomonlari va boshqa jixatlarini yaxshi biladi. Shuning uchun muammolari oʻxshash boʻlgan onalarning bir-birlari bilan muloqatda boʻlishlari va oʻz tajribalari bilan boʻlishishlari, qoʻllab-quvvatlashlari juda muximdir. Ota-onalarning oʻzaro yordam guruxi asnosida juda koʻp ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Ota-ona oʻz muammolari bilan yolgʻiz qolmasligi zarur, mutaxassislar,q;arindosh va qkinlari

hamda aloxida yordamga muxtoj bolalarning ota- onalari orasidan o'z ittifoqchilarini faol qidirishi lozim. Dunyoda kichchkintoyga baxtli va muvaffaqiyatli bo'lib voyaga yetishiga yordam berish - bundan ko'ra muximroq narsa yo'q, siz esa bu yo'lda yolg'iz emassiz!

Nazorat uchun savollar:

1. Bolaning rivojlanishida oilaning o'rniga ta'rif bering?
2. Bolani muloqatga kirishish va nutqini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni yoritib bering?
3. Bolaning shaxs sifatida rivojlanishida oilaning o'rnini?
4. Bolaning psixologo-pedagogik tomonidan rivojlantirishga oid ishlarga ta'rif bering?

Asosiy adabiyotlar:

1. Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil. 6-15 betlar.
2. Mo'minova L., Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey perviix let jizni. T.: RSSAD, 2007g.3-17 str.

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Levchenko I.E., Zabramnaya S.D. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika.-M.: "ASAMEDIA", 2005.127-138 str.

Mavzu: Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilalarning ijtimoiy-psixologik tavsifi.

Reja

1. Oilaning umumiy ijtimoiy psixik xususiyatlari
2. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari
3. Oila turlari
4. Hozirgi zamon oilasining bajaradigan asosiy vazifalari

Tayanch so'zlar: gender tenglik, bola tarbiyasi, salomatlik muammolari.

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va vositalarining taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman, halq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqot munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada bo'zilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun bundan 90—100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya'ni o'tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15—16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishicha va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayonida ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishishi 2—3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15—16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12—13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi ushbu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15—16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda, 13—14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3—4 yil ustoz ko'rgan shogird 16—17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy

jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18—20 yoshli yigit mahalla-ko'ya, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda haqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat qarshisida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlari misolida ko'rib chiqaylik. Ular 12—13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz), biroq ular biror bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi. 12 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yoshlarimizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20—21, boshqalari uchun 23—25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan oilalarining kundalik hayoti o'zgarib, qiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib boradi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsning madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarning bir-birlariga qo'yadigan talablari oshishiga va shaxslararo munosabatning noziklashuviga olib keladi. Fikrimizning dalili sifatida bir fakti keltirishimiz mumkin. Ajralish foizi oliy ma'lumotlilar ichida umumiy o'rta ma'lumotlilarga nisbatan yuqoriroqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo'lmagan jamiyatdagi oila a'zolari o'z oilaviy yumushlarining aksariyatini qo'lda bajaradilar. Bunga oilaning barcha a'zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko'p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma'lum malakalarni, shu jumladan, oiladagi tegishli vazifalarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan muloqotda bo'lish malakalarini, har bir shaxsning ierarxik mavqeiga ko'ra o'z huquq va burchlarini aniqlab olishiga imkon beradi. Moddiy ta'minot, yuqori madaniy saviya esa oilada shaxsning shaxsga qo'ygan talabini yanada kuchaytiradi, oila a'zolarining o'zaro muloqotda bo'lish vaqti miqdorini qisqartiradi. Bu esa ota-onaning farzandlar uchun o'z oilasida namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi.

Shulardan ko'rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16—18 yoshida oila qurishsalar ham, shu vaqtga kelib oilaviy hayot uchun, muvaffaqiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo'lgan yetuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12—13 yoshlarida jinsiy balog'atga yetadilar va aksariyat hollarda oradan 7—8 yil o'tgandan so'ng, ya'ni qizlar 19—20 yoshda, yigitlar esa 21—22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida

oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy funksiyalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasining eng dolzarb masalalardan biri bo'lishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15—20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida va bizning respublikamizda (mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq) oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Umuman, insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi. Mana, «Oila psixologiyasi» kursini yoshlarga o'qitishning dolzarbligini ifodalovchi asosiy omil! «Oila psixologiyasi» kursining yaratilishi va uning o'quv predmetlari qatorida maktab, kollej, litseylarda o'tiladigan darslar jadvaliga kiritilishi ham Respublikamiz hukumati tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mantiqiy va mazmuniy davomidir.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir xujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek va butun organizm o'z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir xujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi xujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, unda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyotini, ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oila bosh mezon hisoblanadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalarning ko'payishi, ajrashishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz sharoitda dunyoga kelgan, shakllangan bola ham keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan, balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, jamiyat, yurt manfaatlariga zid turli salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi va shu asosda o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqini, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun, mustaqilligimiz istiqbollari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda

oilani mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etishning asosiy yo'li bo'lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta jiddiy yondoshishlarni talab etuvchi davlat, hukumat miqyosidagi masaladir. Buning muvaffaqiyatli amalga oshishiga jamiyatimizning har bir fuqarosi, siz o'quvchilar, ota-onalar- hamma birdek mas'uldir. Bu masala hech qachon kun tartibidan tushmaydigan, o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan o'ta nozik, nihoyatda jiddiy masaladir. Chunki insoniyat taraqqiyoti, jamiyatimiz taraqqiyoti shu masalani biz bugun qanday hal qilishimizga bog'liq.

Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish, ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir.

Oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari oila psixologiyasi kursining predmetini tashkil qiladi.

Oila psixologiyasi kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Oilaning shaxs shakllanishidagi roli haqida yoshlarda to'laqonli tasavvurni shakllantirish.

2. Yoshlarni oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi haqidagi va yuzaga kelgandan so'ng oilaviy hayot davomida bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy asoslangan bilimlar bilan tanishtirish.

3. Yoshlarda oilaviy hayotda muqarrar sodir bo'ladigan o'zgarishlar, muammolar, qonuniyatlar haqida ilmiy asoslangan to'laqonli tasavvurni shakllantirish va ularni bu jarayonlarga tayyorlash.

4. Yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga qonstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilaridan esa saqlanishga o'rgatish.

5. Yoshlarda oilaviy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda talqin etib, muammoli vaziyatlardan psixologik oqilona (oilaga va uning mustahkamligiga salbiy ta'sir etmagan holda) chiqish imkonini beruvchi malakalarni shakllantirish.

6. Yoshlarda o'z umr yo'ldoshini to'g'ri tanlash malakalarini shakllantirish.

7. Yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash.

8. Yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish.

9. Yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash.

10. Yoshlarda oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish.

11. O'quvchilarda oilani o'rganuvchi psixologik tashhis metodikalari bilan ishlash va ular yordamida olinadigan natijalarni to'g'ri talqin etish malakalarini shakllantirish.

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, dastavval hozirgi zamon oilasining, umuman, nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. Shunga asoslangan holda quyida insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida nikoh-oila munosabatlarining evolyutsiyasi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Maxsus manbalarda qayd etilishicha, yer yo'zida bundan 4 mlrd. yillar muqaddam hayot nishonalari, jonzodlar yuzaga kelgan. Hozirgi zamon odamlarining dastlabki ibtidoiy ajdodi (Homo-sapiens)- fikrlovchi odam bundan 3 mln. yillar muqaddam shakllangan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy

taraqqiyotdan so'ng asta-sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, kishilik jamiyatlari yuzaga kela boshlagan va odamlar o'rtasida dastlabki o'zaro munosabatlar, muloqotlar shakllana borgan. Lekin ularni hali tom ma'noda insoniy munosabatlar deb bo'lmaz edi.

Umuman erkak va ayollarning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi jins vakillari sifatida o'zaro munosabatlarining ilk ko'rinishlarida, ya'ni nikoh munosabatlari yuzaga kelishining ilk bosqichlarida jinslar o'rtasidagi munosabatlar, asosan biologik omillar bilan boshqarilgan. Xuddi maymunlarda bo'lgani kabi ibtidoiy odamlarning ayollari ham vaqti-vaqti bilan, qisqa muddatli (oy davomida 4—5 kungacha, faqat ayrim turlardagina 19 kungacha) «estrus» degan holatni, estrus davrini his qilganlar (estrus — qo'shilishga moyillikning shiddatli, kuchli namoyon bo'lishi). Bunday kunlarda ayollar kimni xohlasa o'shalar bilan farqlab o'tirmay qo'shilavergan, qolgan kunlari esa qo'shilish bo'lmagan. Odamlar tik yurishga o'tishi bilan ular organizmida ro'y bergan o'zgarishlar tufayli «ilk ayollarning» ko'z yorish jarayonida ko'p nobud bo'lishi va oqibatda odamlar to'dasida ular sonining keskin kamayib ketishi ro'y bergan. Shu sababli erkaklar o'rtasida ko'plab nizolar yuzaga kelgan, ularning ko'pchiligi qonli to'qnashuv ishtirokchilaridan birining nobud bo'lishi bilan tugagan. Bunday tabiiy tanlanish estrus hodisasi uzoqroq muddat davom etgan urug'larning ko'proq yashab qolishiga olib kelgan. Biroq bu biologik omil «ilk ijtimoiy» rejadagi yangi to'siqlarni yuzaga keltiradi: hech bir organizm bunday uzoq vaqt davom etgan o'ta shahvoniy, asabiy zo'riqlashlarga dosh bera olmas edi. Shuning uchun estrus muddatining uzayishi bilan ayollar bu davrda «sovuqroq», o'zining jinsiy maylini nazorat qiladigan va endi kim to'g'ri kelsa o'sha bilan emas, balki faqat o'zlariga yoqadigan erkaklar bilangina qo'shiladigan bo'lib borganlar. Erkaklarga nisbatan «tanlab» munosabatda bo'lish o'ziga xos insoniy muhabbatning biologik poydevori yuzaga kela boshlaganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz joizki, hozirgi odam tushunadigan, his qiladigan «sevgi» hissining ilk elementlari, ayollarning shu holati xususiyati evaziga insoniyat ruhiyatiga singib borgan. Shulardan so'ng asta-sekinlik bilan, garchi hech qanday ijtimoiy me'yorlar bilan boshqarilmasada, bir-birlarini shahvoniy ma'qul ko'radigan juftlardan iborat unchalik katta bo'lmagan guruhdar tashkil topa boshlaydi. Shunday qilib, estrusning uzayishi hamma uchun ham qulay, ma'qul bo'lmagan. Bu esa urug' tarkibiga kiruvchi erkaklar o'rtasida yana janjallar, qon to'qilishlariga sabab bo'ladigan holatlarni keltirib chiqargan. Odamlar jamoasi xo'jalik faoliyatining jiddiy bo'zilishi urug'ning yashab qolishi uchun xavfning ro'yobga chiqishiga olib keldi. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda urug' ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkt, zoologik individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me'yorlar shakllana boshladi. Ana shunday ijtimoiy me'yorlardan biri mazkur urug' ichida erkak va ayollarning jinsiy muloqotlarini ma'lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqtlarida) taqiqlovchi jinsiy tabular (ta'qiqlash) ning yuzaga kela boshlaganligidir.

Tabu — ahloqiy me'yorlarga qaraganda ancha jiddiy va qattiq ta'qiqdir. Ahloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, uni yo'q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin bo'lgan. Ko'pincha esa tabularni

buzganlar, ular buni bilib qilganmi yoki bilmaymi, bundan qat'iy nazar, so'zsiz jazolangan, yo'q qilib yuborilgan.

Ishlab chiqarishdagi jinsiy tabularning yuzaga kelishi urug' o'rtasida erkak va ayolni maishiy ajratib qo'yish bilan kuzatiladi. Tabu vaqtida erkaklarning nafaqat ayollarga teginishi, balki ularga qarashi, ular bilan gaplashishi, ular tayyorlagan ovqatni iste'mol qilishi, hatto ular bilan bir tom ostida ya'ni «bir uyda» bo'lishi ta'qiqlangan.

Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarining ortib borishi bilan jinsiy tabulardan xoli vaqtlar borgan sari kam muddatli bo'lib boravergan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo'riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan xoli qolgan vaqt oralig'i o'ziga xos shahvoniy ayshu ishratlarga aylana borgan.

Atoqli psixolog Z.Freyd bu davrni o'z navbatida bayramlarga qiyoslagan. Chunki aksariyat bayramlarda boshqa kunlari ta'qiqlangan deyarli barcha narsaga ruxsat beriladi. Bu bayramlar hech nima bilan cheklanmagan, jo'shqin jinsiy muloqotlar amalga oshirilgan. Shunday qilib, qisqa muddatli estrus yuzaga kelgan, biroq endi bu estrus biologik sabablar bilan emas, ijtimoiy sabablar bilan bog'liq bo'lgan. Bu vaqtlarda hali na nikoh va na oila mavjud bo'lgan.

O'z navbatida tabular keyinchalik nikohning ilk turlaridan bo'lmish ekzogam nikohlarni yuzaga keltiradi (ekzogam nikoh — urug'lararo, qabilalararo nikoh). Chunki tabular faqat o'z urug'i uchungina taalluqli bo'lib, unda qon-qarindoshlar o'rtasida jinsiy muloqot ta'qiqlangan, boshqa qabila yoki urug' a'zolariga esa taalluqli bo'lmagan. Shuning uchun erkaklarga qayerdadir, ovloq joyda boshqa uruqqa mansub bo'lgan ayolni uchratib qolib, undan shahvoniy ob'ekt sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan. Mabodo erkaklar uzoq muddat qishloq xo'jalik ishlari bilan band bo'lsalar, biron bir begona erkak bilan ayollar ham bu ishni bajarishgan. Tabu davom etayotgan davrda bir urug' erkagi o'z ayollaridan uzoqda, o'z kulbasida boshqa uruqqa mansub ayolni saqlashi mumkin bo'lgan. Keyinchalik bu tasodifiy aloqalar qabila qoidalarida odatiy, zaruriy, ko'zda tutilgan odatlarga aylanib borgan. Bu o'rinda odamlarga «boshqa urug'dagilar» bilan bo'lgan aloqalardan tug'ilgan nasllar nisbatan bo'yidor, baquvvat, abjir ekanligi sezilib borgan. Ushbu davr aynan hozirgi zamon odami - *gomo sapiens* shakllana boshlagan davrga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, endogamiya (faqat bir urug' vakillari o'rtasidagi jinsiy aloqa)dan agomiya, ya'ni jinsiy munosabatlarning vaqtinchalik ta'qiqlanishi orqali ekzogamiya (turli qabila vakillari o'rtasidagi muntazam jinsiy aloqa) yuzaga keldi. Bundan nikohning guruhli nikoh (dualno rodovoy) turi yuzaga kelgan. Guruhli nikohda bir urug' erkaklari boshqa urug'ning barcha ayollari uchun er va aksincha, ikkinchi urug'ning erkaklari birinchi urug' ayollarining erlari hisoblangan. Guruhli nikohning yuzaga kelishi nikoh juftlari doirasini ma'lum bir guruh a'zolari bilangina chegaralab, birmuncha qisqartiradi. Bunday hollarda boshqa urug'dagi «erkak» bu qabilaga faqat bitta maqsadda, «nikoh» maqsadidagina kelar edi, o'zlari esa ona oilalarida yashardi va ishlashardi, ular o'zlarining «xotin»lari yashaydigan oilada hech qanday huquqqa ega emas edilar. Guruhli nikoh ikki urug'ning nikoh aloqalaridan iborat bo'lgan, ya'ni nikoh munosabatlarining birinchi shakli hisoblangan. Albatta bunday urug'larni hali moddiy ne'matlar ishlab chiqarish emas,

balki bolalarni dunyoga keltirishgina bog'lab turgan. Ishlab chiqarish va bolalarni dunyoga keltirish munosabatlari bir-biridan ajratib qo'yilgan. Jinsiy aloqalar esa faqat bir-birlari bilan mulkiy ishlab chiqarish ishlari orqali bog'lanmagan odamlar o'rtasidagina mavjud bo'lgan.

Guruhli nikoh shaxsiy nikoh bo'lmagan, ya'ni unda biron bir doimiy «er-xotinlik» juftlari mavjud bo'lmagan. Har bir ayolning nikoh jufti aynan kim bo'lishi urug' tomonidan belgilanmagan, bu faqat odamlarning xolis xohishlari, istaklarining namoyon bo'lishi bo'lgan, xolos. Urug' faqat zo'ravonlik, majburlash hollari kuzatilgandagina aralashishi mumkin bo'lgan, ya'ni har bir individga o'zi qanday xohlasa, shunday yo'l tutish huquqi berilgan. Bunday munosabatlarni hozirgi zamon tili bilan «nikoh», deb atash mushkul, chunki bunday munosabatlar juftlardan na huquq, na majburiyat va na o'zaro mas'uliyatni talab qilgan. Shuningdek, oila deb atash mumkin bo'lgan, bolalarni boqish va tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan alohida bir muhabbat ham bo'lmagan.

Tabiiyki, guruhli nikohda u yoki bu bolaning otasi kim ekanligini aniqlash mushkul bo'lgan, shuning uchun bolalarning kelib chiqishi faqat ona tomonidagina hisoblangan. Urug'ning faqat ayolga tegishli tomoni tan olingan. Bolalar faqat o'z onasinigina bilganlar. Ularning singillari, singillarining bolalari, tug'ishgan aka-ukalari va boshqa qarindoshlari ona urug'ini tashkil qilgan.

Guruhli nikohning moddiy asosi, asosan uy xo'jaligini yuritish hisoblangan, chunki bu vaqtga kelib ovchilik hamma vaqt ham urug' ehtiyojini qondira olmay qolgan. Bu davrda ayol uy xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni bajargan va shu bilan birga urug' a'zolari o'rtasida o'ziga xos hurmatga ega bo'lgan, urug' oqsoqollari kengashida e'tiborli o'rin egallagan. Matriarxat (onalik) davri bir necha o'n ming yillar davom etgan.

Keyinchalik guruhli nikoh doirasida o'zaro mayllar zaminida yetarlicha doimiy juftlar shakllana boshladi. Bundan paydo bo'lgan juftli nikoh dastavval bir erkak doimo faqat bitta ayol bilan yashashini bildirmagan. Erkak kishi bir necha ayol bilan bo'lishi mumkin bo'lgan, xuddi shuningdek ayol ham bir necha erkak bilan munosabatda bo'lgan. Aniqrog'i bunday nikohni juftli nikoh emas, balki ibtidoiy-egalitar, ya'ni teng huquqli nikoh deyish to'g'riroq bo'ladi. Tabiiyki, urug'ning birmuncha boobro' a'zolari bir necha ayolga ega bo'lishi mumkin bo'lgan. Bu davrga kelib ko'p erlilik kamroq uchragan. Bunday juft nikohlar taxminan bundan 25—24 ming yillar muqaddam urug' ichida xo'jalik va iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarga o'tishi bilan xususiy mulkchilikning yuzaga kelishini ta'minlagan. Bu yo'lda qo'yilgan birinchi qadam «sovg'a ayriboshlash» deb nomlanuvchi odat bo'lgan.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan urug', qabila a'zosi mehnatining mahsuldorligi sezilarli darajada ortgan va bu ortiqcha iste'mol mahsulotlarining yuzaga kelishiga olib kelgan. Har bir ishchi o'zi yaratgan mahsulotni qabilaning «umumiy qozoniga» tashlaydigan eskicha taqsimot shakli endi ishlab chiqarishning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qila boshlaydi (chunki bu qabilaning nopok, dangasa a'zolarining ham ishlab chiqarish faoliyatidan jazosiz qutulib qolishiga olib kelgan). Shuning uchun ortiqcha mahsulotning ma'lum bir qismini qabila mulki sifatida o'zining abjirligi, chaqqonligi, ishlab chiqarish

faoliyatida ko`proq muvaffaqiyatlarga erishganligi bilan farqlanib turgan a`zolarga «mukofot» tariqasida taqsimlashga ruxsat berilgan. Hammaga teng taqsimlash bilan birga asta-sekin odamning imkoniyatiga, uning qabila mulkiga qo`shayotgan ulushi miqdoriga qarab «mehnat haqi» taqsimlana boshlangan. Agar teng taqsimlanishda jamoa mahsulotidan ulush olish «huquqi» mazkur uruqqa taalluqliligiga qarab berilgan bo`lsa (jamoat mulkiga qancha hissa qo`shganidan qat`iy nazar), endi bu «huquq» mahsulot yaratishdagi ishtirokiga asoslanadigan bo`lgan.

Urug`ning ayrim a`zolarida ortiqcha mahsulot, shaxsiy mulkning paydo bo`lishi, oilaning shakllanishi tomon qo`yilgan yangi qadam bo`lgan «sovg`a ayriboshlash»ni yuzaga keltirdi. Erkak kishi boshqa urug`dagi «o`z ayoliga» o`zining «mukofotini» sovg`a qilgan, shuningdek, ayol ham o`zinikini unga bergan, toki ular o`rtasida sovg`a ayriboshlash davom etar ekan, erkak bilan ayol o`rtasidagi jinsiy aloqa ham davom etavergan. Sovg`a ayriboshlashning to`xtatilishi esa ular o`rtasidagi aloqaning ham tugashini bildirgan. Shunday qilib, nikohning yana bir turi - individual juft nikoh yuzaga kelgan. Bunda ayolni o`zining qondosh-qarindoshlari, ya`ni o`z urug`i erkaklari bilan teng taqsimlash munosabatlari, boshqa urug`dagi erkaklar bilan esa sovg`a ayriboshlash munosabatlari bog`lab turgan.

Shuni aytib o`tish joizki, juftli oilaning yuzaga kelishi, boshidanoq uni o`z urug`iga qarshi qo`yishni va onalik urug`i asoslarining bo`zilishiga olib kelishini bildirgan. Ya`ni erkak kishi o`z mukofotini boshqa urug`dagi «o`z ayoli» va uning bolalariga qanchalik ko`p bersa, uning o`z onalik urug`iga shunchalik kam ulush qolgan. Biroq «er» hali «xotin» va uning bolalarining yagona boquvchisi bo`lmagan. Juftli oilalarning yanada asosliroq bo`lishi uchun sovg`a ayriboshlash noadekvat bo`lishi kerak edi, ya`ni er xotiniga xotin eriga berganga qaraganda ko`proq berishi lozim edi. Shunday qilib, u (er) xotinning bolalarini boquvchi bo`lib qolishi, sovg`a ayriboshlash munosabatlari boquvchilik munosabatlariga aylanishi lozim edi. Shu bilan birga erkakning xotin va uning bolalari bilan aloqasi muntazam va uzoq muddatli bo`lib bordi. Nihoyat qabilalararo (dualno rodovoy) nikoh zaminidan doimiy o`rin olgan xo`jalik birligi — jamoa tashkil topdi, unga erlar o`z xotinlari va ularning bolalari bilan kirdi. Erkaklar o`z singillaridan, ayollar esa mos ravishda o`z aka-ukalaridan ajralishdi. Yangi iqtisodiy xo`jalik birligi yoki oilaning yana bir turi — juft oila yuzaga keldi, unga, asosan er, xotin va uning bolalari kirdi.

Endi nikoh xotinning bolalarini tarbiyalash va boqishni o`ziga maqsad qilib qo`ygan erkak va ayolning ittifoqiga aylandi. Buning uchun er-xotinning har biri o`z urug`idan olgan ulushidan, mahsulotidan foydalanishgan. Bunday ittifoq yuzaga kelishining ob`ektivligi mehnatiga yarasha taqsimotning roli ortishi va teng taqsimlash rolining pasayishi bilan kuchayib bordi. Juft nikohning yuzaga kelishi bilan juftlar o`rtasidagi jinsiy munosabatlar nafaqat shunchaki ahloqiy me`yorlar bilan boshqariladigan doiralarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy doiraga (ramkaga) ham kiritildi.

Oldingi mavzuimizda oila, nikoh haqida, nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida, oilaning klassik turlari haqida fikr almashdik. Unda keltirib o`tilgan oila turlari klassifikatsiyasiga ko`ra hozirgi zamon oilasi «Monogam oila»lardan iboratdir. Biroq hozirgi zamon monogam oilasi ham o`z navbatida bir-biridan to`zilishi, tarkibi, mohiyati va boshqa xususiyatlariga ko`ra

yana bir qator turlarga bo'linadi. Hozirgi zamon oilalarining qanday turlarga ega ekanligini va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi. Quyida shular haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

1. To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta to'zilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.

2. Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.

3. Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSh, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 4 bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekistonda bunday oilalar farzandlar soni o'rtacha bo'lgan oilalar sirasiga kiradi.

4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, aralash tipdagi oila.

5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga va turli saviyadagi ma'lumotga ega bo'lgan er-xotinlardan tashkil topgan oila.

6. Oilaning «yoshiga» ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3—5 yillik, 6—10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

7. Er-xotinning ota-onasi oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lmagan oilalar.

8. Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

9. Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra: ajralish saviyasida — nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lgan oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

10. Oilada ayol yoki erkak yetakchiligiga ko'ra: er yetakchi bo'lgan oila, xotin yetakchi bo'lgan oila, er va xotin yetakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

11. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlarga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

12. Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin:

— dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar;

— dini, urf-odatlar yoki tili bir guruhga kirmagan millat vakillari orasidagi nikohlar, masalan, o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar.

13. Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashashadi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir-birlarini norasmiy nikohda

sinashyapti), rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim ob`ektiv sabablarga ko`ra rasmiylashtirish kechiktirilyapti), nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi, yuridik jihatdan norasmiy oilasi). Nikohdan tashqari oilalarning ayrimlari pinhona bo`lsa, ko`pchiligi haqida erkak kishining birinchi oilasi va qarindoshlari bilishadi.

Oilaning yuqoridagi shartli ijtimoiy-psixologik klassifikatsiyasi, ularga xos psixologik xususiyatlar mutaxassis (sotsiolog, psixolog)lar tomonidan ilmiy o`rganilishi va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xizmat qilishi kerak.

To`liq bo`lmagan oilalarning paydo bo`lishining yana bir muhim sharti - bu ayollarning emansipatsiyasi tufayli yuzaga keladigan "o'zi uchun" bolalarning tug`ilishi.

To`liq bo`lmagan oilalar munosabatlar turiga ko`ra farqlanadi, ularning to`rttasi bor:

1. Ona ota haqida gapirmaydi, u hech qachon bo`lmagandek ko`rinadi.
2. Ona otaning qadr-qimmatini pasaytirishga, uni bolalarning ko`z o`ngida yomon ko`rinishga solishga harakat qiladi.
3. Ona ota haqida o`zining kuchli va zaif tomonlari bilan oddiy odam sifatida gapiradi.
4. Agar otasi ketmasa, lekin vafot etgan bo`lsa, unda uning qiyofasini idealizatsiya qilish ko`proq uchraydi.

Eng yaxshi variant - bolalarga hamma narsani qanday bo`lsa, shunday qilib aytib berishdir. Ularga o`tgan turmush o`rtog`ingizga bo`lgan munosabatingizni, vaziyatga qarashingiz va tushunishingizni yuklashning hojati yo`q. Bolalar ulg`ayib, o`zlari xulosa chiqaradilar. To`liq bo`lmagan oilalar quyidagi muammolarga duch kelishadi:

–Kam daromad. Bitta daromad manbai yoki bola parvarishi bo`yicha nafaqa va boshqa davlat to`lovlari (vaziyatga qarab) har doim ham barcha oila a`zolarining asosiy ehtiyojlarini qondira olmaydi.

–Ish bilan ta`minlash bilan bog`liq muammolar. Bu narsa ko`p jihatdan bolaning yoshiga bog`liq, lekin, qoida tariqasida, ota-onaga uyga yaqin ish, yuqori maosh, moslashuvchan ish soatlari, tungi smenalar va ish safarlari kerak emas.

–Bolaning e`tiborsizligi. Ushbu tavsifga mos keladigan ish topish oson emas, bu esa to`liq bo`lmagan oilalarning uchinchi muammosi - bolalarning qarovsizligiga olib keladi.

–Farzandlar va ota-onalarda pastlik, zulm hissi.

–Maktabda, bolalar bog`chasida, ko`chada tengdoshlar tomonidan zo`ravonlik

–Haddan tashqari himoyalaniishga aylanadigan ota-onaning aybi, hamda bolalarning aybi, agar ular o`zlarini oilaning buzilishiga sababchi deb bilishsa.

Shunday qilib, to`liq bo`lmagan oilalar ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va pedagogik muammolarga duch kelishadi. Agar oila a`zolaridan birining sog`lig`i yoki nogironligi bo`lsa, vaziyat yanada og`irlashadi.

To`liq bo`lmagan oilalar muammolarini nafaqat umumiy, balki bolalarning rivojlanishi nuqtai nazaridan va ota-ona pozitsiyasidan ham alohida ko`rib chiqish mumkin. Voyaga etmagan bolalari bo`lgan har beshinchi rus oilasi to`liq emas. Bolalar to`liq bo`lmagan oilada tarbiyalanishning oqibatlarini boshdan kechiradilar:

- gender identifikatori bilan bog'liq muammolar;
- og'ishlar;
- o'gay onasi yoki o'gay otasi bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar;
- sog'liq muammolari.

To'liq bo'lmagan oilalardagi bolalarning asosiy muammosi - bu jinsni aniqlash va jinsiy orientatsiya qilishdagi qiyinchilik. Ota-onalarning munosabatlari erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning namunasidir. Kelajakda, o'z munosabatlarida, bolalar ushbu misolni boshqaradilar. To'liq bo'lmagan oilalarning bolalari ma'lum bir vaziyatda erkak va ayolning xatti-harakati haqida ozgina g'oyalarga ega. Shu sababli ularning oilalarida ziddiyatlar, tushunmovchiliklar, nizolar, kelishmovchiliklar, ajralishlar kelib chiqadi. Qizlarda ayollik, o'g'il bolalarda jasoratning rivojlanishiga bolaning hayotining birinchi besh yili ta'sir qiladi. Bu davrda hech qanday namuna bo'lmasa (ota yoki onaning mavjudligi shart emas), oqibatlar shunchalik yomon bo'ladi.

To'liq bo'lmagan oilalarning aksariyati ona va bolalardan iborat. Keling, erkak misolisiz ota-onaning oqibatlarini ko'rib chiqaylik. Qizlar erkaklar bilan munosabatlarda ishonchsizlikdan azob chekishadi, qurbon bo'lishadi, odatlanib qolishadi yoki behayo jinsiy hayot kechiradilar. Butun karerasini to'liq bo'lmagan oilalarni o'rganishga bag'ishlagan amerikalik psixolog Mavis Xeterington o'z tadqiqotlarining birida otasi vafot etgan qizlar erkaklar bilan o'zini tutishini aniqladi. Otasi oilani tark etgan qizlar, aksincha, aloqa qilish, noz-karashma, muloqot qilishga moyil.

O'g'il bolalar uchun nima xosdir:

- ayol xususiyatlarining ustunligi;
- tajovuzkorlik;
- giyohvandlikka moyil;
- qasddan erkaklik, tajovuzkorlik va qattiqqo'llik ortiqcha kompensatsiya shakli sifatida.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Oilaning umumiy-jimoiy psixik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari nimalarga ta'sir qiladi?
3. Oila turlari deganda nimani tushunasiz?
4. Hozirgi zamon oilasining bajaradigan asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
5. Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra nimalarga bo'linadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.L.Korpenko. Maktab o'quvchilarining ta'limi №2 2013 yil.
2. To'liq bo'lmagan oilada bolalarni tarbiyalash. M., 1985 - B.5.
3. Karimova V.M . «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» Toshkent. Universitet. 1999 y.
4. Anikeyeva «Jamoadagi ruxiy muxit» Toshkent. Uk. 1992 y.

Mavzu: Ota-onalar va bola munosabatlarini psixologik-pedagogik tashxis qilish metodlari

Reja:

1. Ota-onalar va bola munosabatlarini psixologik-pedagogik tashxislash
2. Oilaviy uslub va uning o'zgarishi usullari

Tayanch tushunchalar: Bolalar va ota-onalar munosabatlari, bola-onalar munosabatlarini tashxislash usullari.

Farzandlar yoshi, turli fanlar sohasidagi ilmiy xodimlarning inson hayotidagi muhim va mas'uliyat davrida tadqiqotchilarning e'tiborini qaratmoqda. Bola rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, uning shaxsiyati paydo bo'lishi oilaviy va ota-onalar munosabatlari tizimida bu erda mavjud.

Zamonaviy oila jamiyat hayotining turli sohalariga kiritilgan va makroziya omillarining ta'sirini boshdan kechirmoqda. XX asrning 90-yillarida mamlakatimizda chuqur ijtimoiy o'zgarishlar oilaga ijtimoiy organizmning eng zaif qismi sifatida ta'sir ko'rsatmadi. Ushbu o'zgarishlar bolalar jinoiy darslarda ishtirok etadigan kam ta'minlangan kam ta'minlangan va halokatli oilalar sonining ko'payishiga olib keldi va zo'ravonlik qurboniga aylanadi. Bolalarni rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlar nuqtai nazaridan, farzandning tashqi hayotiy holati noto'g'ri ta'lim tufayli, noo'rin ta'lim tufayli uzoq muddatli hissiy jarishtalar bilan tavsiflanishi mumkin.

Psixolog-maslahatchilar G.V. Bo'lishi, O.A. Karabanova, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati nuqtai nazaridan xavfsiz bo'lgan oilalarning psixologik muammolarini tavsiflovchi, "Maslahat amaliyoti tobora konsalting amaliyoti tobora ko'proq oilada muloqot mazmunini kamaytirishga, Issiqlik etishmasligi, bir-biriga diqqat bilan qarash, kattalar yoki umumiy dam olish bilan bolaning foydali faoliyatining chinakam foydali shakllarining yo'qolishi. Shaxsiy va informatsion aloqaning tor pragmatik shakllari - ko'rib chiqish, rejim, tadqiq qilish, o'qishda muvaffaqiyatlar monitoringi va bolalarni targ'ib qilish faqat o'z moddiy shakllariga kamayadi. "

Shunday qilib, ona-onalar munosabatlari muammosi psixologik fan fani va amaliyotining rivojlanishida va hozirgi bosqichda dolzarb bo'lib qolmoqda.

aL.) urinishlar bola-onalar munosabatlarini ko'p qirrali o'rganishga urinish va patogen ta'lim xususiyatlarini ta'kidlaydi va bolalarda hissiy buzilishlarga olib keladi.

Shunday qilib, A.Ya. Ota-ona munosabatlari ostida vanga ota-ona tuyg'ularining bolaga nisbatan yaxlit tizimini anglatadi, i.e. uning idrok va tabiat va bola harakatlar tushunish, shuningdek xulq stereotiplari xususiyatlari bola bilan muloqot yilda ota-ona tomonidan ishbilarmon.

Ota-ona munosabatlari tuzilishini, A.Ya. (- nafrat yoki qabul - rad sevgi) va xulq-(avtonomiya - nazorat qilish) Varga asosiy omillar hissiy bo'lgan E. Shefer va R. Bella tomonidan taklif ota munosabatlar, bir dinamik ikki omil modeli asoslangan.

Va I. Varga ota-ona munosabatlar quyidagi komponentlarini ajratadi: aqliy komponentini aniqlash bolaning ota-ona tomonidan ajralmas qabul-rad; Ota-onaga hissiy komponentni tavsiflovchi bolaga hissiy jihatdan yaqinlik darajasini

belgilaydigan shaxslararo masofa; Xulqotchining tarkibiy qismini aniqlash, bolaning xatti-harakatlarini monitoring qilish va yo'naltirish.

Bu borada A.Ya. Varga ota-ona munosabatlarining turlarini ushbu komponentlarning turli kombinatsiyasi bilan belgilab qo'yilgan bolalar bilan o'zaro munosabatlari - kognitiv, hissiy va xulq-atvor bilan bog'liq bo'lgan shakllarni ko'rib chiqishni taklif qilmoqda. Bolalarni tarbiyalashga dosh berolmaydigan ota-onalarda kuzatiladigan ota-ona aloqalarining quyidagi to'rt turi: infenkasializatsiya va ijtimoiy nogironligi, simbiotik, symbiotik avtoritar. Yuqoridagi qoidalar bo'yicha muallif tomonidan V.V bilan birgalikda. ota-ona munosabatlar (orq) ning anketasi - Stalin bolaga nisbatan ota-ona holatda ning o'ziga xos jihatlaridan tashxis uchun bir usuli ishlab chiqilgan.

6 "Metodologiya masalasi ota-onalar munosabatlarining ayrim jihatlarini ifoda etadigan beshta tarozi hisoblanadi:

1) "Rad etish "

2) "Hamkorlik". Ushbu shkala kattalardagi bola bilan hamkorlik qilish istagini, ularning ishida samimiy qiziqish va ishtirok etishning namoyon bo'lishi;

3) "Symbioz". Ushbu miqyosdagi savollar kattalar bilan birlik yoki aksincha, bola va o'ziga xos psixologik masofani saqlashga harakat qilmoqda. Bu bolalar va kattalar bilan aloqa qilish;

5) "infansiya". Bu ko'lamli namoyishlar qanday kattalar uning mohiyati va kamchiliklari, yutuq va kamchiliklar uchun, bolaning qobiliyati bilan bog'liq.

5 ta tarozi uchun siz yuqori, o'rta, past ballarni terishingiz mumkin. Oliy bal ota-ona munosabatlari va past nuqtalari yuqorida jihatlarini muhim rivojlanishini ko'rsatadi - ular nisbatan kuchsiz rivojlangan, deb.

Yuqorida aytib o'tilganidek, to'liq psixologik xizmat ehtiyojlariga javob ota-ona turdagi boshqa sinflar, ko'pchiligi, e'tiborsizlik "qulay" qoldirib, asosan patogen variantlari ustida, yo'naltirilgan. A.Ya tomonidan ishlab chiqilgan anketada. VarGoya, V.V.. kapital, "hamkorlik" ko'lamli bola bilan hamkorlik qilish kattalar istagini ifoda, mavjud, lekin u ota-ona tuzilmalar turlari ajratish ishtirok etmaydi.

Shu nuqtai nazardan, bola-onalar munosabatlari tipotia. buyruqbozliklari, vasiylik, aralashmaslik va hamkorlik: oilada ta'lim va shuningdek, shart-sharoit va ularning yuzaga natijasidir bola-ota munosabatlarning to'rt turdagi tomonidan ularga mos to'rt taktikasini ta'kidlaydi Petrovskiy.

Oilada aytib, uning boshqa a'zolari ba'zi oila a'zolari (asosan kattalar) tashabbuslari va o'z-o'zini hurmat muntazam bostirilishi namoyon bo'ladi.

Ota-onalar farzandlariga ta'lim maqsadlariga asoslanib, axloqiy normalarga, o'ziga xos vaziyatlar normalariga qarab talab qilishlari mumkin. Biroq, buyurtma va zo'ravonlik shaklida ta'sir bolaning qarshilik ko'rsatmalariga ta'sir qiladi. Bunday holda, bolalar tarqalish, yolg'on, ikkiyuzlamachilik bilan munosabatda bo'lishlari mumkin. Agar bolaning qarshiligi buzilgan bo'lsa, "U bilan birgalikda ko'plab qimmatbaho fazilatlar, mustaqilligi, o'z-o'zini hurmat qilish, tashabbus, imoni va o'z imkoniyatlarida.

Oilada "Okek" - bu ota-onalardir, ular ota-onalar, ularning ishlarini bolalarning barcha ehtiyojlarini qondirish, uni o'zlariga olib boradigan har qanday tashvishlar, harakatlarimiz va qiyinchiliklardan himoya qiladilar.

Ota-onalarning ta'kidlashicha, ularning "okek" ni aytib, "OKek" o'z samarasini bermoqda: bolalarning mustaqillikka erishmasligi, tashabbuskor, ular shaxsiy va oilalarga tegishli muammolarni hal qilishdan to'xtatib qo'yiladi.

"Vasiylik" ning oilaviy ta'lim taktikasi sifatida salbiy oqibatlari shundaki, uning shaxsiyatini faol ravishda shakllantirish haqida emas, balki uning o'rniga qiyinchiliklardan foydalanish masalasi, uning shaxsiyatini faol ravishda paydo bo'ladi. "Fordianshianshunolik o'quv amaliyoti sifatida - mehnat ta'limi haqidagi samimiy dushmani, chunki qo'riqchi, birinchi navbatda, harakatlar va mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ymoqda" - deb yozadi A.V. Petrovskiy. Supridik sharoitda tarbiyalangan bolalar balog'at yoshiga etmaganlik, shaxsiy va jamoaviy javobgarlikni o'z zimmalariga olishmaydi. Agar ota-onalar o'rtacha bolaligidan minimal darajada parvarish qilishni kamaytirsalar, ularning bolalarini boshqarish

ta'limning umumiy jihati (sog'liqni saqlash, axloq va boshqalar) va unga har kuni vazifalarini hal qilishda mustaqillik va mas'uliyatni taqdim etish, shu bilan etuk shaxsiyatni shakllantirishga hissa qo'shadi.

"Xavozsiz" - bu oilalar va bolalarning mustaqil yashashi va maqsadga muvofiqligini tan olish uchun, bu oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimidir. "Bolalar va kattalar dunyosini ajratish ko'pincha e'lon qilingan: bola mustaqil, mustaqil, bo'shashgan, bepul" - Eslatmalar. Petrovskiy. Shu bilan birga, ota-onalar o'quv funktsiyalarini amalga oshirishdan uyqay olishadi va bola oila a'zolarini his qilmaydi, qarindoshlar va qarindoshlarning quvonchlari va qiyinchiliklarini baham ko'rmaydi. Agar kerak bo'lsa, bola dunyoning keng qamrovli muammolarga duch kelolmaydi.

"Hamkorlik" oiladagi munosabatlar turi sifatida birgalikda harakatlarning umumiy maqsadlari va maqsadlari, qo'shma faoliyat, uning tashkil etilishi va yuqori axloqiy qadriyatlari bilan shaxslararo munosabatlar imkoniyatlarini anglatadi.

O'zaro munosabatlar turi o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadigan oilasi yuqori darajadagi rivojlanish guruhiga aylanadi. Ushbu turdagi munosabatlar, axloqiy oqlangan ta'limning maqsadlarini "diktatsiya", "parvarish qilish" va "aralashmaslik" maqsadlariga nisbatan maqbuldir.

Bunday oila uchun adolat ota-onalar va bolalar o'rtasidagi kunlik majburiyatlarni, oila a'zolarining birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizliklar uchun javobgarlik taqsimotini taqsimlaydi. Munozaratning o'zaro bog'liqlik turi bilan oilaning eng muhim xususiyati birlashganning asosiy birligining namoyishi sifatida uyg'unlikdir.

Hozirgi vaqtda xorijiy va mahalliy psixologiyada bola-onalar munosabatlarini tashxislashda katta tajribaga ega. Shunday qilib, psixologlar-maslahatchilar G.V. Bo'lishi, O.A. Karabanova amaliy ish tajribasiga asoslanib, oilada shaxslararo munosabatlarni tashxislashtirish, quyidagi usullardan foydalanishni tavsiya eting ["2"].

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Ota-onalar va bola munosabatlarini psixologik-pedagogik tashxislash nimalarga bog'liq?
2. Oilaviy uslub deganda nimalarni tushunasiz?

3. Oilaviy uslubning o'zgarishi usullari deganda nimani tushunasiz?
4. Bolalar va ota-onalar munosabatlari nimalarga bo'g'liq?
5. Bola-onalar munosabatlarini tashxislash usullari deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Giyburashvili T. I. Uy-onalararo munosabatlarni ichki psixologiyada o'qish // Tagaronrog shtatining yangiliklari. Radiotech. BMT-Ta. - 2006. - T. 68. № 13. - 119-120.
2. Golubva E. V. Ota-onalar munosabatlarining turlarini tashxislash // Rossiya psixologik jurnali. - 2009. - T. - T. 25-34.
3. N. Rojdestvo N. A. Oilaviy ta'lim va farzandlarining ota-onalari tomonidan idrok etish va idrok qilish. Mosh. BMT-Ta. - Ser. 14, psixologiya. - 2002. n 2. - 48-55.
4. Rogov E.I. Ta'lim sohasidagi amaliy psixologning ish stoli kitobi: qo'llanma. - m .: Vldos, Vldos, Vldos, 1996 yil. 335-341.

Mavzu: Alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari

Reja:

1. Alohida yordamga muhtoj bolalar
2. Yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati
Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.
2. Logopediya. (pod red. A.S.Volkovoy). M.: Vldos. 2003 g.
3. Mo'minova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O'qituvchi 1993 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ayupova M.Y., Mo'minova L.R Logopediya – T., 1993
2. Axmedova Z.M, Ayupova M.Y., Xamidova M.P Logopedik o'yin “O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” - T.: 2013
3. Vorobyeva V.K. «Osobennosti svyaznoy rechi shkolnikov s motornoy alaliyey» . / pod red. S.S.Lyapidevskogo - M ., 1985.
4. Vigotskiy L. S., Pedagogicheskaya psixologiya. M.,1990.

Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi.

Amaliy mashg'uloti maqsadi:

Talabalarni “Alohida yordamga muhtoj ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari” mavzusi bilan tanishtirish

Amaliy mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:

1. Talabalarda alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash haqidagi nazariy ma'lumotlarini mustahkamlanadi;
2. Yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari haqida tushuncha beradi.
3. O'z fikrini erkin ifoda eta olish malakasi shakllanadi;
4. Guruhlarda ishlash qobiliyati rivojlantiriladi.

1-ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

- Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing.
- Agar sizga yordam kerak bo'lsa, albatta guruh a'zolariga murojaat qiling.
- Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
- Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart!
- Shuni aniq tushunmog'ingiz lozim:
- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari

<i>Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>	<i>1-guruh</i>	<i>2- guruh</i>	<i>3- guruh</i>
Maksimal ball – 5			
- savol to'liq yoritib berildi (3 ball)			
- javoblar etarli darajada asoslab berildi (0,5 ball)			
- guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball)			
- berilgan savollarga javob berdi (0,5 ball)			
- reglamentga rioya qildi (0,5)			
<i>Jami: (5 ball)</i>			

5 – ball - «a'lo»

4 - ball - «yaxshi»

3 - ball - «qoniqarli»


2 – ball - «qoniqarsiz»

“Blits-so'rov” topshiriqlari.

1. Alohida yordamga muhtoj bolalar haqida ma'lumot bering
2. Yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalariga nimalar kiradi?

“Venn”diagrammasi.

Yordam tizimini rivojlanishining dolzarb masalalari



**Mavzu: Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarga barvaqt
majmuaviy yordam ko'rsatish.**

Reja:

1. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar
2. Majmuaviy yordam ko'rsatish

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati
Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.
2. Logopediya. (pod red. A.S.Volkovoy). M.: Vlado. 2003 g.
3. Mo'minova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O'qituvchi 1993 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ayupova M.Y., Mo'minova L.R Logopediya – T., 1993
2. Axmedova Z.M, Ayupova M.Y., Xamidova M.P Logopedik o'yin “O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” - T.: 2013
3. Vorobyeva V.K. «Osobennosti svyaznoy rechi shkolnikov s motornoy alaliyey» . / pod red. S.S.Lyapidevskogo - M ., 1985.
4. Vigotskiy L. S., Pedagogicheskaya psixologiya. M.,1990.
5. Volkova L.S. Logopediya. M., 1989.

Taqdimot texnologiyasi yordamida asosiy nazariy ma'lumotlarni bayon etadi.

Amaliy mashg'uloti maqsadi:

Talabalarni “Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarga barvaqt majmuaviy yordam ko'rsatish” mavzusi bilan tanishtirish

Amaliy mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:

1. Talabalarda rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarga majmuaviy yordam ko'rsatish haqidagi nazariy ma'lumotlarini mustahkamlanadi;
2. Majmuaviy yordam ko'rsatish masalalari haqida tushuncha beradi.
3. O'z fikrini erkin ifoda eta olish malakasi shakllanadi;
4. Guruhlarda ishlash qobiliyati rivojlantiriladi.

1-ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

- Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing.
- Agar sizga yordam kerak bo'lsa, albatta guruh a'zolariga murojaat qiling.
- Agar sizdan yordam so'rasha, albatta yordam bering.
- Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart!
- Shuni aniq tushunmog'ingiz lozim:
- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari

<i>Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>	<i>1-guruh</i>	<i>2- guruh</i>	<i>3- guruh</i>
Maksimal ball – 5			
- savol to'liq yoritib berildi (3 ball)			
- javoblar etarli darajada asoslab berildi (0,5 ball)			
- guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball)			
- berilgan savollarga javob berdi (0,5 ball)			
- reglamentga rioya qildi (0,5)			
<i>Jami: (5 ball)</i>			

5 – ball - «a'lo»

4 - ball - «yaxshi»

3 - ball - «qoniqarli»


2 – ball - «qoniqarsiz»

“Blits-so'rov” topshiriqlari.

1. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar haqida ma'lumot bering
2. Majmuaviy yordam ko'rsatish qanday amalga oshiriladi?

“Venn” diagrammasi.

Majmuaviy yordam ko'rsatish masalalari



Mavzu: Abilitatsiya va reabilitatsiyaning mohiyati va ahamiyati.

Reja:

1. Abilitatsiyaning mohiyati va ahamiyati
2. Reabilitatsiyaning mohiyati va ahamiyati

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.

2. Logopediya. (pod red. A.S.Volkovoy). M.: Vados. 2003 g.

3. Mo'minova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O'qituvchi 1993 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ayupova M.Y., Mo'minova L.R Logopediya – T., 1993

2. Axmedova Z.M, Ayupova M.Y., Xamidova M.P Logopedik o'yin “O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” - T.: 2013

